«Sotsiologiya – ijtimoiy tuzumlarning funksionallashuvi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun va qonuniyalari, bu qonun va qonuniyalarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatidagi yuzaga kelishi va amal qilish shakllari to'grisidagi fandir».

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, sotsiologiya – ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Sotsiologiya bizga ko'prok ijtimoiy turmush tiplarini tahlil qilishdagina yordam bermay, ochilayotgan kelajakka nazar tashlash imkonini ham beradi. Shu asosda shunday savol tug'ilishi mumkin: amalda odamlarning ijtimoiy turmushini ilmiy tarzda o'rgana olamizmi?

Bu savolga javob berishimiz uchun fanning asosiy xususiyatlari, ob'ekt va predmetini ko'rib chiqishimiz kerak

Fan o'zi nima?

¹ Idirov, Xolbekov sotsiologiya fanidan lo'g'at «Toshkent» 1999 y

Sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlarga o'xshab ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish usullariga, nazariyalarni isbotlar va mantiqiy dalillar asosida baholash usullariga ega bo'lgani uchun ham fan hisoblanadi.

Sotsiologiya bizning turmushimizga juda ko'p amaliy ta'sir o'tkazadi. Sotsiologik tafakkur va tadqiqotlarning amaliy siyosat va ijtimoiy islohotlarga o'tkazadigan ta'siri bir necha yo'nalishda bo'ladi. Eng bevosita ul – ijtimoiy vaziyatni aniq bo'lishidir.

Endi bevosita sotsiologiyani fan darajasiga ko'tarilishi, uning asoschisi, ob'ekti va predmeti to'g'risida kengroq to'xtalib o'tamiz.

Mamlakatimizda sotsiologiya fanining taraqqiy topishida milliy istiqlool g'oyasining mohiyat va mazmuni muhim dastur vazifasini o'taydi. Milliy istiqlool g'oyasi sotsiologiya fanining rivojlanishida mamlakatimiz Konstitusiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlari, demokratik tamoyillarga tayanishi, xalqiimizning yuksak ma'naviyati, o'lmas merosi, yurt tinchligi, vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilishni taqazo etadi.

Shunday qilib sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Fanning ob'ekti va predmeti xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Sharq va G'arb mutafakkirlari bildirib o'tgan ta'riflarga to'xtalib o'tish darkor.

Mashhur nemis olimi M.Veberning fikricha, «sub'ektiv mazmunga ega bo'lgan individ fe'l-atvori tarkib topgan harakat, sotsiologiyani predmetini tashkil etadi».1

E.Dyurkgeym fikricha, sotsiologiyani predmetini – ijtimoiy ma'lumotlardan deb bilgan.2

Rus sotsiologi P.Sorokinning fikricha, «Jamiyat yoki ijtimoiy hodisalar fanni predmetni tashkil etadi»3 deb hisoblaydi.

Sotsiologiya fanining rivojlanish jarayonida uning ob'ekti va predmeti ham o'zgarib takomillashib bormoqda. Ob'ekt va predmet hamma vaqt bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham sotsiologiya predmetni aniqlash masalasi uning ob'ektini aniqlash bilan bog'liqdir. Xo'sh sotsiologiyani ob'ektini qanday tushunishimiz kerak?

Sotsiologiyani ob'ekti insonning turli holatdagi xulq-atvori bo'lsa, uning predmeti mehnat, siyosat va boshqa sohalardagi xulq atvirlarning mexanizmlarini o'rganishdir.

Sotsiologiya fani ob'ekti va predmeti tadqiqot o'tkazish faoliyati natijasida nomoyon bo'ladi. Shu bois ham sotsiologiyani tarixiy rivojlanish bosqichlari davomida uning ob'ekti va predmeti to'g'risidagi tushunchalar doimo o'zgarib borgan. Buni biz yuqoridagi mutafakkirlarning bildirib o'tgan mulohazalaridan ham bilib olishimiz mumkin.

Jamiyat hayotidagi mavjud ijtimoiy o'zaro aloqadorlik, ijtimoiy munosabatlar, ularning yuzaga kelishi va oqibatlarini sotsiologik tadqiqot ob'ekti sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Sotsiologiya o'z ob'ekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan shug'ullanadi. Masalan, huquq sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, iqtisodiy

sotsiologiya va hokazolar. Bu sohalarda o'z ob'ekti inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi o'zni va rivojlanishi, xayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi.

Sotsiologiyani predmetini esa qo'yidagicha izohlash mumkin: Sotsiologiyani predmeti jamiyatdagi inson mohiyatining rivojlanayotgan umumbashariy xususiyatlarini amalga oshiruvchi qonunlardir. Agar fanning ob'ekti nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet o'sha ob'ektni qanday o'rganadi degan ma'noni keltirib chiqaradi. Yuqoridagini xulosa qilib aytganimizda sotsiologiyani ob'ekti ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar deb ta'riflashimiz mumkin.

- I. Sotsiologiyani predmeti esa inson hayot tarzining konkret jihatlari, odamlarning fe'l-atvori, jamiyatdagi o'zni va harakatlaridan iboratdir deb xulosalash mumkin. Shu asnoda mamlakatimiz sharoitiga moslab, qo'yidagi ob'ekt sifatida o'tuvchilarni ajratib ko'rsatamiz:

I. Ijtimoiy bosqich:

1. Jamiyat
2. Ijtimoiy qatlam
3. Mahalla
4. Ijtimoiy guruh
5. Oila
6. Shaxs

II. Milliy bosqich:

1. Millat
2. Elat
3. Etnik gurux
4. Avlod
5. Milliy oila
6. Indivud.

III. Tarmoqlar bosqichi:

1. Iqtisodiyot
2. Siyosat
3. Madaniyat
4. Fan
5. Ta'lim
6. Ekologiya

IV. Hududiy bosqich

1. Mintaqa
2. Mamlakat

3. Viloyat
4. Shahar
5. Qishloq
6. Maxalla

Respublikamizda Sotsiologiyaga qiziqish kuchayib bormoqda. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy iqlim rivojlanmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zgarishlar bo'lmoqda. Shu bois ham sotsiologiya yuqoridagi o'rganadigan ob'ekt va predmetni ham keltirib o'tganimizdek 4 bosqichda amalga oshirilishi zamon talabi hisoblanadi.

1.2. Hozirgi zamon sotsiologiyasi murakkab tarkibiy tuzilishga ega. Sotsiologiya fan sifatida, eng avvalo, dialektik metodologiyaga tayanadi. Sotsiologiyaning metodologiyasi – «sotsial jarayonlarni tadqiqot prinsiplari, shakllari va metodlarini ishlab chiqishdir».¹

Sotsiologik tafakkur Yevropada salkam bir yarim asrlik vaqt davomida turli maktab va yo'nalish vakillari tomonidan turli xil mulohazalarga sabab bo'ldi. Ammo bu yondashuvlarni maqsadi bitta – insonni, uni o'rab turgan ijtimoiy borliqni tushunish va sotsiologiyani fan darajasiga ko'tarish bo'lgan. Rus sotsiologi P.Sorokin fikri bo'yicha bu fanni o'ziga xos va muhitda yashovchi odamlarning xulqini o'rganuvchi fan deya ta'kidlab o'tgan. XIX asr G'arbiy yevropada E.Dyurkgeym, M.Veber, O.Kontlar xam sotsiologiya sohasida ma'lum ishlarni amalga oshirganlar.

Ogyust Kont.

Albatta, bir kishi butun bir fanga asos sola olmaydi, dastlabki sotsiologiyaning paydo bo'lishida ko'pgina kishilar o'z hissasini qushganlar. Biroq, tenglar orasida birinchi sifatida, odatda, fransuz yozuvchisi Ogyust Kontni (1789-1857) tan olishadi, bu avvalo shuning uchunki, aynan mana shu yozuvchi «Sotsiologiya» atamasini muomalaga kiritgan edi. Dastlab Kont fanning yangi sohasini ifodalash uchun «sotsial fizika» atamasidan foydalandi, keyin boshqa mualliflar ham ushbu atamani qullay boshladilar, natijada ular va o'z qarashlari o'rtasidagi farqni, hamda o'zi tomonidan asos solingan fanni ifodalash maqsadida yangi so'zni kashf etdi. Kont sotsiologiya fanini yosh, lekin ahamiyatga ko'ra eng murakkab va muhim fan hisoblardi. Kont fikricha, yangi fan insoniyat baxt-saodatga erishuvida to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi; hayotining oxirida u fransuz jamiyatini va umuman butun insoniyatni qayta to'zishning buyuk rejalarini ishlab chiqdi.

Emil Dyurkgeym.

Kontning ishlari boshka fransuz mutafakkiri Emil Dyurkgeymga (1858-1917) bevosita ta'sir ko'rsatdi. Aslida Dyurkgeym Kont ijodining ba'zi jihatlariga tayanishiga qaramasdan, uning ishlarini o'ta spekulativ va noaniq deb hisoblardi va uning fikricha, Kont sotsiologiyani fan sifatida yaratish borasidagi o'z dasturini bajarishga muvaffaq bo'la olmadi. Dyurkgeymning fikricha, sotsiologiya fanga aylanish uchun, «sotsial faktlarni» o'rganish lozim. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, sotsiologiyaning

¹ Sotsiologiya o'quv qo'llanma 1999 й 29-bet

birinchi mashxur tamoyili quyidagichadir: «sosal faktlarni buyumlar kabi urganish lozim». U bu iborani iste'molga kiritganda, sosial xayot xam tabiatdagi obektlar yoki vokealar kabi qat'iy taxlil etilishini nazarda tutgan edi.

Sotsiologiyani barcha asoschilari kabi, Dyurkgeym ham ko'z o'ngida jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlardan ruxlanadi. U bu o'zgarishlarni sanoatlashuvning bir qismi sifatidagi mehnat taqsimoti bilan (turli kasb soxalari o'rtasida farqlar murakkablashib boradi) tushuntirishga harakat qiladi. Dyurkgeym ta'kidlashicha, mexnat taqsimoti ijtimoiy jixatdan o'zaro aloqadorlik asosi bulgan dinni borgan sayin siqib chiqara boradi. Mexnat taqsimoti kuchaygan sayin, borgan sari kishilar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'la boradi, chunki ularning har biri boshqa kasbdagi kishilar ishlab chiqarayotgan tovarlar va xizmatlarga extiyoj sezadi. Dyurkgeym fikricha, zamonaviy olamdagi o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, bu sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Buni u anomiya hodisasi bilan bog'laydi. Anomiya – bu muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar natajasida, o'zining mavjudligidan maqsad yuqligi yoki foydasizligi, keraksizligini his etishdir. An'anaviy odob-axloq me'yorlarning chegaralari va talablari din bilan bog'langan bo'lib, asosan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida buzib tashlanadi, shuning uchun zamonaviy jamiyatlarda ko'pgina individlar, o'zlarining kundalik mavjudligidan ma'no yo'qligini his etishga duch kelmoqdalar.

Dyurkgeymning mashhur tadqiqotlaridan biri o'z-o'zini o'ldirishlarni tahlil etish bilan bog'langan edi. O'z-o'zini o'ldirish o'ta shaxsiy akt hisoblanib, katta shaxsiy baxtsizliklar oqibati hisoblanadi. Dyurkgeym fikricha, suisidga ijtimoiy omillar fundamental ta'sir ko'rsatadi va ularning biri anomiyadir. O'z-o'zini o'ldirish statistikasi yildan yilga takrorlanadigan manzarani namoyon qilmoqda, bu esa hodisani sotsiologik jixatdan tushuntirishni taqazo qiladi. Dyurkgeym tadqiqotlarning kupgina jixatlari e'tirozlarni keltirib chiqarmoqda, lekin shunga qaramay, mumtoz ish sifatida uning axamiyati zamonaviy sotsiologiya uchun hamon muhimdir.

Nemis olim Maks Veber ongni ijtimoiy harakatlar omili va mahsuli deb ta'rif bergan. U ilmiy izlanishlarni madaniyat va tabiat haqidagi fanlarga ajratgan. Uning fikricha, insonning ongli mavjudot ekanligini na tarixchi, na sotsiolog va na iqtisodchi inkor eta oladi. Maks Veber ijtimoiy xulqni insoniy munosabatlardan iborat deb bilgan. Insoniy xulq esa o'z navbatida ijtimoiy mohiyatga egadir. Veber stratifikatsiya mavzusiga ham e'tiborini qaratib o'tgan. Stratifikatsiya – strata (qatlam) tikasiya (bajaraman) degan ma'noni anglatadi.¹

Veber fikricha, sinflarga bo'linish faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish yoki bo'lmaslik emas, balki mulk bilan bevosita bog'liq bulmagan iqtisodiy farqlar bilan ham belgilanishini ta'kidlagan. M.Veber g'oyalari zamonaviy sotsiologiyada keng qo'llaniladi. Jumladan, uning ijtimoiy status (mavqe), partiyalar haqidagi fikrlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Amerikalik sotsiolog T.Parsons M.Veberning sotsial stratifikatsiya nazariyasini yanada rivojlantirdi. Uning fikricha «stratifikatsiya– ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatning

¹ A. Xolbekov U. Idivov sotsiologiya lug'at T. 2000 й 16- bet

asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb hisoblanadi.¹ Uning asosiy asari «Sotsiologiya tizimida» sotsiologiyaning mohiyat mazmunini keng ravishda ochib bergan.

Yana bir amerikalik sotsiolog T.Parsonsnings funktsional ta'limoti muvozanati haqida fikr yuritgan. Uning fikricha, «ijtimoiy muhitdagi doimiy muvozanati», ichki va tashqi ta'sirini muvofiqlashtirish – sotsiologiyaning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. T.Parsons ijtimoiy tizimlar, munosabatlar va ijtimoiy sanksiya tushunchalariga ham keng to'xtalib o'tadi.

1.3. Ijtimoiy hayot masalalarini o'rganish doirasi kengayib borayotganligi sababli sotsiologiya fani ham, uning o'rganish ob'ekti ham borgan sari kengayib, chuqurlashib bormoqda. Sotsiologiyaning iqtisodiyot, falsafa, xuquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida yanada ortib bormoqda. Endi bevosita fanlar bilan aloqadorligi xususida fikr yuritamiz.

Sotsiologiya va falsafa:

- Sotsial falsafa qonun va qonuniyatlar kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar uchun esa nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida mazkur davr ijtimoiy fikrini shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologiya tadqiqot empirik ma'lumotlar, eksperimentlar yordamida ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning qanchalik tug'ri, mazkur ijtimoiy davr mazmuniga xos yoki ularning eskirib, ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob bera olmay qolganligini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Sotsiologiya fani bir asr oldin falsafiy ajralgan bo'lsa-da, ularning aloqasi uzviy. Falsafa sotsiologiyaning nazariy – metodologik asosini tashkil etadi. Bu borada ulug' alloma Abu Nasr Forobiy har qanday ilmning va ilm sohibining muayyan qobiq orasida cheklanib qolmasligi lozimligini, balki keng ko'lamli mushohada qila biluvchi, muayyan fanga yaqin bo'lgan ilmlar va nazariyalar tanish bo'lishining jamiyatini ta'kidlagan.

Sotsiologiya va xuquq:

-Mustaqil O'zbekistonda tarkib topayotgan huquqiy munosabatlar asosida va o'ziga xos sharqona an'analarga mos ravishda qonunchilikni qaytadan barpo qilishda sotsiologiya va xuquqshunoslik fanlari aloqadorligi muhimdir. Huquqiy davlatni shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish katta ahamiyatga ega. Sir emaski, keyingi vaqtlarda jinoyatchilik ortdi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda sodir etilayotgan jinoyatlarning ogir va o'ta og'ir turlari anchaga ortgan. Ana shu jinoyatlarni o'rganish va tadqiq etishda sotsiologik tadqiqotlarning o'rni beqiyosdir. Jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish – davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi. Unga qarshi jinoyat sodir etilgandan so'ng emas, balki unga qadar olib borilmog'i lozim. Jinoyatning oldini olish, uning tub mohiyatini, motivi va keltirib chiqaradigan sabablarini o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar olib borish

¹K.Yunusov. Sotsiologiya.O'quv qo'llanma. Andijon 1997 йил 55-бет

ahamiyatga ega. Demak, xuquq fanlarining rivojlanishida ham sotsiologiyaning o'rnini katta.

Sotsiologiya va iqtisod:

-bu ikkala fan o'rtasidagi aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash iste'mol jarayonlarini o'rganishda nomoyon bo'ladi. Hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat (fermerlar, tadbirkorlar) shakllanishi jarayonida uning ahamiyati katta. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari uchun metodologik asos bo'ladi.

Sotsiologiya va tarix:

-Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil, sistemali tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda tarixchi mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Masalan, at-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Xondamir, Xermat Vamberi kabi buyuk olimlar o'zlarining tarixga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar. Tarixiy kelajagimiz uchun o'tmish sahifalariga aylanadi. Shunday ekan, Prezidentimiz I.Karimovning «O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi yo'q» - degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Sotsiologiya va matematika:

-Sotsiologiyani matematikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum bir qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa, biron bir tadqiqot o'tkazgandan so'ng uni qayta ishlash, foizlashtirishda uzviy aloqadorligini seziladi.

Sotsiologiya va kibernetika:

-maxsus matematik usullar – daraja ko'rsatkichi, omillik, sababli va sirtdan qo'llaniladi. Sotsiologik tadqiqotlarni olib borishda yuksak darajadagi kompyuter, hisoblash texnologiyalaridan keng va unumli foydalaniladi.

Sotsiologiya va texnika fanlari:

-hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida sotsiologiya va texnika fanlar aloqadorligi tabiiydir. Inson yaratgan barcha texnika faqat inson va jamiyatning ijobiy taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Ammo doimo kutilgan natija bo'lavermaydi. Ularni o'rganishda sotsiologiyaning roli kattadir.

Sotsiologiya va psixologiya:

-yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish sharoitida kishilardagi o'zini ko'zlash, o'z shaxsiy manfaatini jamiyat, millat manfaatidan ustun ko'rishlik hollari kuchaymoqda. Kishilarda behalovatlik, asabiylik ortmoqda. Ushbu muammolarni o'rganish va hal etib borishda sotsiologiya va psixologiya fanlarining hamkorligi zarur deb o'ylaymiz.

Sotsiologiya va pedagogika:

-hozirda Respublikamizda ta'lim tarbiyaga jiddiy e'tibor berilmoqda. Xususan, 1997 yil «Ta'lim to'grisida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning qabul

qilinishi ham bevosita ushbu fikrimizni isbotlaydi. Buni pedagog-o'qituvchilar tarkibida ham ko'rishimiz mumkin. Talaba o'qituvchilar ongida ilmdan qaytish, fanlarga e'tiborsizlik, engil mehnat evaziga yaxshi yashash hissiyotlari kuchaygan. Milliy pedagogikamiz hozirda sotsiologik tadqiqotlarga juda muxtoj. Bu tadqiqotlarning natijalari qanchalik beshafqat bo'lmasin, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishimiz kerak.

Nomi tilga olib o'tilgan fanlar tarkibida ijtimoiylik yunalishi mavjud. Shu jihatdan, o'z navbatida ularning sotsiologik fani rivojlanishidagi ahamiyati kattadir.

1.4. Jamiyat hayoti sotsiologiya fani doirasida umumsotsiologik, maxsus sotsiologiya va emperik sotsiologik tadqiqotlar asosida o'rganiladi.

Hamda sotsiologiyada maxsus sotsiologik nazariyalar sifatida iqtisod sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, turmush tarzi, shahar va qishlok, boshqarish va tashkil qilish, siyosat, madaniyat, ilm-fan, ta'lim, shaxs, oila, yoshlar, bo'sh vaqt, etnosotsiologiya va boshqa sotsiologik sohalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Umumsotsiologik nazariyalaridan farq qilib, maxsus sotsiologik nazariyalar makon va zamon jixatidan nisbatan tor chegara kasb etadi. Ularning yana bir farqi: umumsotsiologik ta'limotlar umumijtimoiy amaliyotda tekshiriladi, sinaladi va tasdiqlanadi; maxsus sotsiologik nazariyalarning xulosalari va tasdig'i esa amaliy tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar esa statik – muayyan bir ijtimoiy daraja doirasidagi o'zgarishlarini ifodalash mumkin. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalar sotsiologiya fanining nazariy jihatini tashkil etadi. Hozirda konkret va xususiy sotsiologik tadqiqot sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Sotsiologik bilim va usullarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch darajasi hamda nazariy va amaliy sotsiologiya o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, yagona sotsiologiya fanini tashkil qiladi.

«Nazariy sotsiologiya»¹ - jamiyat ijtimoiy hayotining umumsotsiologik, hamda umumiy darajalardagi funktsional va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Masalan, hozirda O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish konsepsiyasi va jamiyat hayotida bozor munosabatlarini tarkib topib borish jarayonini o'rganish nazariy sotsiologiyaning asosiy tadqiqot ob'ekti xisoblanadi. Nazariy sotsiologiyada ijtimoiy hayotning iqtisodiyot, siyosat, maishiy turmush, ma'naviyat kabi alohida sohalarining rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy-nazariy asosda o'rganadi.

«Amaliy sotsiologiya»¹ – inson faoliyatini, jamiyat hayotining turli sohalarini, jarayonlarini bevosita amaliy asosda o'rganadi. Amaliy sotsiologiyada emperik tadqiqotlardan olingan ilmiy ma'lumotlar nazariy jihatdan umumlashtiriladi. Shundagina nazariy sotsiologiyada olingan tadqiqot natijalari ijtimoiy hayot voqeligini, uning rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri, ob'ektiv ravishda ochib bera oladi. Haqiqatdan xam nazariy va amaliy sotsiologiya jamiyat hayotini ilmiy-nazariy jixatdan tadqiq etishda asosiy tizimlardan hisoblanadi.

1. Yuqoridagi fikrlarni xulosalasak qo'yidagilarga to'xtalib o'tishimiz mumkin:

¹ A. Xolbekov, U. Idivov. Sotsiologiya T. 1999 y 12- bet

2. O'rganilayotgan muayyan ijtimoiy jarayonga bog'liq bo'lgan ilmiy ma'lumotlarning to'laligicha olinishini ta'minlash zarur.
3. Ayrimlikdan umumiylikka qarab va aksincha borish prinsipini amal qilinishi zarur.

Ilmiy ma'lumotlarni to'plash, sistemali kuzatuv, ma'lumotlar so'rash ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Hozirda bu ta'limotlardan sotsiologiya va boshqa barcha fanlar doirasida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Shuning uchun sistemali – tarkibiy – funksiyaning tahlili hozirgi zamon sotsiologiyasining metodologik asarlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

1.5 O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy hayotida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar mamlakat siyosiy hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat siyosiy tizimidagi islohotlar sifat jihatidan yangi siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Mazkur siyosiy munosabatlarga mamlakatimizdagi mavjud siyosiy partiyalarning davlat, jamoat birlashmalari bilan va o'zaro munosabatlari misol bo'la oladi. Bu munosabatlarda siyosiy partiyalar o'z maqsad va vazifalarini aniqlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitmoqdalar. Yangi siyosiy jarayonlarga siyosiy partiyalar faoliyatlari misol bo'lib, bu faoliyatda ular jamiyat siyosiy tizimidagi o'z mavqei va rolini mustahkamlash, faoliyat dasturini taraqqiyotning yangi talablari bilan moslashtirish, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatini to'la to'kis himoya qilishga qaratmoqdalar.

Mustaqil respublikamiz siyosiy hayotida dastlab shakllangan siyosiy partiya, bu O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi bo'lib, u boshqa siyosiy partiyalardan farqli ravishda katta siyosiy tajribaga ega bo'lib, ommaviy ijtimoiy zaminga qurilgan. Bu partiya mamlakatimizning barcha viloyat, shaxar va tumanlarida o'zining partiya tashkilotlarini tuzishga mavaffaq bo'lgan va partiya a'zolarining umumiy soni jihatidan ham boshqa siyosiy partiyalardan farq qiladi. Bu kabi masalalarni chuqur ilmiy tadqiq qilish hozirgi zamon sotsiologiyasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Sotsiologik tafakkurni shakllantirish, uning amal qilish tamoyillarini ishlab chiqish va qo'llash hozirgi davr vazifalari hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Sotsiologiya atamasining ta'rifi nima?
 2. Fanning ob'ekti va sub'ektiga ta'rif bering.
 3. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
 4. Sotsiologiyaning umumiy tasnifi.
 5. Zamonaviy o'zbek Sotsiologiya maktabi.
 6. Sotsiologiyaning nazariy asoslari.
 7. Ijtimoiy bosqich nima?
 8. Sotsiologiyaning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
 9. Sotsiologiyaning metodologiyasi nima?
- Sotsiologiyaning falsafiy fan ekanligi.**

2-ma'ruza. Mavzu: Sotsiologiya fanining yuzaga kelishi va taraqqiy etishi.

Reja

- 1. Antik dunyo sotsiologiyasi.**
- 2. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.**
- 3. G'arbiy yevropa sotsiologiya maktabi.**
- 4. XX asr sotsiologiyasi.**
- 5.Sotsiologik maktablar va ularning asosiy bosqichlari.**

Adabiyotlar:

4, 2, 5, 11, 21

Tayanch iboralar:

Pozitivizm, tushunuvchan sotsiologiya, omma, elita, ijtimoiy institutlar, so'fiylik, xanafiya, mitraizm, zardushtiylilik.

2.1. Sotsiologiyani fan sifatida oldingi ma'ruzamizda tasavvur etgan edik. Endi shu tasavvurlarimizni yanada boyitish maqsadida, uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishimiz lozim bo'ladi.

Sotsiologiya fan sifatida qachon vujudga keldi?

Eng avvalo shuni unutmasligimiz kerakki, sotsiologiya bu – jamiyat to'grisidagi fan. Ijtimoiy munosabatlarni, jamiyatning turli sohalaridagi o'ziga xos jixatlarini, umumiy va xususiy qonuniyatlarini, jarayonlarini o'rganadi. Ijtimoiy xayot rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar, eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari Aflotun (er.avv. 427-347 yy) ning «Qonunlar», «Davlat to'grisida», Arastu (er.avv 384-322) ning «Siyosat to'grisida», «Metafizika», «Etika», Protagor (er.avv. 490-420 yy) «Haqiqat» kabi asarlarida keng yoritilgan. Antik dunyo sotsiologiyasi xususida gap ketar ekan biz, 3 ta davr to'grisida ma'lumotga ega bo'lishimiz darkor.

Bular:

1. Eng qadimgi grek sotsiologiya maktabi.
2. Grek demokratiyasi ravnaqi davri.
3. Antik dunyoning «oltin davri».

Eng avvalo, qadimgi grek sotsiologiyasi hakida fikr yuritsak, XII asrda yashab ijod etgan Gomer va VI asrgacha amal qilgan Milet maktabi vakillarining qarashlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu maktab vakillarining falsafiy qarashlari sizga falsafa kursidan yaxshi tanish. Shunday bo'lsa-da, biz ularga alohida-alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

FALES – uning fikricha, jamiyat va tabiatning asosini dastlabki tarkibiy modda hisoblangan suv omili tashkil etadi. Barcha o'zgarishlar suv va suyuqliklar tufayli ro'y berishini ta'kidlaydi. Tabiatdagi barcha narsalar suv ishtirokida yuzaga kelganligi sababli ularning hammasida jon bor. Uning ana shu goyasi tabiat va jamiyatga insoniy yondashuvning shakllanishiga xizmat qilgan. Uning ijtimoiy karashlari bevosita Sotsiologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

ANAKSIMEN – u olamni asosini havo tashkil etadi deb hisoblaydi. Uning fikricha havoning tabiatda yigilishi va siqilishi natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy qismlar yuzaga keladi. Anaksimén nazarida xavo-dunyoni urab turgan nafas bulib, jamiki narsalarga uz ta'sirini utkazib turadi deb xisoblaydi.

PIFAGOR – uning fikricha, olam abadiy bo'lib, insondagi rux boshqa narsalarga kuchib yuradi. Ana shu ta'limot uning g'oyasini vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Olamning asosi son va raqamlardan iborat ekanligi xam Pifagorning asosiy falsafiy g'oyalaridan xisoblanadi.

Grek demokratiyasi ravnaqi bosqichiga to'xtalib o'tsak. Bu bosqichga Geraklit, Parmenid, Zenon, Empedokl, Anaksagor, Protagor, Georgiylarni kiritish mumkin.

GERAKLIT – uning fikricha, xamma narsalar tabiatda faqat bitta narsadan yaralgan va shu birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu asosni u «olov» deb xisoblaydi. Geraklit «Ko'p bilimlilik kishini aqlli, donishmand qilavermaydi. Agar ko'p bilim olish kishini oqil qilganida Gesiod va Pifagor xam aqlli donishmand bo'lishar edi», ¹- deb yozadi.

EMPEDOKL – u barcha narsa va hodisalarni, ilm va ma'rifatning vazifalarini asoslab berdi. u ilm olishdan maqsad, o'zligini tanish, jamiyat va tabiat haqida teran fikr yuritishdir deb ta'kidlaydi.

ANAKSIGOR - insonning ilm-ma'rifatga intilishidan maqsad – atrof muhitni o'rab turgan borliq hamda kosmos mohiyatini anglashdan iborat deb hisoblaydi. Antik dunyoning «oltin davri» da Sokrat, Levkip, Demokrit, Platon va Aristotellarni kiritish mumkin.

SUQROT – uning qarashlarida qanday qilib yaxshi yashash, kamolotga erishish uchun san'at asarlarini bilish zarurligi o'rin olgan. Inson faoliyati uning yaxshilik, savob, oriyat, insof haqidagi tushunchalari mazmunidan iborat. U juda ko'p nazariya va ta'limotlar yaratgan. Ammo bizgacha ulardan juda kami etib kelgan. Uning asosiy asarlarini uning shogirdlari yozib olishgan.

PLATON - u ko'proq inson va inson mavqei to'g'risida fikr yuritgan. Uning ta'kidlashicha, tugri fikr qilish malakasiga ega bulish deganda biror bir hayotiy voqea taxlili vaqtida masalaning avval yaxshilik tomonida ro'y berganligini tushuntirishga intilishdir. U ko'proq ideal davlat tuzish haqida fikrlar bildirgan. Uning ezgulik asosiga qurilgan ideal davlat tuzumi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Donishmandlik.
1. Jasorat.
2. Har ishda me'yorni saqlash.
3. Adolat.

ARISTOTEL - u jamiyatning ijtimoiy tarkibi masalalarini o'rganish bilan shug'ullangan. U yana komil inson, komil fuqaro haqida o'z qarashlarini ifoda etgan. Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixining eng mazmundor davri bo'lishiga grek maktabiga mantiqiy yakun yasagan. U yaratgan ta'limot xam Prezidentimiz I.A.Karimov ilgari surgan milliy istiqlol g'oyasi konsepsiyasida ta'kidlab o'tilgani kabi «o'zi mansab bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat

¹ Sotsiologiya o'quv qo'llanma .T. 2002 й 27- бет

qildi»¹. Antik dunyo sotsiologiyasi vakillarining ilk ta'limotlari keyingi davr vakillari uchun asosiy turtki bo'lib xizmat qilgan.

2.2. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari o'sha davr allomalari ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarining ijtimoiy qarashlarini o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Zardushtiylikning asosi bo'lgan «Avesto» miloddan avvalgi VII asrda qadimgi Xorazmda yaratilgan bo'lib, uning ma'nosi qonun – qoidalar demakdir. Unda asosan yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlar aks ettirilgan. Bu kuchlar urtasidagi kurash, ijtimoiy jarayonlarni yondashuv orqali hal etish uchun turli oqimlar vujudga kelgan. Xususan: mitraizm oqimidir. «Mitraizm – Xudo Mitraga sajda qilish bilan bog'lik bo'lgan din»²

Bu oqim Yevropa va Rim imperiyasidan tortib axamoniylar, kushoniylar amal qilgan davrlarda xam o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Sharq sotsiologiyasida Xitoy mutafakkirlarining qarashlari muxim axamiyat kasb etadi. Xitoyda bizga ma'lumki kuchli imperiyalar tarkib topgan. Diniy mutaasiblik va kosmologiya g'oyalari Xitoy hukmdorlarini azaldan osmoniy hukmdor mavqesiga yuksalish orzulari yulida xizmat qilib kelgan. Kosmologik g'oyalar asta sekinlik bilan imperiyaning har bir jabhasida ma'lum bir ramziy belgilar tarzida ifodalangan. Masalan, tamg'alarda uch gorizantal chiziq, ya'ni osmon, er va insondan iborat bulgan chiziqlardir. Uning asarlarida kuproq kosmologiya masalalari urin olgan. U kishilar o'rtasidagi munosabatlar tizimini besh ko'rinishga ajratadi:

1. Ota va farzand.
2. Er va xotin.
3. Aka – ukalar.
4. Turli oilalar.
5. Hukmdor va fuqarolararo munosabatlar.

Nima xayoliga kelsa shuni qilishga emas, balki jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan, ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga mas'uldir. U juda ko'p davlat boshqaruvi yuzasidan nazariyalar yaratgan. Afsuski, o'sha davrda hech bir hukmdor uning xizmatidan foydalanmagan.

Movaraunnahr hududida yashagan mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari ham e'tiborga molikdir. Ayniqsa, Abu Mansur al-Moturidiyning xizmatlari beqiyos. Keyinchalik Moturidiya maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturudiy o'z asarlarida din, jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar va shaxs haqida ta'limotlar yaratgan. Inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya murosaviy muvozanat konsepsiyasi deb atalib, unda islomni anglash, ijtimoiy-siyosiy muxit, xalq turmushi, mintalitet va insoniy yondashuvlar sintezi deb baxolashimiz mumkin. U jamoa va jamiyatni moxiyatan asoslab berishga xarakat qiladi. Al Moturidiy axloqiy tanlov, ixtiyor erkinligi xaqida fikr yuritib, ularni jamoaga, guruxga qarshi bo'lmasligi va shaxs davlatning va aksincha shaxs oldidagi mas'uliyatni alohida e'tirof etadi. U

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilllar T. 200 й. 16-бет

² Xolbekov. У. Idirov. Sotsiologiya lo'g'at. T. 2000 й 27- бет

jamoatchilik fikri bilan jiddiy shug'ullangan. Umumiy fikrga kishilarni ongli ravishda yondashishlarini da'vat etadi. Jamoatchilik fikr yuzasidan fikr bildirib, islomiy e'tiqodi ham, hayotiy – axloqiy soxalarida ham, mafkuraviy siyosatda xam insonlarning yakdillikka erishishlarida nomoyon bo'lishini ta'kidlaydi. U murosaviy muvozanat konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu konsepsiyada asosan jamiyatdagi ijtimoiy fikr barqarorligi ham tazyiq va kuch vositasida emas, balki o'zaro hamjixatlik, hamkorlik negizida amal qilish g'oyasi ilgari surilgan. Ana shu konsepsiya Al Moturidiyning sunniylik mazhabining Movoraunnahrda keng yoyilishiga hissa qo'shdi.

Islom dini, sunniylik, so'fiylik, shia mazxablariga biz keyingi ma'ruzalarimizda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob», «Siyosat al-Madaniya» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy¹ tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga o'ringan. Davlat va jamiyat masalasida davlatni ijtimoiy tuzumini boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqaruv esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'liq deb bilgan.

«Fozillar shahrining birinchi boshlig'i, - deb ta'kidlagan Forobiy, shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan un ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur». U madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisi ijtimoiy jixatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy jixatdan namunali, har bir odam kasb hunarda ozod, hamma barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosida ozod bo'ladilar – degan fikrlari Forobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi. Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilini ham aloxida ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, inson barcha haqiqatlarni o'zini qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha sir-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shuning uchun u uzidan oldingi allomalarning fikr-xulosalarini hech ikkilanmay o'zlashtirish lozim deb ta'kidlaydi. Forobiy bo'lardan tashqari ijtimoiy fikr masalalariga ham katta ahamiyat beradi.

Abu Rayxon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mineralogiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy xayot masalalari yoritilgan. «Mineralogiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, erdagi burchi, oliyjanobligi, shuningdek jamiyat xayoti, ijtimoiy adolat tugrisidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Beruniy tom ma'noda o'z davri etnosotsiologi ham edi. «Etnosotsiologiya – etnos – millat, logos - ta'limot».²

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yaxudiylar, arablar, turklar tug'risida, «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki

¹K.Yunusov.Sotsiologiya o'quv qo'llanma.. A. 1997 й 20-бет.

² K.Yunusov. Sotsiologiya o'quv qo'llanma.. A. 1997 й

tuzilishi haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Beruniy xindlarning bayramlari, nikoh masalasini o'rgangan. Beruniy sotsiologiyasidagi muhim soha ijtimoiy tabaqalashuv haqida ham fikr yuritib, «Tillarning turlicha bulishiga sabab bo'lgan odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar utishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan»². Beruniy ilmiy ijodida, jamiyat hayotini o'rganishda ilmiy kuzatish, taqqoslash, tavsiflash kabi Sotsiologiya ning emperik usullaridan keng va oqilona foydalangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur xam «Boburnoma» asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijon-Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy jixatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yozib qoldirgan.

Forobiyning shogirdi Ibn Sino (980-1037) ham ijtimoiy hayotni o'rganish va tadqiq qilishga harakat qilgan. Uning aksariyat asarlari ahloqiy qarashlardan iborat bo'lgan. U o'z asarlarida bir qancha ahloqiy fazilatlariga ta'rif beradi. chunonchi, iffat, himmat, adolat, saxiylik, qanoat, sadoqat va boshqalar shular jumlasidandir. Alloma tasavvuf falsafasi va tasavvufiy axloqshunoslikka doir asarlar ham yozgan. U shuning uchun ham «Shayx-ur-Rais» ya'ni shayxlarning raisi degan nom olgani bejiz emas. Ibn Sino tabiat va jamiyat haqida fikr yurita turib, o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi deb ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining erkin yashashlari uchun o'sha jamiyat, davlat va odamlar birgalikda faoliyat ko'rsatishi shartligini asoslaydi. Yanada oddiyroq qilib aytganda, dunyo kamoloti uchun jamiyatdagi yashaydigan odamlar erkin faoliyat qilishlari lozim. Ana shundagina ijtimoiy xayot o'z o'rniga tushishi mumkin. Jamiyat hodisalarini o'rganish, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy guruhlar muammolari ham Ibn Sinoning diqqat markazida turgan. «Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning albatta bir kun kelib yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda gayritabiiy narsalarning yo'qligini ham ta'kidlaydi».¹

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ibn Sino sotsiologiya tegrasida ancha samarali ishlar olib borgan. Buyuk vatandoshimiz savob va jazo masalasida ham mohiyatan tasavvufiy yo'nalishda fikr yuritadi. U yana inson taqdiri masalasi bilan ham qiziqqan.

Temuriylar davri ilm – fan va madaniyat taraqqiyotining oltin davri sifatida hanuzgacha jahonni hayratga solib kelmoqda. Bu davrda ko'plab qomusiy olimlar, shoirlar va san'atkorlar etishib chiqdi. Ular orasida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) alohida ajralib turadi. Uning asarlaridagi badiat bilan birgalikda falsafiy-ijtimoiy qarashlar xanuzgacha o'z ahamiyatini yuqotgan emas. Navoiy o'z asarlarida inson qadr-qimmati, nomus oriyat va insoniy g'urur tushunchalari, inson erki, tafakkur tarzi kabilarga ahamiyat berib o'tadi. Shuningdek, jamiyatdagi ziyolilarga juda kup narsalar bog'liq ekanligi, uning «Agar mamlakat harob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, bu ziyolilarning, ilm-ahlining gunohidir».¹ degan fikri ahamiyatlidir. U asarlarida adolat, ijtimoiy adolat prinsiplari haqida to'xtalib adolat mezonlarini buzilishi, jamiyat

¹ Sotsiologiya. O'quv qo'llanma .T 2002y . 39 -bet

ijtimoiy hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini o'qtirib o'tadi. Alisher Navoiy ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini bayon etadi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimdagi o'rnini va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Bu sotsiologik tavsiflashdan maqsad, ularning ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligini sezib olish qiyin emas. Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan bo'linganligini ijobiy hodisa ekanligini asoslab beradi.

Musulmon sharqi mintaqasida turkiy tilda ijod qilgan Yusuf Xos Hojib ham inson, inson erki, tafakkuri, yashash tarzi, siyosatga oid ko'plab qimmatli fikrlar bildirgan. «Qo'tadgu bilig» asarida axloq, siyosatshunoslikka doir ma'lumotlar bor. Bu asarni turkiy xalqlarning axloqiy, ijtimoiy qomusi deb atashimiz mumkin. Kitobda ezgulik va yovuzlik, halollik va haromlik singari tushunchalar obrazli qilib, misralarda, maqollarda ochib berilgan.

U jamiyatning ezgu odami haqida fikr bildirdi. «Uning barcha qilmish va yo'riqlari xalqqa foyda va manfaat beradi. Ezgu odam o'z manfaatini ko'zlamaydi, boshqalar manfaatini o'ylaydi».¹ Haqiqatdan ham ezgu maqsadlarni ko'zlagan insonlar jamiyat, davlat rivojlanishiga ijobiy turtki beradi. Yusuf Xos Hojib til va dil birligini xam talqin etadi. Jamiyat – aql – zakovot orqali rivojlanadi deb ta'kidlaydi. U ham jamiyat va tabiat to'g'risidagi bahslarni kuzatib boradi. U ko'proq jamiyatning rivojlanishi fan, ta'lim sohalariga bog'liq ekanligini bildirib, fan va ta'lim sotsiologiyasini asoslab yaratib beradi. UsSotsiologiyani falsafa fani kabi donishmandlik fani deb e'tirof etadi. U ijtimoiy tabaqalarni xususiyatlarini, mavjud ijtimoiy tuzum, ma'naviy-moddiy hayot jarayonlarini keng tadqiq qiladi. Davlat tuzumi qurilishi haqida ham batafsil ma'lumotlar beradi.

Xulosa qilib aytganimizda «Sharq sotsiologiya maktabi rang-barang ta'limotlar guldastasidan iborat bo'lib, bugungi kunda hayotimizga tobora mustahkam o'rin olayotgan milliy istiqlol g'oyasi uchun falsafiy, diniy va dunyoviy poydevorlar vazifasini o'taydi. Milliy istiqlol g'oyasi uchun xam mazkur ta'limotlar nazariy asos sifatida xizmat qiladi».²

Sotsiologiyaning vujudga kelishiga doir bosqichlarini o'rganish bizni sotsiologik tafakkur qilish madaniyatiga o'rgatadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari yaratgan, ming yillar avval qo'llanilgan ijtimoiy hayot jarayonlarini o'rganish usullaridan voqif bo'ldik. Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlaridagi asosiy farq shundaki, yangi davr Ovrupa fani ijtimoiy tadqiqot shakli. O'rta asr Sharqi ijtimoiy hayotidan tubdan farq qiluvchi, yangi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga, o'ziga xos tomonlariga ega bo'lgan jamiyat tuzumini o'rganishga qaratilgan. Biz endi bevosita G'arbiy Yevropa sotsiologiya maktablari xususida kengroq to'xtalib o'tamiz.

¹ K.Yunusov. Sotsiologiya o'quv qo'llanma. A. 1997 y 125-bet

² Milliy istiqlol g'oyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar. T 2000 й 16-6ет

2.3. Ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy yuksalishga erishayotgan G'arbiy Yevropa hayoti ijtimoiy-iqtisodiy jixatdan tanazzulga, o'rta asr tuyg'unligidan chiqqan olmagan sharq mamlakatlariga nisbatan ilmiy bilimlar rivojlanishiga yangi muhit va qulay sharoit yaratib berdi. Buning oqibatida jamiyat hayotini tobora sistemali, mukammal o'rganishga qaratilgan sotsiologiya fan sifatida shakllandi va yanada rivojlana boshladi. XIX asrda Garbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy ahvol notinch edi. Fransiya, Angliya mamlakatlari ijtimoiy munosabatlarda keskin ziddiyatlar vujudga kelgan edi. Sotsial inqiloblar G'arbiy Yevropani larzaga sola boshladi. Shunday sharoitda O.Kant, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber, Z.Freydlar kabi sotsiologiya asoschilari jamiyat taraqqiyotini islohotlar asosida olib borish zarurligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surdilar.

Fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798 - 1857). Uning «Pozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi tomi bevosita «Sotsiologiya» ga bag'ishlangan. U birinchi bor jamiyat hayotini o'rganish vazifasini bajaradigan «Sotsiologiya» tushunchasini qo'llagan. O. Kont uz t'minatini pozitiv, ya'ni ilmiy asoslangan falsafa deb baxoladi. Dastlab pozitiv bilim matematika, fizika, astronomiya, ximiya, keyinchalik biologiya sohasida qo'llanildi. Keyinchalik sotsiologiyada qo'llanilishi esa – uning eng yuqori darajaga erishganligini bildiradi. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usullari yordamida to'plagan empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi. O.Kont sotsiologiyani ikki qismga ajratib ko'rsatadi: sotsial statistika va sotsial dinamika. Sotsial statistikada ijtimoiy tuzumlarining shart-sharoitlari va funksional qonuniyatlari o'rganilishini ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar oila, davlat, din kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kant ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb, qaraydi. Bu tamoyil hozirgi zamon sotsiologiyasi tarkibida ham o'z mazmunini, ilmiy qimmatini saqlab qolgan. O.Kantning sotsiologiya sohasidagi xizmati shundaki, u dasturlar va metodlarni aniqlab olgan. Uning fikricha, sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy hodisalarning mohiyatidir». ¹

Sotsiologiya fan sifatida tarkib topishida – mehnat taqsimoti va kooperasiya qonunining ochilishi sabab bo'ldi. Aynan shu konun ham o.Kant tomonidan ilmiy asoslab berildi. Kantning jamiyatni yaxlit organizmi sifatida tushunishi, mehnatning ijtimoiy adolat asosida taqsimlanishi, guruh va qatlamlar manfaatlarini moslashtirishda davlat va shaxslarning o'rni tug'risidagi fikrlari am diqqatga sazovordir.

Klassik sotsiologiyaning yirik nomoyondalaridan biri, fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym (1858-1917). U o'zining «Sotsiologik usul qoidasi» asarida sotsiologiyani sotsial real ma'lumot sifatidagi predmetni ta'riflab beradi. Dyurkgeym fikricha, sotsiologiya sotsial ma'lumotlarni bilishga asoslanmog'i kerak. Uningcha, sotsial ma'lumotlarni ob'ektiv real ravishda e'tirof etmoq sotsiologiya usulini asosiy talabidir.

«Sotsiologiya – deb yozadi E.Dyurkgeym, - qanchalik ixtisoslashgan bo'lsa, falsafiy mushohada uchun shunchalik boy, o'ziga xos ma'lumotlar etkazib beradi».2

Dyurkgeym O.Kantning pozitiv yo'nalishidan farqli o'laroq u sotsializasiya nazariyasi bilan shug'ullanadi.

¹ Sotsiologiya o'quv qo'llanma. T. 2001 й 47-6et

«Dastavval har bir sotsial jarayonni muhim ichki sotsial tuzilishini tashkil etadigan muhitni topish kerak» - deydi u. Sotsiologiya sohasida uning fikricha, o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladigan faktlar mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Dyurkgeym sotsiologiya fanini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatsada, mohiyat e'tibori bilan pozitivizm chegaralaridan to'liq chiqib keta olmadi. Dyurkgeymning qarashlarini asosini «sotsiologizm» g'oyasi tashkil etadi. U jamiyat evolyusiyasini o'rganib, ijtimoiy aloqalarning ikki asosiy turlarini ajratadi:

1. Mexanik hamjixatlik.

2. Organik hamjixatlik.

Mexanik hamjixatlikda – arxaik jamiyat alohida individlarni o'ziga butunlay buysundirmoqchi bo'ldi. Bunda diniy ishonch, urf-odatlar orqali ijtimoiy onggi singdirildi

Organik hamjixatlikda – ijtimoiy aloqada ijtimoiy individlarning iqtisodiy o'zaro aloqalari va mehnat taqsimoti orqali ta'minladi.

Mana shu ikkita ijtimoiy aloqalar E.Dyurkgeymning «sotsiologizm» g'oyasini ifoda etadi.

Nemis faylasufi M. Veber. (1864-1920).

M.Veber qadriyatni hukmlar doim shaxsiy va sub'ektiv xususiyatga ega deb hisoblaydi. Ular axloqiy, siyosiy yoki boshqa qarashlar bilan bog'liqdir. M.Veber sotsial bilishning asosiy quroli «ideal tip» xisoblaydi.

Ideal tiplar – bu sotsial tarixiy reallikni taqqoslash orqali bilish tug'risidagi tushuncha. Uningcha, barcha sotsial ma'lumot sotsial tip bilan tushuntirilmog'i lozim.

Veberning sotsiologiyasida – tarix, xuquq nazariyasi, iqtisod va dinning ko'p jihatlarini qamrab olgan.

Veberning stratifikasiya mavzusiga yondashuvi asosiy o'rin tutadi. Uningcha, sinflarga bo'linish faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish yoki bo'lmaslik emas, balki mulk bilan bevosita bog'lik bo'lmagan iqtisodiy farqlar bilan ham belgilanadi. Bu omillarga birinchi o'rinda, insonning biror ishni bajara olish-olmasligini belgilovchi mahorat va malaka kiradi.

Stratifikasiyaning yana ikki muhim jihatini ajratadi. Biriga u status (mavqe) deb, ikkinchisiga – partiya deb nom beradi.

Veberning stratifikasiya haqidagi asarlari shuni ko'rsatadiki, inson hayotiga, sinfiy mansublikdan tashqari, boshqa stratifikasiya turlari ham katta ta'sir o'tkazadi. Ko'pchilik sotsiologlar bunday yondashuvga qushiladilar, chunki Veber sxemasi stratifikasiya tahlili uchun mos va takomillashgandir.

Sotsiologiya M.Veber ta'kidlashicha, ijtimoiy fanlar orasida shunday o'rin tutishi lozimki, uning asosiy vazifasi – insonning ijtimoiy hulqi mohiyati va ahamiyatini tushunish, jamiyat rivojiga sabab bo'ladigan qonunlar echimini ko'rsatib berishdan iborat bo'ladi». 1

M.Veber xulq va ijtimoiy harakatlarni asosiy turlarini ajratib, asoslashga harakat qilgan.

Z.Freyd. (1856-1939). U o'zining sotsiologik qarashlarini, nazariyalarini o'z asarlarida bayon etib kelgan. Uning fikricha, odamning psixologik taraqqiyoti kuchli zuriqishlar bilan kechadi. Bola o'zining intilishlarini tiyib turishga harakat qiladi, biroq uning ongi ostida ular kuchli motiv sifatida mavjud bo'ladi. Bolaning ilk rivojlanishi bir necha tipik bosqichlaridan o'tadi. U 4-5 yoshga, bolalar kattalarning va ota-onalarning doimiy ishtirokisiz ham kengroq ijtimoiy olamga chiqib boshlaydigan davrga alohida e'tibor qaratadi. Bu davrni Freyd shakllangan bosqichi, deb ataydi. Uning fikricha, bolalarga ota-onalarga nisbatan shakllangan mehr so'zsiz, yuqorida ko'rsatilgan ma'noda e'rotik harakterga ega. O'g'il bolalar hadeb onalarning ko'ylaklari etagidan turib yuraverish mumkinligini tezda anglab oladilar. Freydning qizlar rivoji haqidagi tasavvurlari kamroq tadqiq qilingan. Bu masalada u, o'gil bolalardagiga nisbatan teskari jarayon yuz beradi deb hisoblaydi. Freydning ushbu qarashlari keng ko'lamda tanqid qilindi.

Z. Freyd psixologiyani rivojiga juda kuchli ta'sir o'tkazadi. U XX asrning eng yirik mutafakkirlaridan biri edi. U inson xulq-atvorining akademik tadqiqotchisigina bo'lib qolmay, nevrozlarni davolash amaliyoti bilan ham shugullanar edi. Psixanaliz deb ataladigan u kashf etgan terapiya usulining mohiyati-bemorning o'z hayoti, ayniqsa, ilk davrlar haqida erkin so'zlab berishini Freyd, bizning xulq-atvorimizni ongsizlik boshqarishi, katta odam xulq-atvori ko'p jixatdan uning bolaligida paydo bo'lgan istaklar ta'sirida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Ilk bolalikdagi tajribaning ko'p qismi ongli xotirasidan uchib ketadi, lekin u insonning o'zini o'zi anglashi uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib, Freyd nazariyasi insonni o'z-o'zini ongli idora qilish, har bir ishda me'yorga qat'iy rioya qilish, har bir ishda me'yorga qat'iy rioya qilish, aql va instinkt bahsida to'g'ri yo'l tanlashga undashga o'rgatish orqali o'zini ahamiyatini yuqotmagan.

Sotsiologiyani noklassik tili nemis sotsiologi T.Zimmel (1858-1918).

«Sotsiologiya, - G.Zimmelning fikricha – xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir».2

U jamiyatning umumsotsiologik qonunlarini rad etib, shunday firklarni yozadi: «Ijtimoiy rivojlanish qonunlari to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emas. Albatta, har qanday ijtimoiy unsur xarakati tabiiy qonunlarga bo'ysunadi; ammo, umumiy jamiyat qonuni yo'q; bunda, barcha tabiatdagidek, qonunlar ustidan hukmronlik qiladigan qonun yo'q. Shuning uchun, biz har qanday ikki bir xil ijtimoiy sharoitda mutlaqo boshqa-boshqa hodisalarni keltirib chiqaradigan kuchni bila olmaymiz».1

2.4. XX asr 20 - yillaridan boshlab jahon sotsiologiyasining markaziy G'arbiy yevropadan AQSh ga kuchdi. Yevropada sinfiy kurashning kuchayuvi natijasida AQSh da mavjud ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan emperik tadqiqotlarning katta hajmda to'planganligi AQSh da sotsiologiyani fan sifatida jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. AQSh da sotsiologiya o'zining ilk o'rganishidan boshlab emperik amaliy fan sifatida shakllandi. Emperik sotsiologik

tadqiqotlarga ehtiyoj ijtimoiy tarixiy talabdir. Jamiyat hayotini to'g'ri boshqarish eng avvalo ilmiy sotsiologik tadqiqotlarga tayanmogi lozim. 1960 yillarda AQSh nazariy sotsiologiyasi fenomenologik yo'nalishining kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Fenomenologik sotsiologiyaning yo'nalishi A.Shnets nomi bilan bogliq. O'z mohiyatiga ko'ra, fenomenologik sotsiologiya antipozitiv yunalishda bo'ldi. O'tkazilgan emperik sotsiologik tadqiqotlar va ishlab chiqilgan turli xususiy-amaliy sotsiologik nazariyalar muayyan metodologiyaga asoslangan edi. AQSh sotsiologiyasida uzoq vaqt «bixeviorizm metodologiya» sifatida hukmron bo'ldi. Bixeviorizm – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, xulq ma'nosini anglatadi.¹

Bunga ko'ra, sotsiologiya inson xulqi to'g'risidagi fandir: Bixeviorizm asoschilari E.Torndayk, D.Uotson, B.Skinnerlap hisoblanadi. Ularning fikriga ko'ra, inson xulqi ko'p jixatdan boshqariladigan ruxiy jarayondir. Shuning uchun, bixeviorizm namoyondalari sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning asosiy vazifasi inson xulqini boshqarishdan iborat bo'lmog'i lozim, deb hisoblaydilar. Bixeviorizm sotsiologiyaning emperik usullariga katta ahamiyat beradi. Bu metodologiya asoschilari sotsiologiyada ayniqsa, kuzatish va eksperiment usullari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Emperik ma'lumotlarni qayta ishlashda esa miqdoriy, matematik va statistik usullar ko'proq ahamiyatli ekanligini ko'rsatdilar.

Sotsiologiya fani rivojida bixeviorizm katta ahamiyat kasb etadi. Inson xulqining chuqur ichki yashirin, botiniy dunyosini o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Bixeviorizm metodologiyasidan tashqari yana Parsons va Mertonlarning tarkibiy – funksional taxlil maktabi metodologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Sistemali funksional yondashishlar g'oyasini amerikalik olim Parsons o'zining sotsial harakat nazariyasida ishlab chiqqan. U sistema tushunchasini ijtimoiy yaxlitlikning turli darajasidagi harakatning natijasi sifatida ishlab chiqishga intiladi. Shaxsning, madaniyatning va jamiyatning sistemali sifatlari institutsionallashtirish jarayonida nomoyon bo'ladi. Ayni shu institutsionalizatsiya o'zaro harakatning uyushgan modelining ko'rinishi bo'lib, u sotsial strukturani tashkil etadi.

Bu metodni yanada takomillashtirib rivojlantirgan olim bu R.Mertondir. U «disfunksiya» tushunchalarini joriy etadi va buning natijasida sotsial tahlili yanada chuqurlashib bordi.

Yangi umumiy yondashish yaratish uchun sistema – funksional maktablar sotsiologiyaning barcha yutuqlarini qaytadan tahlil qilib chiqadilar, chunki harakatning umumiy analitik nazariy sistemasini yaratish sotsial voqelikni barcha turli-tumanligini qamrab olishlikni taqazo etadi.

Shuningdek, ayni vaqtda, sistemalik va struktural yondashishlar vujudga keldi. T.Parsons va R.Merton va boshqalar sotsial harakatning sub'ekti aspektlarni metodning elementi sifatida talqin qiladilar.

Merton funksiyalari va disfunksiyalarni ajratib ko'rsatadi. Uning ko'rsatishicha, antropologlar tadqiqot doirasiga tushgan kichik madaniyatlar, yirik industrial

¹ E.Giddens Sotsiologiya o'quv qo'llanma. T. 2002 й 183-6er

jamiyatlarga qaraganda tirmuncha integrasiyalashgan hisoblanib, sotsiologiyaning asosiy o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Merton fikricha, har qanday hodisani sotsiologik jihatdan tushuntirishning ma'lum qismi ijtimoiy institutlar va kishilik faoliyatining yashirin funksiyalarini ochishdan iboratdir.

2.5. XX asr Sotsiologiyasida biz juda ko'p G'arb mutafakkirlarining g'oya va nazariyalari bilan batafsil tanishib chiqdik. Xususan bixeviorizm, fenomenologiya, emperik kabi maktablar, bulardan tashqari yana biz realistik yunalishlar vakillari (U.Autveyn, R.Bxaskor, N.Elmas) larni nazariyalarni ko'rib chiqishimiz lozim. Umumsotsiologik fundamental metod rolga fenomenologiya va realistik yondashuvlar da'vogarlik qilayaptilar. Ayniqsa, realitik yondashuvlar tarafdorlari keyingi yillarda ko'payib bormoqda. Realistik yondashuvning mohiyati qo'yidagicha sotsiologiya fanining ob'ekti bo'lib, rang-barang omillar xizmat qiladilar, ularni esa bir-birlaridan farqlash zarur. Masalan, insonning harakatlari, intilishlari, rejaları va boshqa omillardir. Buning uchun esa reallik, haqiqiylik va emperiklikni ajratib olish kerak.

Frankfurt maktabi vakillaridan biri G.Markuze o'zining asosiy g'oyalarini shaxs, uning xususiyatlariga qaratadi.

Shaxs konkret sotsial munosabatlar sub'ekti sifatida namoyon bo'lishi inobatga olinadigan bo'lsa, shaxsning asosiy sotsial sifatlari, xususiyatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyat va munosabatlaridan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning indivudialligi, uning shaxslararo munosabatlari sifatida mavjud bo'lishidir.

Jamiyatda shaxs sotsial tarixiy qadriyat sifatida ko'rinishi va uning elementlari esa doimo rivojlanishi, o'zaro ta'sirida bo'lib, sistema tashkil etishi mumkin. Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi boglovchi u yoki bu sotsial sistema bo'lishi mumkin. Shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon bu shaxsni ijtimoiylashuvi deb ataladi.

Xullas, bugungi mavzuimizga yakun yasaydigan bo'lsak, Sharq va G'arb mutaffakkirlarining g'oyalari, nazariyalari bugungi demokratik tamoyillarga asoslangan turmush tarzimiz mamlakatimizning dunyoviy davlat sifatida qaror topishida katta rol o'ynaydi. Milliy istiqlol g'oyasida ilgari surilgan maqsadlarni amalga oshirishimizda bu nazariyalar ayniqsa sharq mutafakkirlarining yaratgan nazariyalarini to'liq va ongli ravishda idrok etishimiz lozim.

Nazorat savollari:

1. Antik dunyo sotsiologiyasining ahamiyati nima?
2. Shaxs va jamiyat, ular o'rtasidagi muhim aloqadorlik?
3. Forobiyning vorisiylik ta'limoti asosi nimada?
4. Sotsializasiya nima?
5. Antik dunyo sotsiologiyasning mashhur 3 ta davri qanday?
6. Ijtimoiy jamoalarga ta'rif bering.

7. XX asr sotsiologiyasining muhim jihatlarini aniqlang?
8. Qanday sotsiologik maktablarni bilasiz?
9. Realistik oqimning mohiyati nimada?
10. Bixeviorizm metodologiyasi asosi nimada?

3 ma'ruza. Mavzu: Ma'naviy hayot sotsiologiyasi.

Reja:

1. Ijtimoiy munosabatlar sotsiologiyasi.
2. Fan va ta'lim sotsiologiyasi.
3. Din sotsiologiyasi.
4. Madaniyat sotsiologiyasi.
5. Axloq sotsiologiyasi.

6. Milliy mafkura va uning sotsiologik asoslari.

Adabiyotlar:
1, 4, 6, 7, 8, 12

Tayanch tushunchalar:

Birdamlik, kooperatsiya, begonalashuv, mafkura, g'oya, konsepsiya, fan, regional, teologik, metafizik, ilmiy e'tiqod, iudaim, sekta, sunniylik, buddaviylik, eksteremizm, fundamentalizm, aqidaparast, mazhab, vorislik, elitar, sivilizatsiya, kiborlar, axloq.

3.1. Mustaqil O'zbekiston davlatining xalqaro maydonda nufuzli mamlakatga, barcha sohalarda rivojlangan jamiyatga ega bo'lish darajasiga ko'tarilishi, ana shu tarkibiy bo'laklarga bog'liq.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan iboratki, dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish ularning qalbida ishonch o'yg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch quvvat va madad topishda umumiy yagona maqsad va orzu intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi.

Respublikamiz jamiyati ijtimoiy tarkibini sotsiologiya fani doirasida o'rganish, eng avvalo, nazariy-metodologik jihatdan asoslanishini taqazo etadi.

Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi. Birinchi yo'nalish O.Kantdan fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan amerikalik sotsiolog T.Parsons va T.Spenserlarning sotsiologik ta'limotidir.

Ikkinchi yo'nalish – ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida, ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, moddiy munosabatlarning belgilovchi roliga asosiy e'tibor qaratgan.

O.Kant va E.Dyurkgeym sotsiologik qarashlariga asoslanib, jamiyatning bir butunligi uning «ijtimoiy muhitdagi doiimiy muvozanati», ichki va tashqi ta'sirini muvofiqlashtirish – sotsiologiyaning asosiy vazifasi qilib belgilangan. Umuman, ijtimoiy tizim tarkibidagi o'zgarish va integrasiya sifatidagi Parsonsning funktsional sotsiologik ta'limoti muvozanat to'g'risidagi nazariyadir. Sotsiologik amaliyot funktsional o'zgarishlarsiz, evolyutsiyasiz revolyutsiya tushunchasi bilan, funktsional munosabatlar tahlilsiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga o'rganuvchi ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelishini ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy hayot nisbatan mustaqil, barqaror, funktsional va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy tizimlar birligidan iboratdir.

Ijtimoiy tizim – murakkab ichki tuzilishiga ega bo'lib, tartibli, bir butun, o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi. Jamiyatning

ayrim tarkibiy tizimlari, masalan, iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, ma'naviy, ijtimoiy turmush, fan va boshqa shu kabi sohalarida, to alohida olingan insonga bulgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.

Jamiyat, o'zining tizimlari o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, ularning asosiy komponenti inson hisoblanadi. Kishilar ijtimoiy hayotning turli sohalarida – iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, oila turmushda faoliyat ko'rsatadilar. Ularning asosida ijtimoiy tarkiblar tuziladi. Ijtimoiy tizimlarning murakkabligi, tarkibidagi elementlarning soni ko'pligi bilan emas, asosan, bu elementlar bilan belgilanadi. Shuning uchun ham hozirda «Respublikaning barcha fuqarolari va turli shaxslarga tashabbus ko'rsatish va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun, xo'jalik faoliyatining qonun tomonidan man etilmagan barcha turlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga» alohida e'tibor qaratish lozim.¹

Ular qanday ijtimoiy jarayonlar inson faoliyati bilan bogliq. Muayyan ijtimoiy birlik sifatida uyushgan kishilarning katta-katta guruhlar: sinflar, millatlar, milliy-etnik, ijtimoiy-demografik; nisbatan kichik tizimlar; o'quv – tarbiyaviy, oila – turmush va boshqa guruhlar, ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar – jamiyatning ijtimoiy tarkibini tashkil qiladi.

Sotsiologiyada ijtimoiy birlik tushunchasi ham muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy birlik deb – tarixan shakllangan, nisbatan barqaror ijtimoiy aloqalar va munosabatlarga o'ziga xos umumiy xususiyatlarga ega kishilar birligiga aytiladi.²

Boshqa ijtimoiy tashkilot va institutlardan farq qilib, ijtimoiy birlik tabiiy – tarixiy jarayonda vujudga kelib, ongli kishilarning irodalariga bogliq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ob'ektiv zarurat sifatida vujudga kelgan kishilarning ijtimoiy birligi xarakteri jamiyat ishlab chiqarish usuli xarakterga bog'liq bo'ladi va u bilan belgilanadi.

Buyuk mutafakkir yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiyning kishilar ijtimoiy birligi to'g'risida bundan o'n bir asr muqaddam yozib qoldirgan qo'yidagi fikri diqqatga sazovordir: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj buladi. u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bulish uchun insonlar jamoasiga extiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Shuning uchun inson shaxslar ko'paydilar va urning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson vujudga keldi».

Ba'zi ilmiy adabiyotlarda sovet xalqi – degan kishilarning yangi ijtimoiy birligi tarkib topganligi xususida ko'p yozilar edi. Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi va mustaqil milliy Respublikalarning vujudga kelganligi oqibatida bu ibora o'z mohiyatini yo'qotdi. Chunki buning asosiy sababi, majburiy siyosiy tazyiq asosida tuzilganligi edi. Shuning uchun ham bu ijtimoiy birlik davr sinoviga dosh bera olmadi.

Sotsiologiyada ijtimoiy munosabatlardagi ob'ektiv jihatlar bilan bir qatorda, sub'ektiv omillarni o'rganish ham alohida ahamiyatga ega. Sobiq Sovet tuzumi davrida ijtimoiy

munosabatlardagi sub'ektiv omillarning ahamiyati ob'ektiv qonuniyatlar darajasidan ancha pasaytirilib, uni tadqiq qilishga kam e'tibor berilgan edi. O'z navbatida, sovet jamiyatining 70 yildan ortiq rivojlanishi davomida ob'ektiv qonuniyatlardan ko'ra ko'proq sub'ektiv omillarning ta'siri asosiy o'rin tutgan.

Stalinizmning ommaviy repressiya, N.S.Xrushchevning sub'ektiv valyuntaristik siyosati, L.I.Brejnev bosh sekretarlik davridagi Afg'on urushi, M.S.Gorbachyovning absrakt «qayta qurish» siyosati va uning barbod bo'lganligi fikrimizni ifoda etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni sotsiologik tadqiq qilish asosiy masalalardan biri bo'lib xisoblanadi.

Endi biz sotsiologiya fanining muhim masalalaridan yana biri begonalashuv muammosiga to'xtalib o'tamiz.

Begonalashuv – odamlar, ijtimoiy guruhlarining bir-biri bilan yonma-yon yashashlriga qaramay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon. 1

Bu masala ham ijtimoiy birdamlik singari jamiyat rivojlanishiga o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Jamiyat hayotida biz begonalashuvning qo'yidagi turlarini ko'rishimiz mumkin:

1. Iqtisodiy.
2. Siyosiy.
3. Madaniy.
4. Ijtimoiy.
5. Psixologik (ruhiy).

Bu begonalashuv turlari yuzasidan bir qancha sotsiologlar o'z tadqiqotlarida chuqur o'rganishga harakat qilganlar. Iqtisodiy begonalashuvni olib qaraydigan bo'lsak, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bir qarashda ba jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Lekin bu borada ijtimoiy mulkka asoslangan shunday ishlab chiqarish munosabatlari shakllandiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnatining natijasida begonalashib boradi.

Siyosiy begonalashuvda jamiyat a'zolarining siyosiy hokimiyatdan begonalashuvidir. Sobiq Ittifoqni olib quraylik. Siyosiy hokimiyat bu halq hokimiyati, umumxalq hokimiyati, deb e'lon qilingan bo'lsa-da, aslida u ma'lum bir guruh – elitaning hususiy mulkiga aylandi. Buning asosida butun xalq davlat siyosiy hokimiyatidan begonalashdi. Bu esa o'z navbatida chuqur ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy tanazzulni keltirib chiqardi, totalitar tuzum esa o'z-o'zidan parchalanib ketdi.

Davlatimiz mustaqilikka erishib, aholimiz o'z siyosiy ong va dunyoqarashlariga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 7-moddasida «xalk davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir»¹ deb alohida ta'kidlab qo'yilgan. Yana 2-moddasida «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldir»² deb ta'kidlangan. Konstitusiyaning 32 – moddasida «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish xuquqiga egadirlar»³ deb belgilangan. Ruhiy (psixologik) begonalashuv esa – insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishdir. Nemis sotsiologi E.Fromm bu masalani har tomonlama chuqur tadqiq qilgan. U zamonaviy jamiyatni inson mohiyatini «mashinalashtirish», «robotlashtirish» va «kompyuterlashtirish» maxsuli ekanligini qayd etadi.

Ijtimoiy begonalashuv - insonlar o'zaro munosabatlarda va amaliy muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashuv ham yuz beradi. buning natijasida insonlarning o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yuqolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'p hollarda salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etish uchun insonlarning bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarini haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosiga qurish kerakki, shunda har bir inson o'zining boshqalar uchun ham kerak ekanligini chin yurakdan his qilish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli hil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyg'unlik asosida bartaraf qilinsagina, jamiyat ijtimoiy sog'lom taraqqiy etadi va salbiy hodisalarning ta'siri o'z vaqtida bartaraf etiladi.

Fan Sotsiologiyasi – sotsiologiyaning mahsus sohasi bo'lib, hozirgi zamon fanining o'ziga hos ijtimoiy institut sifatida jamiyat hayotidagi funksional va rivojlanish qonunlarini, ijtimoiy munosabatlardagi o'rni, ahamiyati va bu munosabatlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi.

Fan o'z mohiyatga ko'ra, ijtimoiy hodisadir. Jamiyat hayotida fanning rivojlanishi, ilmiy faoliyatining emperik sotsiologik tadqiqot darajasining rivojlanishi – ilm-fan sotsiologiyasining shakllanishiga asos bo'lib, mahsus sotsiologik nazariya sifatida vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Bu esa, ijtimoiy omillarning fan sohasidagi faoliyatiga ta'sirini yanada kuchaytirdi. Buning natijasida, fanni ijtimoiy ong shakli va bilimlar tizimi sifatida o'rganishdan, uni ijtimoiy faoliyat ko'rinishi tarzida tadqiq qilinishga o'tildi. Fan sotsiologiyasi doirasida ilm-fanni tadqiq qilishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Olimlarning ijtimoiy, ilmiy javobgarligi va mas'uliyati, ijtimoiy omillarning ilmiy faoliyat rivojiga ta'siri, fanning roli, fan zaxmatkashlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ularni ijtimoiy himoya qilish kabi dolzarb masalalarni o'rganish fan sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotini yanada yuksaltirish vazifasi bilan bog'liq ayrim muammolar haqida o'z fikr mulohazalarini bayon qilib, Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydi: «Bugun biz mustaqil davlat qurayapmiz. Istiqbolimiz, taraqqiyotimiz ko'p jihatdan fan dargohlarida ishlayotgan olimlarning izlanishlariga, ularning jasoratiga, fidoyi ekanligiga, yuksak ilmiy salohiyatlari va oqilona tavsiyalariga bog'liqdir.²

Bozor munosabatlarini tarkib topishida ijtimoiy munosabatlarni hozirgi zamon ilg'or fan-texnika yutuqlariga, tajribasiga tayanmasdan boshqarib bo'lmaydi. Fan sotsiologiyasi doirasida olingan ilmiy tadqiqot natijalari esa jamiyatni ilmiy boshqarishga, ilmga asoslangan siyosat yuritishga xizmat qiladi.

Jamiyat hayotida ilm-fanning rivojlanishi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Shu jihatdan fan sotsiologiyasi ta'lim bilan aloqadorlikda bo'ladi.

Ta'lim sotsiologiyasi – jamiyatning ta'lim tizimi to'g'risidagi mahsus sotsiologik nazariya bo'lib, uni nisbatan mustaqil ijtimoiy institut sifatida jamiyat hayotidagi darajasini va shu sohadagi davlat siyosatini o'rganadi.

Ta'lim tizimining jamiyat rivojiga ta'siri beqiyosdir. U har qanday davlatning jamiyat ma'naviy hayotini, ijtimoiy va kasbiy tarkibini boshqarishdagi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sotsiologiyasi – maktab, o'quv yurtlari va muassasalari faoliyati, ulardagi pedagogik mutaxassislarning sifati, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash vazifalari kabi masalalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Hozirda ta'lim tizimi ijtimoiy siyosat tarzida rivojlanmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Ilm - ma'rifatga qiziqishi sust millatning kelajagi ham bo'lmaydi».

Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim tizimi umumjahon talablari doirasida rivojlantirib, uning qadim ildizlarini va qadriyatlarini saqlab qolishga emas, balki ularni yanada takomillashtirishga muvaffaq bo'lindi. Bugun butun dunyoda jumladan o'zimizda ham xalqning taraqqiyoti va gullab yashnashi, inson sivilizatsiyasi yo'lida davlatlararo, millatlararo, konfessiyalararo muloqotning turli madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlikning mexanizmiga aylandi.¹

Tizimlilik keng qamrovlilik ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim xususiyatidir. 2010-yilning yurtimizda «Barkamol avlod yili» deb nomlanishi va o'ta muhim masalaga yana bir bor e'tibor qaratilishi bizdan ta'lim sohasidagi erishilgan asosiy natijalarni tahlil qilib, o'z oldimizda yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqishimizni talab qiladi.

«Barkamol avlod» yili Davlat dasturida qo'yidagi muhim vazifalar: o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi yaratilgan moddiy texnika bazasidan oqilona foydalanishni ta'minlash, zamon talablaridan kelib chiqqan holda oliy va o'rta-maxsus ta'lim tizimida real iqtisodiyot tarmoqlari sohalarida talab etilayotgan ta'lim va mutaxassisliklarning yunalishlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish o'quv jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini yaxshilashga, iqtidorli yoshlarni ilmiy faliyatga jalb etish uchun shart-sharoit yaratish chora tadbirlari muhim rol o'ynaydi.²

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar jabxalari bilan bog'liq davlat siyosati va uning samarali amaliy ijrosi, eng avvalo, sohani tubdan isloh qilishning konstitutsiyaviy – xuquqiy asoslarini aniq belgilab olishni taqazo etishi muqarrar.

1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun kadrlar saviyasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga javob berish masalalariga qaratilgan edi. Milliy istiqbol taraqqiyoti ta'lim tarbiya sohasida yanada jiddiy yangiliklar qilinishini taqazo eta

¹ «O'zbekiston ovozi» 2010 yil 21 yanvar

² «Ma'rifat» 2009 yil dekabr

boshladi. «Ta'lim tug'risida» gi qonun 1997 yilda yangi taxrirda qabul qilindi. Ayni paytda, uzoq yillar mobaynida ta'lim-tarbiya sohasida talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatib, ularni demokratik ma'rifiy dunyoning istiqbolli ilg'or pedagogik talablari asosida yangicha ijobiy hal etish yullari kashf etildi. besh bo'lim, 34 moddadan iborat «Ta'lim tug'risidagi qonun O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan ta'lim tizimini barpo etishning yaxlit qoidasiga aylandi».

Shu bois ham ta'limda zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. «Qariyb o'n besh yillar oldin xalq ho'jaligida band bo'lganlarning undan to'qqizi o'rta, o'rta mahsus va oliy ma'lumotga ega edilar».1

Bunday yu'qori ko'rsatkichlardan tamomila qanoat hosil qilishimiz mumkin. Lekin sotsiologik tadqiqotlar ta'lim tizimining miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'tkir qarama-qarshilikni ko'rsatadi, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy texnik va axborotlar inqilobi talablariga mos yosh mutaxxassislarni tayyorlash darajasi va xususiyati nomunosibligini aniqlaydi. Sotsiologlar tomonidan jamiyatimizni madaniy, shu jumladan ta'lim salohiyatining tez o'sishi va unday ishlab chiqarish va boshqa sohalaridagi ilmiy- texnik taraqqiyotning past sur'atlari sharoitlarida ratsional foydalanishning mumkin emasligi o'rtasidagi, jamiyat ehtiyojlari bilan yoshlarning ijtimoiy qarashlari o'rtasidagi, umumiy va kasb bo'yicha ta'lim tizimi va xokazolar o'rtasidagi haqiqiy jiddiy qarama-qarshiliklar ochib berilgan. Bu erda ta'lim tizimi to'g'risidagi jamoat fikrini muntazam o'rganish muhim o'rin egallaydi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi, yangi bozor sharoitlarida ancha murakkab muammolarni yuzaga keltiradi, ularni sotsiologik tadqiqot qilish ta'lim sotsiologiyasining muhim va aktual masalalaridan hisoblanadi. Shunday qilib, ta'lim tizimining gumanizatsiyasi va demokratizatsiyasi, o'quv yurtlarining mustaqilligini, avtonomligini kengaytirish, davlat o'quv yurtlarini xususiylar bilan birga olib borish, pulsiz va pulli o'qitishlar va boshqa jiddiy yangi kiritishlarni uygunlashtirish vatanimiz ta'lim tizimi ishiga butkul ijobiy ta'sir ko'rsatdi, uning shakl va usullarining turli-tumanligini kuchaytiradi, novatorlik va xokazolar uchun imkoniyatlar yaratildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek «milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi, professional tayyorgarlik darajasi, XXI asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak»2

Ta'lim sotsiologiyasining hozirgi sharoitidagi asosiy vazifalardan biri ham, yuqorida ko'rsatilgan muammolarni emperik jixatdan tadqiq qilib, ilmiy-amaliy va nazariy xulosalar chiqarishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fan va ta'lim o'zining mohiyati, e'tibori bilan, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalardan biridir.

Din doimo ijtimoiy hayotning muhim jabhasi hisoblangan. Biz birinchi navbatda dinning haqiqatda nima ekanligini, diniy ishonch va e'tiqodlarning qanday asosiy, amaliy turlari mavjudligini tadqiq qilib, asosiy diniy sotsiologik nazariyalarni tahlil qilishimiz lozim.

Dunyodagi barcha dinlar mohiyatan qo'yidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: din dunyoga qarashda muqaddas narsalarga hurmat-izzat va qo'rquv ehtiroslarini paydo qiluvchi ma'lum ramzlar yigindisining mavjud bo'lishini taqazo etadi. Ba'zi bir dinlar uchun xudo darajasiga ko'tarilgan shaxsga yoki mavhum ilohiy kuchlarga ishonish xosdir. Boshqa ba'zi dinlarda esa xudo emas, balki alohida shaxslar xudo sifatlariga ega kishilar tarzida ko'rsatiladi. Aslida esa ular xudo emasdirlar. Masalan, Budda va Konfusiy ta'limotlariga bu narsa xosdir.

Dinlar bilan bogliq marosimlar xilma-xildir. Diniy marosimlarga cho'qinish, ibodat qilish, hamdu sano aytish, ro'za tutish va boshqalarni kiritish mumkin.

An'anaviy jamiyatlar hayotida ijtimoiy dinlar markaziy o'rin egallaydi.

«Insoniyat tarixiga biz bilamizki, uchta din kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bular: iudaizm, xristianlik va islom. Ularning hammasi yaqin Sharqda kelib chiqib, so'ngra har biri boshqasiga o'z ta'sirini o'tkazgan va butun dunyoga tarqalgan».1

Iudaizm – miloddan 1000 yillar oldin kelib chiqqan eng qadimgi dinlardan biri hisoblanadi. Qadimgi yahudiy qabilalari ko'chmanchi bo'lib, ular Misrda va Quddus atroflarida yashashgan. Yahudiylar, xudolarga qat'iy axloqiy bo'ysunishni talab qilishgan, shu bilan birga, yakkayu-yagona haqiqatga faqat xudogina ega, deyishgan. Ular o'z dinlariga dunyodagi birdan-bir ikkinchi jahon urushining tugashi bilan Isroil davlatining tashkil topishiga iudaizm hech bir mamlakatda davlat dini sifatida qabul qilinmagan edi. Yahudiy jamoalarda esa Yevropada, Shimoliy Amerika va Osiyoda saqlanib qolgan bo'lib, ba'zida ular kuchli ta'qiqlarga uchrab turar edi. tomonidan ikkinchi jaxon urushi davrida millionlab yaxudiylar yo'q qilib tashlanganiga tarix guvoxdir.

Xristianlik – o'z qarashlarining ko'pchiligini keyinchalik o'zining tarkibiyismi bo'lib qolgan iudaizmdan olgan. Iso sof yaxudiy bulib, xristianlik iudaizm ichida bir necha mazxab sifatida shakllangan. Hozirgacha Iso o'zining maxsus dinini yaratishni hohlaganligini aniqlanmagan. «Missiya – yahudiy tilida peshonasiga moy surilgan odam», ya'ni yunon tilidagi «xristos» so'zi bilan aynan bir hil bo'lgan.2

Dastlab xristianlik qattiq ta'qib qilingan bo'lsa ham, imperator Konstantin xristianlikni Rim imperiyasining davlat diniga aylantiradi. Bugungi kunda xristianlik – unga ko'p e'tiqod qiluvchi juda ko'p kishilarni boshqarib, dunyodagi eng yirik dinlardan biri hisoblanadi. Bu dinga e'tiqod qiluvchilarning soni bugungi kunda 2 milliard kishidan ortiqroqdir. Biroq xristianlik ichida teologiya sohasida cherkov tashkilotlari tuzilishiga ko'ra hilma-hil ko'rinishlar va shakllar mavjuddir. Xristianlikning asosiy tarmoqlari sifatida keng tarqalgan ko'rinishlari: katolisizm, protestantizm va pravoslavielardir.

Islom – yangi asrning VII asrida yashagan Muhammad payg'ambar ta'limotidir. Islomga ko'ra, Olloh yagona xudo bo'lib, u butun tabiatni va jamiyatni boshqaradi. «Islom arkonlari» - bular musulmonlar rioya qiladigan besh diniy majburiyatlar bo'lib, ulardan birinchisi – «Ollohdan boshqa xudo yo'q, Muhammad xudoning elchisi», deb iymon keltirish; ikkinchisi – kunda besh marta nomoz o'quvchi er sharining qaysi joyida bo'lmasin, uning yuzi muqaddas Makka shahri (Saudiya Arabistoni) ga qaratiladi;

uchinchisi – ramazon oyida ro'za tutish, unda kun chiqishidan to oqshomgacha ovqat eyish, ichimlik ichish ta'qiqlanadi; to'rtinchisi – shariat tomonidan joriy etilgan majburiy xayr-ehson qilish, ya'ni zakot berish; beshinchisi – har bir musulmon imkoni bo'lsa, bir marta Makkaga haj qilishi lozim.

Musulmonlar Ollohning Muhammadgacha o'tgan payg'ambarlar, shu jumladan, Muso va Isolar orqali odamlarga o'z kalomini etkazib turganiga ishonishadi. Hozirgi vaqtda islom juda keng yoyilib, unga e'tiqod qiluvchilarning umumiy soni dunyoda 1 mln 700 kishidan oshib ketdi. Ularning ko'pchilik qismi Shimoliy va Sharqiy Afrikada, Yaqin va O'rta Sharqda hamda Pokiston va Hindiston yashaydilar.

Din masalalari yuzasidan G'arb va Sharq olimlari bu masala yuzasidan ko'p bosh qotirishgan. Ayniqsa, sharq olimlari, Yusuf Xos Xojib, Mirzo Ulug'bek, Forobiy singari olimu fuzalolar chuqur fikrlar bildirishgan. Biz bu mavzuda dinni jamiyat hayotidagi roli haqidagi bildirilgan fikrlarini o'rgana olmaymiz.

Abu Rayhon Beruniy o'zining asarlarida dinlar insonlar hayotida qanday rol o'ynaganini tahlil qilib bergan.

Umuman, Markaziy Osiyoda etishib chiqqan olimlarimizning ijodlarida dinning jamiyatdagi tutgan o'rniga keng ahamiyat berilganligini ko'rishimiz mumkin.

G'arb mutafakkirlari M.Veber hinduizm, buddizm, daosizm haqida keng tadqiqotlar olib borgan. U birinchi navbatda, diniy va ijtimoiy o'zgarishlarning o'zaro bir-biriga munosabatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullangan. Veber o'zining dunyoviy dinlar sohasiga oid ishlarini bir butun tadqiqot deb hisoblagan. Sharq dinlarini tahlil qilib chiqib, u shunday xulosaga keladi: bu dinlar sharq uchun g'arb timsolidagi sanoatlashgan taraqqiyotga o'tishda engib bo'lmas to'siq bo'lgan. Bu boshqa sivilizatsiyalar g'arb sivilizatsiyalariga nisbatan qoloq bo'lganlari uchun emas, balki oddiy qilib aytganda, ularning qadriyatlari Yevropada hukmron bo'lgan qadriyatlardan farq qilganligi uchun shunday bo'lgan.

Veber xristian dinini haloskorlik dini sifatida xarakterlaydi, bunda uningcha kimki o'z e'tiqodida xristianlikka rioya qilib va uning bo'yruklarini to'la bajarsa, bu uni hamma balo-qazolardan xalos qilish mumkin emish.

Diniy fundamentalizm g'oyasi XX asrga kelib Eronda rivojlandi. Yevropa madaniyatiga ixlos qo'ygan va jamiyatni G'arbg muvofiq yangilamoqchi bo'lgan Shoh Muhammad Rizoga qarshi ichki muxolifat turtki berdi. Muhammad Rizo islohotlari erga mulkchilikni o'zgartirish, ayollarga ovoz berish xuquqini berish, dunyoviy ta'limni joriy qilishni o'z ichiga olgan edi. Shohni xokimiyatdan chetlatgan harakat turli manfaatli kishilarni birlashtirdi, biroq ularning barchasi islom fundamentalizmi tarafdorlari edi. Asosiy shaxs Oyatullo Xumayniy bo'lib, u shialik g'oyalarini yangicha talqin qildi.

Xumayniy an'anaviy shariat qonunlariga asoslangan boshqaruv shaklini yaratdi va uni Xazrati Alining vakilligi deb atadi. Xumayniyning fikricha, islom inqilobi ur'onda belgilanganidek, diniy nuqtai nazar siyoiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalari uchun hal qiluvchi bo'lishiga olib keldi. Yangi joriy qilingan islom qonuniyatlariga muvofiq, erkaklar va ayollar alohida yashash talabiga qat'iy rioya qilishi; ayollar ko'chaga chiqqanda tanasi va boshini yopishi; besoqolbozlar otishga hukm qilingan va diyonatda

ayblangan kishilar toshbo'ron qilinishi lozim. Qahri qattik qonunchilik qabul qilinishi millatchilikning o'sishiga olib keldi. Ammo bu oqim tarafdorlari ozchilikni tashkil qilgani uchun qullab-quvvatlanmadi. Shunga qaramasdan islom fundamentalizmi ushbu davlatlarda keng tarqaldi va butun dunyoda turli islom tiklanish xarakatlari yuzaga kelishiga ta'sir qildi. XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda juda ko'p xunrezliklarga sabab bo'lgan diniy aqidaparastlik asr sungida ham ijtimoiy tenglikni keltirib chiqarishga urindi. Sobiq Ittifoq tuzumining ohirgi yillarida hokimiyatning bushashgani va qishilar ongida mafkuraviy bo'shliq vujudga kelganidan foydalanib, aqidaparastlar uzlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qildilar. Ularning bu harakati O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda ham davom etdi. Farg'ona fojeasi, 1999 yil 16 fevralda Toshkent voqealari, 2004 yil Toshkent va Buhoro viloyatidagi xunrezliklar shundan guvohlik beradi. Lekin asr boshida ma'rifatparvar kuchlarga qattiq zarba bergan aqidaparastlar asr sungida o'z qilmishlari tufayli xalqimizning qahrg'azabiga duchor bo'ldilar. Mana shu hodisa ham diniy oqimlar aqidaparastlikka aylana borgani sari ijtimoiy taraqqiyotga tusiq bo'lmoqda. O'zbekiston fundamentalizmi bilan kurashib, demokratiyani mustahkamlab bormoqda. Biz o'z fikrimizni 2004 yil 2 sentyabrda Xindistonda ingliz tilida nashr etiladigan «Politikal eventus» (siyosiy voqealar) nomli xaftalik jurnalida xuddi shu mavzuda maqola e'lon qilindi. Unda shunday deyiladi: «O'zbekistondagi tinch hayotni izdan chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib olgan xalqaro fundamentalizm va terroristik kuchlar harakatlariga qaramay mamlakatda keng demokratiyalashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilmoqda».

Terrorizm va fundamentalizm bilan kurashda eng samarali qurol – keng ko'lamli va faol demokratiyani o'rnatishda mamlakatimiz va bu jarayonda tashabbus bilan chiqmoqda.

Shu o'rinda, respublikada amalga oshirilgan islohotlarga qarshi turgan va ularni to'htatib qo'iyishga urinayotgan kuchlar tug'risida ham gapirib o'tish joiz. Ularning bir qismi mamlakatni orqaga – eski tartiblarga qaytarish, O'zbekistonni yangi «Ittifoq» qa kiritishni orzu qiladi; boshqalari o'zlarining qudratli xujayinlari irodasini bajarib, demokratik tuzumni kuch bilan ag'darib tashlash, uning o'rniga islom davlatini barpo etish va shu yo'l bilan xaqni erkidan va o'z erida xo'jayin bo'lish xuquqidan mahrum qilish, O'zbekistonni boshqa davlatlarga qaram qilib quyishga intiladi.

Bu kuchlarning har ikkalasi ham nafaqat O'zbekistonning, balki Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarning ham mustaqilligi va milliy xavfsizligi uchun jiddiy taxdid soladi. Pokiston va Afg'onistondagi maxsus lagerlarda tayyorgarlikdan o'tgan terrorchilar, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan chiqqan diniy ekstremistlar boshqa davlatlardagi terrorchilar bilan birgalikda o'z vaqtida tojik oppozitsiyasining noqonuniy birlashgan harbiy tuzlimalari, tomonida turib, Tojikistondagi fuqarolar urushida, keyinchalik O'zbekistonda terroristik harakatlar va bosqinchilik hujumlarini uyushtirishda ishtirok etganlar. Jumladan, 1997 yilda Namangan viloyatida ular tomonidan davlat va huquq-targibot idoralarining bir qator xodimlariga qarshi qotillik amalga oshirildi; 1999 yilning fevralida Toshkentda Prezidentga suiqasd qilish va mamlakatdagi ijtmoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarish maqsadida bir necha portlashlar tashkil etildi. 2000 yilning avgustida esa xalqaro terrorchilar guruhi o'zlarining terroristik bazalarini vujudga keltirish va quporuvchilik harakatlarini amalga

oshirish maqsadida, O'zbekistonning Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog'li joylariga, Qirgizistonning Botkent va Laylak tumanlariga suqilib kirdi.

O'zbekiston va uning Prezidentining terrorchilarga nisbatan tutgan yo'li hamisha qat'iy va muhosasiz bo'lib kelgan. Va bu Konstitusiyada belgilab qo'yilgan davlat boshlig'i «O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, havfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'radi» degan koidaga tula mos keladi. Avgust-sentyabr oylari davomida O'zbekiston hududiga suqulib kirgan barcha jangarilar tor-mor qilindi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston ko'plab mamlakatlar, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Masalan, 2000 yilning birinchi yarmida Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, uyushgan xalqaro jinoyatchilikka qarshi hamkorlikda kurash olib borish bo'yicha bitim imzolandi. Bu bitimning imzolanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. U bitim ishtirokchilariga birgalikda harakat qilish maqsadida kuchlarini birlashtirishlari uchun xuquqiy asos yaratdi; salbiy hodisalarga qarshi hamkorlikda kurashish uchun davlat va jamoat tashkilotlariga keng imkoniyat ochib berdi; xalqaro terroristik va boshqa dushmanlik kayfiyatidagi markazlarning mintaqadagi davlatlar va qardosh xalqlarni bir-biriga qarshi qo'yishga intilishlariga nuqta qo'ydi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonning Rossiya, Xitoy, Eron, Hindiston, Turkiya va boshqa bir qator davlatlar bilan terrorizmga qarshi kurash buyicha tuzgan ikki tomonlama kelishuvlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan amalga oshirgan bu kabi barcha tadbirlari mintaqaviy havfsizlikning kollektiv tizimi asoslarini yaratishga imkon beradi hamda Markaziy Osiyodagi barcha mustaqil davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham barqarorlikni mustahkalashga ko'maklashadi. Ammo bu xotirjamlik va beparvolikka asos bo'lmasligi kerak. Prezident I.Karimov O'zbekiston Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq to'rtinchi sessiyasida bu havfli hodisaga yuzaki yondoshuvga yo'l qo'yib bo'lmaydi, unga etarli baho bermaslik qo'pol siyosiy xato hisoblanadi, deb ta'kidladi.

3.4. Biz bu savolda inson hayoti va madaniyatning birligi va turli-tumanligini ko'rib chiqamiz.

Madaniyat tushunchasi jamiyat tushunchasi singari sotsiologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri.

Kundalik xayotimizda «madaniyat» - ongning oliy mahsullari bo'lgan san'at, adabiyot, musiqa, rassomchilik kabilarni nazarda tutamiz. Sotsiologiyada madaniyat tushunchasi ijodiy faoliyatning shu turlarigina emas, yana boshqa ko'p hodisalarni ham qamrab oladi. U o'z ichiga kiyyinish xususiyatlari, oilaviy hayot va nikoh marosimlari, mehnat faoliyati va diniy rusumlar qamrab oladi. Biz bularga qo'shimcha qilib odamlar tomonidan yaratilgan narsalar: o'q-yoy, omochlar, mashinalar, kompyuterlar, kitoblar, uy joylarni ham qo'shishimiz mumkin.

Madaniyat tushunchasi jamiyat tushunchasidan farqlash mumkin, lekin ular orasida uzviy aloqa mavjud. Madaniyat shu jamiyatdagi odamlarning turmush tarzi, urf-odatlar va rasm-rusumlar, shuningdek, ular ishlab chiqaradigan moddiy noz-ne'matlarlarga aloqador tushuncha. «Jamiyat» esa umumiy madaniyatga mansub bo'lgan individlarni o'zaro bog'lab turadigan aloqalar tizimidir. Birorta ham madaniyat jamiyatsiz yashay olmaydi. Madaniyat bo'lmasa, biz to'la ma'nodagi «odam» bo'lmasdik.

Insonning tabiati qanday? Insonni hayvondan nima ajratib turadi. Insoniy sifatlarimiz qanday paydo bo'lgan? Sotsiologiya uchun bu savollar muhim ahamiyatga ega, chunki ular madaniyat sotsiologiyasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ularga javob topish insoniy mavjudotlar uchun umumiy bo'lgan narsalar va insoniy madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni taxlil qilishni taqazo etadi.

Insoniy madaniyatlar ajoyib rang-baranglikka ega. Qadriyatlar va xulq me'yorlari turli tuman bo'lib, ko'pincha ular g'arbda «me'yoriy» hisoblangan holatdan jiddiy farqlanadi.

Moddiy madaniyat faqat timsol xususiyatiga ega emas. U jismoniy ehtiyojlarni qondirish uchun muhim xayotiy ahamiyatga ega. Bunday holda u oziq-ovqat topish uchun, uy qurish uchun va boshqalar uchun xizmat qiladigan texnologiyalar vazifasini bajaradi. Moddiy madaniyatdagi tafovutlar insoniy jamiyatlarni tasnif qilishdagi asosiy usullarni belgilab beradi, chunki odamlar o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishni qanday tashkil qilganliklari ular madaniyatining ko'p jihatlarini ham belgilaydi. Ushbu fikrlarimizni oddiyroq qilib tushuntirsak, «moddiy madaniyat – moddiy ishlab chiqarish bilan bogliq ijtimoiy faoliyatning barcha sohaları va natijalarini o'z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyat – ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllariga ta'sir o'tkazish bilan bogliq bo'lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi».2

Madaniyat sotsiologiyasida ijtimoiy institutlar muhim ahamiyatga ega.

«Institut» - so'zi lotincha bo'lib, mahkama, idora, muassasa nomini bildiradi».3

Ijtimoiy institutlar orqali kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning faoliyati va xulqi tartibga solinadi. Jamiyat hayotining barqarorligi ta'minlanadi.

Sotsiologiyada ijtimoiy institut sharoitida jamiyat tarkibiy tuzilishini mos tushuvchi ijtimoiy tashkilot, muassasa birligi, ijtimoiy xulq va faoliyatning barqaror shakllarini belgilovchi ijtimoiy norma va madaniyat tashkilotlari tushuniladi. Ijtimoiy institutlarni qo'yidagicha turlarga ajratish mumkin. Iqtisodiy institutlar, siyosiy institutlar, nikoh, oila va qon-qarindoshlik, tarbiya institutlari, madaniyat sohasi institutlari. Ularning xarakteri jamiyat ishlab chiqarish usuli va ijtimoiy munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi.

Madaniyatni uch shakli mavjud:

1. Elitar madaniyat.
2. Xalq madaniyati.
3. Ommaviy madaniyat.

1. Elitar madaniyat haqidagi nazariyalar Platon, Aristotel va boshqalarning qarashlarida bayon etilgan. Hozirda elitar madaniyat turlicha talqin etiladi.

Siyosiy jihatdan eng faol odamlar, eng malakali mutaxassislar deb izohlanib kelinmoqda.

2. Xalq madaniyat esa odamlar orasidan etishib chiqqan iste'dodli shaxslar tomonidan bunyod etilgan madaniyat.

3. Ommaviy madaniyat – shakllangan va barchaga tushunarli bo'lgan madaniyat.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki madaniyat sivilizatsiya tushunchalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu boradagi aloqadorlik mavjuddir.

Sivilizatsiya – jamiyat rivojidadagi mantiqiy, progressiv bosqich bo'lib, ijtimoiy va madaniyat rivojlanish darajasi sifatida madaniyat bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, milliy istiqlol g'oyasi «Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etishga, g'oyaviy badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yosh asarlarning etakchi o'rnini egallab olishga yo'l qo'ymaslik»¹ muhim ahamiyat kasb etadi.

3.5. «Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas. Axloq – bu, avvalo, insof va adolat to'ygusi, iymon, halollik degani».²

Axloq muayyan xalqning atrof-muhitga, kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari sifatida, bir jihatdan, mahalliy-milliy xususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi jihatdan, millatning umumjamiyat talablariga uygun muvofiqligini ta'minlovchi umuminsoniy xususiyatga ham egadir.

Axloq – barcha odamlar uchun birdek taalluqli hisoblangan, shaxs hayotidagi hamma soxalarda o'ziga va o'zgalarga nisbatan qo'yiladigan ma'naviy-ijtimoiy talablar hamda ehtiyojlarning munosabatlar shaklidagi ko'rinishidan iborat bo'lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining hatti-harakatlar jarayonida ichki iroda uchi tomonidan odilona cheklanishini taqazo etuvchi ma'naviy hodisa hisoblanadi.

Shuningdek, faylasuf Erkin Yusupovning «Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining nomoyon bo'lishidir».³

Umuman xulosa qiladigan bo'lsak, axloq – kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi. Axloq xaqida Aflotun, Arastu, Sitseron, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Nasafiy, Kant, Spinoza, Feyerbax, Koshifiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyalari mustaxkam o'rniga egadir. Ulug' qomusiy alloma Abu Nasr al-Forobiy (870-950) o'zining «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida axloq, axloqiy muammolarni ko'targan. Buyuk vatandoshimizning fikr qilishiga, insonga uni go'zal a'mollar qilish uchun yo'naltiradigan odat maxsuli bo'lmish etuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-xarakatlarda me'yor qay darajada saqlangan bilan baholanadi. Odobni esa mutafakkir badavlatning davlatini

bezaydigan va kambag'alning kambag'alligini o'g'iraydigan axloqiy hodisa sifatida ta'riflaydi.

Forobiy, ba'zilar o'ta lazzatga berilishi, eyish-ichish va ayolga ruju qo'yish tufayli juda bo'shashib ketadi, deydi.

Forobiyning shogirdi Ibn Sino (980-1037) ning asosiy axloqiy qarashlari «Axloq ilmiga doir risola», «Burch tug'risidagi risola», «Adolat haqida kitob» laridir.

Ibn Sino axloq ilmining amaliy falsafa tarkibidagi o'rnini aniqlab olishga intiladi. Ibn Sino o'z asarlarida bir qancha axloqiy fazilatlarga ta'rif beradi. Chunonchi, iffat, himmat, adolat, saxiylik, sadoqat, hayo va boshqalar shular jumlasidandir.

Ibn Sino taqdir masalasiga ham o'ziga xos tasavvufiy yondashadi. Alloma tasavvuf falsafasi va tasavvufiy axloqshunoslikka doir ham ko'plab asarlar yaratgan. Zero, u bejizga Shayx ur-Rais, ya'ni shayxlarning raisi degan nom olgan emas.

Ibn Sinoning fikriga ko'ra, yaratganga muxabbat odamni inson zoti qobil bo'lgan komillik darajasiga olib chiqadi. Ya'ni ruxning qo'yi kuchlari va qismlari uning ulug'vor va olijanob kuchlari hamda intilishlari bilan yaqinlikda bo'lib, ular ta'siriga tushishi natijasida fazilat kasb etadi.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505). Uning eng mashxur asari «Axloqi Muhsiniy» dir. Koshifiy adolat tushunchasiga, ayniqsa batafsil to'xtaladi va uni o'ziga xos sharhlaydi. U adolatni insonning eng yaxshi fazilati, adolatsizlikning esa yomon odamlardagi eng yomon illat tarzida ifodalaydi. Bundan tashqari Koshifiy axloqiy madaniyat muammolarini ham tadqiq qiladi.

Koshifiy ilgari so'rgan axloqiy g'oyalar hozirgi kunda ko'p jihatdan o'z ta'sir kuchini yo'qotgan emas.

Jaloliddin Davoniy. (1427 - 1502). Uning eng yirik asari «Axloqi Jaloliy» hisoblanadi. Bu asar uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi asosiy axloqiy tushunchalar – adolat, donishmandlik, iffat singari fazilatlarni taxlili va talqini, ikkinchi qismi oilaviy hayot, bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan. Uchinchi qismida esa shahar madaniyati va siyosat haqida fikr bildirgan. Uning 3 qismida keltirib o'tgan fikrlari aynan sof sotsiologik nazariyalar hisoblanadi.

Jamoatchilik fikri – ijtmoy guruhlarining mavjud ijtmoy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rganadi.

Jamoatchilik fikrining bilish imkoniyati muayyan-tarixiy xususiyatga ega, ya'ni u jamiyatda mavjud madaniyat, texnik imkoniyatlar, muloqot vositalarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillarga bog'liq. Shu bilan birga jamoatchilik fikri ijtmoy ong shakllari (fan, mafkura, din, san'at, axloq, xuquq va siyosat) darajalari bilan bog'liq xolda rivojlanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida jamoatchilik fikrining eski tuzum muammolaridan yangi masalalarga ko'chish ro'y bermoqda. Ammo jamoatchilik fikrining qayta yo'nalishi murakkab jarayonlari o'z ichiga oladi.

Erkaklar va ayollarning turli jamiyatlardagi vazifasi farqlansa-da, hozirgacha ayollar ustunlik qiladigan jamiyat uchramagan. Barcha joyda ayollarning birinchi galdagi vazifasi bola tarbiyasi va o'y-ro'zgor ishlari hisoblangan, siyosiy va harbiy faoliyat esa erkaklar ixtiyorida qolgan. Dunyoda erkaklar bolalar tarbiyasi uchun to'liq javobgar bo'lgan joy yo'q.

Erkaklar ustunligi odatda, «patriarxat» atamasi bilan izohlanadi. Biroq, patriarxat nima sababdan umumiy bo'lishi kerak? Bu savolga to'laligicha javob berish mumkin, eng oddiyini qo'yidagicha izohlash mumkin:

Ayollar farzandini dunyoga keltiradi va boqadi, ayni paytda bolalar ko'p e'tibor talab qiladi. Demak, onalik ayol uchun asosiy vazifa bo'lib qoladi. Fransuz yovuzchisi Simona de Bovuar aytganidek, «ayollar ijtimoiy xayotda ishtirok etmay qo'ygani uchun ikkinchi darajali jinsga aylanib qolganlar».¹

Bizningcha, erkaklarning ayollardan ustunligi jismoniy yoki aqli tufayli emas.

O'zbek xalqi yaxlit, tulaqonlik ma'naviy merosining ikki yo'nalishi – ayollar va erkaklar madaniyati mavzusi alohida va maxsus tadqiq etilishi maqsadga muvofiq. Ayni chog'da uzbek ayolari dunyosida o'ziga xos mustaqil axloq qoidalari tegishli urf-odatlar, an'ana va marosimlarda ifodalanib kelmokda. Hozirgacha ko'pgina chekka qishloqlarimizda amal qililib kelayotgan to'y va ma'rakalarda erkaklardan ayrica o'tkaziluvchi rang-barang urf-odatlar, rasm-rusumlar shunga misol bo'la oladi. Patriarxat yoki patriarxatga asoslangan oilaviy munosabatlar yuzaga kelishi xam jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlar bilan belgilangan.

3.6. Milliy g'oya – millatning tarixiy tajribasini umumlashtirib jaxon xalqlari erishgan ijobiy yutuqlar bilan boyitib, hozirgi kun muammolarini chuqur, ijodiy taxlil etib, istiqbol va istiqbol sari borish yullarini nazariy taxlil etish natijasidir. Milliy g'oya taraqqiyot muammolarini nazariy umumlashtirib, insonlar faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi umumiy xulosalardir. Milliy g'oya xalqning ongi va e'tiqodiga mafkura orqali singdiriladi. Demak, mafkura odamlar ongiga ta'sir etib, ularning faoliyatini muayan maqsadlar bilan bog'lashning konkret sharoitlar va imkoniyatlar orqali taqazolangan vositasidir.

Prezidentiiz Islom Karimov xalqchil mafkura tushunchasini juda o'rinli qo'llagan. Xalqchil mafkura – xalqning e'tiqodiga, milliy ruhiyatiga, manfaatlariga mos keladigan, uning istiqbolini chuqur ilmiy asosda yoritib bera oladigan g'oyalarning ifodasidir. Milliy g'oyani xalqchil mafkura asosida targ'ib etish yo'li bilan yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustaxkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, tafakkurda o'zligini unutmaslik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash hurmat qilish singari fazilatlarini qaror toptirish, ularni men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashga o'rgatish mumkin. ¹

Ko'plab sobiq sovet davlatlaridan farqli ularoq O'zbekistonda mustaqilligining ilk qadamlaridan boshlab isloxotlar axolining brcha qadamlarini demokratik fuqarolik jamiyati va ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiga asoslangan xuquqiy davlat barpo

etishdan iborat asosiy masad atrofida jipslashtirishga kadir yaxlit mafkuraviy konsepsiyasini ishlab chiqishga aloxida e'tibor qaratildi.

O'ziga xos rivojlanish yulining ilmiy-g'oyaviy asoslarini hamda mustaqillik mafkurasini shakllantirishda hal qiluvchi rolini O'zbekistonning yulboshchisi Islom Karimov o'ynadi. Ko'pgina sobiq sovet respublikalari birlashtiruvchi omil bo'lmish mafkurani but-butun inkor etish siyosatini yuritgan davrdayoq Islom Karimov yagona milliy g'oyaga ega bo'lmaslik, mafkuraviy bo'shlikka yo'l qo'yish mumkin emasligini ta'kidladi.

Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston xalqining ezgu g'oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu intilishlari, ulug' maqsad-muammolarini o'zida aks ettiradi. U xalqni xalq, millatni millat etadigan, unig sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, jamiyatmizning o'ziga xos taraqqiyotini, tub manfaatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Endi milliy mafkuraning sotsiologik asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo mafkuraviy tahdidlar xavfini bartaraf etish bilan belgilanadi.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha soxalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanishni takazo etadi. Ta'lim tarbiya sohalari milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yunalish ekanligidir. Bu bir zumda va tez fursatda amalga oshiriladigan yoki o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yiladigan jarayon emas. Bunda jamiyatning har bir bugini, har bir kishining faolligi, omilkorligi talab etiladi. Uning amalga oshirilishi esa O'zbekistonning salohiyatini yanada oshiradi, kelajagi buyuk davlat barpo etilishini ta'minlaydi, mamlakat fuqarolariining e'tiqodini mustahkamlaydi. Shu bilan birga ushbu sohadagi vazifalar jamiyatni har bir a'zosiga nihoyatda katta mas'uliyat yuklaydi va faol, omilkor, ogoh bo'lishga undaydi.

Xulosa qilib biz qo'yidagilarni sotsiologik tadqiq etish o'rinli deb hisoblaymiz.

1. Tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat va an'analar va muqaddas dinimizning jamiyat xayotidagi o'rni.
2. Millatlararo va fuqarolararo totuvlik.
3. Shahar va qishloq.
4. Shaxsiy mulk va mulkdorlar.
5. Odamlarning dunyoqarashi va hayotga munosabatlari.
6. Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish yo'llari,
7. Kishilardagi vatanparvarlik to'yg'ulari.
8. Yurt tinchligi uchun javobgarlik va mas'ullik.
9. Aholining ijtimoiy himoya masalalari.
10. Aholining ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy qarashlari.

Ana shu muammolar doimo sotsiologik tadqiq va taxlilni taqazo etildi.

Nazorat savollari:

1. Begonalashuv va tanazzul nima?
 2. Milliy g'oya va mafkura asosi nimalarda?
 3. Fan sotsiologiyasi maqsadi?
 4. Fanning ishlab chiqarishda o'rni qanday?
 5. Din tushunchasi.
 6. Dunyo dinlarini tavsiflang.
 7. Madaniyat shakllarini izohlang.
 8. Terrorizm nima?
 9. Axloq sotsiologiyasi nimalarni o'rganadi?
 10. Ommaviy madaniyat nima?
 11. Xayot tarzi qanday nomoyon bo'ladi?
 12. Ijtimoiy hamkorlik asosi nimada?
 13. Urbanizatsiya qanday jarayon?
 14. Jamoatchilik fikri qanday o'rganiladi?
- Mafkura nima?

4-ma'ruza. Mavzu: Ijtimoiy tuzilmalar sotsiologiyasi.

Reja:

1. Ijtimoiy stratifikatsiya sotsiologiyasi.
2. Yoshlar sotsiologiyasi haqida tushuncha.
3. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi.
4. Sharq va G'arb sotsiologlarining xulq-atvor tadqiqotlari.
5. Ziddiyat holatlar va ijtimoiy echimlar.
6. Ijtimoiy nazorat institutlari.

Adabiyotlar:

5, 7, 8, 11, 12

Tayanch iboralar:

Ijtimoiy nazorat, sanksiya, ijtimoiy me'yor, deviant, xulq atvor, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy dinamika, adaptatsiya, stratifikatsiya, hayot darajasi, ta'lim, deviantlik, anomiya, mahalliychilik, giyohvandlik, strata, ijtimoiy tabaqa, ziddiyatli holat.

4.1. Jamiyat o'zining tarkibiy tuzilishi jihatidan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tomonlar, jabxalar, bir butun ijtimoiy tizim tarkibidagi nisbatan katta-kichik tizimlar, ijtimoiy guruhlar va ular o'rtasida sodir bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun eramizdan avvalgi IV asrda jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratib ko'rsatgan: faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchilar sifatida), harbiylar va qo'yi tabaqa - qullar.

G'arb sotsiologiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rganiladi.

Stratifikatsiya (lotincha stratum – qatlam va fatio - bajaraman) ma'nosini anglatadi. G'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri va maxsus sohasi bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlariga ajratilganligini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifodalaydi.

Nima uchun jamiyatda ba'zi guruhlar boshqalarga qaraganda ko'proq boylik va hokimiyatga egalar? Zamonaviy jamiyat hayotida tengsizlik muammosi qanchalik muhim? Qo'yi ijtimoiy tabaqa vakillarining iqtisodiy zinaning yuqori pogonalariga chiqish imkoniyati qanchalik? Ana shu muammolarni sotsiologiyada stratifikatsiya sohasi o'rganadi va tadqiq etadi.

Ijtimoiy jamiyatning barcha turlarida tengsizlik mavjuddir. Hatto, insonlar o'rtasida iqtisodiy farqlanish deyarli yo'q bulgan ibtidoiy jamiyatlarda ham shaxslar o'rtasida erkak va ayollar, yoshlar va keksalar o'rtasida tengsizlik mavjud bo'lgan. Ijtimoiy tengsizlikni ta'riflar ekan, sotsiologlar ijtimoiy stratifikatsiya haqida ta'riflar ekan, sotsiologlar ijtimoiy stratifikatsiya haqida gapiradilar. Stratifikatsiya guruhlar o'rtasidagi strukturaviy farqlar deya ta'riflash mumkin. Zamonaviy jamiyatlarda stratifikatsiya nazariyalari bo'yicha M.Veber, Erik Olin Rayt, Frenk Parxinlar keng shug'ulanishgan. M.Veber nazariyasiga to'xtalib o'tamiz.

M.Veber (1867-1920) ni oddiygina «sotsiolog» deb atash qiyin, chunki uning qiziqishlari va g'oyalari ko'pgina fanlarni qamrab oladi.

Veber nazariyasiga ko'ra jamiyatdagi sinflar, guruhlar, qatlamlarning shakllanishiga ko'p omillar ta'sir qiladi. Veber fikricha, sinflarga bo'linish faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish yoki bo'lmaslik emas, balki mulk bilan bevosita bog'liq bo'lmagan iqtisodiy farqlar bilan ham belgilanadi. Bu omillarga birinchi o'rinda insonning biror ishni bajara olish – olmasligini belgilovchi mahorat va malaka kiradi. Professional va boshqaruvchilar toifasiga kiruvchi shaxslar ham ishga darajalar, unvonlar, diplomlar ularga mehnat bozorida bunday diplomlarga ega bo'lmaganlar oldida katta ustunlik beradi.

Veber stratifikatsiyasining yana ikki muhim jixatini ajratadi. Biriga u status (mavqe) deb ikkinchisida – partiya deb nom beradi. (nemis tilida har ikki tushuncha ham bir so'z stand yordamida ifodalanadi).

Xush status (mavqe) nima?

Veber fikricha status tushunchasi turli ijtimoiy guruhlarining jamiyatda turli darajada obro'ga ega bo'lishi bilan bog'lik. Muayyan mavkeni boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlari sinfiy bo'linishiga bog'liq bo'lmagan holda uzgarib turishi mumkin. Ijtimoiy obro' ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

Ijobiy imtiyozlarga ega mavqe guruxlariga mazkur ijtimoiy tizim ichida obro'ga ega bo'lgan odamlar kiradi. Masalan, inglizlar jamiyatida vrachlar va doktorlar katta obro'ga egalar. Salbiy imtiyozlangan mavqe guruxlariga parist guruhlari kiradi. Pariy – guruhlari – jamiyatning boshqa a'zolari ularga «yuqoridan pastga» past nazar bilan, bee'tibor qaralgan kishilar guruhi. Yevropa tarixidagi uzoq davr mobaynida yahudiylar pariylar bo'lgan edi».1

Yahudiylarga ba'zi faoliyat turlari bilan shug'ullanish va jumladan, davlat amallarini egallash man qilinar edi. Boylikka ega bo'lish, odatda, obro'ga bog'liq, lekin bunda ko'plab istisnolar mavjud. Masalan, «oliyjanob kambag'allar» ning mavjudligi bunga misol bo'la oladi. Sinfga mansublik ob'ektiv ko'rchatkich bulsa, mavqe, aksincha sub'ektiv baholashga bog'liq.

Veberning stratifikatsiya haqidagi fikrlari shuni ko'rsatadiki, inson hayotida, sinfiy mansublikdan tashqari, boshqa stratifikatsiya turlari va katta ta'sir o'tkazadi. Stratifikatsiyani o'rganar ekanmiz, biz nafaqat iqtisodiy va professional holatlar farqini, balki bu xolatlarni egallab turgan shaxslar bilan nimalar sodir bo'lishini ham hisobga olishimiz kerak. Ijtimoiy harakatchanlik atamasi – ma'lum shaxs yoki guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'zgarishini bildiradi.

Vertikal xarakatchanlik ijtimoiy-iqtisodiy shkala bo'yicha yuqoriga yoki pastga siljishini ifoda etadi. Biror shaxsning daromadi ko'payib, yangi mulk sotib olsa, statusi (mavqei) ko'tarilsa, unga ijtimoiy yuksalish, yuqoriga siljish holati, bunga teskari yunalishda o'zgarayotganlarga pastga siljish holati yuz beradi.

Ijtimoiy harakatchanlikni qanday imkoniyatlari mavjud? Hokimiyat va boylikka ega bo'lganlar ularni o'z qo'llarida saqlab qolib o'z avlodlariga qoldirish imkoniyatiga egadirlar. Ular o'z farzandlariga yaxshi ishga yo'l ochadigan yaxshi ta'lim beradilar. Boylar, mulk va meros soliqlariga qaramay, o'z mulkini topmoqdalar. Eng yuksak chuqqilarga erishganlarning ko'pchiligi boshlanishidayoq imtiyozlarga ega bo'lganlar: yo boy oilalardan, yoki malakali mutaxassislar muxitidan kelib chiqqanlar. Boyib ketgan odamlar borasidgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ulardan deyarli hech biri o'z faoliyatini hech narsasiz boshlagan. Ularning aksariyati meros qolgan boylikdan foydalangan, yoki kichik bo'lsa-da, boshlang'ich kapitalga ega bo'lganlar va so'ng uni ko'paytirishni uddalaganlar. Hozirda O'zbekistonda ham tadbirkorlar, ishbilarmonlar, fermerlar hayotida ham yuqoridagi keltirilgan fikrlar ham tegishlidir. Sabab hozirda fermerlar, tadbirkorlar avvalo iqtisodiy tomondan etarli darajada ta'minlangan bo'lishlari (traktor, ish kuchi) talab etilayapti.

Insoniyat tarixida strata (qatlam) lar xalqning madaniy takomillashganlik belgilari sifatida ham baholanib kelingan. Xususan, gilamduzlar, do'ppiduzlar, temirchi-chilangarlar, bog'bonlar va boshqqa kasbiy stratalar muayayn mehnat faoliyati orqali nafaqat o'ziga xos iqtisodiy – ijtimoiy hayot yurig'ini amalga oshirganlar, balki o'z qavmlari sir-sinoatlarining o'zgalar mulkiga aylanmasligi xususida ham qayg'urishgan.

Masalan, o'zbek haqli butun yaxlitligiga erkaklar ayollar stratasiga bo'linadi. O'zbek ayollari o'zbek erkaklaridan bir makon va zamonda istiqomat qilishlaridan qat'iy nazar, turmush tarzi, faoliyat yunalishlari, estetik qarashlari va urf-odatlariga ko'ra ma'lum darajada ajralib turadi. Erkaklar tashqari hovlilarda to'y, aza, marosim, tijorat ishlari, maxalla, qo'shnichilik masalalarini hal etishadi. Ichkari hovlida ayollar esa bola tarbiyasi, kashtachilik, tikuvchilik bilan shug'ullanadi. Ana shularning barchasi o'zbek xalqi tarkibida erkaklar va ayollarga xos alohida turmush tarzi tarkib topgan bo'lib, o'zbek ayollari stratasini, o'zbek erkaklari stratasidan farqlab o'rganish zarurdir. Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlarining tarkib topib borishi, xususiy va boshqa mulk shakllarini qonuniy deb topilishi bilan kishilarning, ijtimoiy guruhlarining faolligi ortmoqda.

O'zbekistondagi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarini o'rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, xususan, anketa, intervyu, test hujjatlarni o'rganish usullariga faol yondashiladi va ular orqali olingan ma'ulumotlar analiz usulida qayta ishlanadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni o'rganishning asosiy tamoyillari:

1. O'zbekistondagi mavjud ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, regional-xududiy xususiyatlarini e'tiborga olish;
2. Stratalar tarkib topishiga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, diniy – konfessional, mafkuraviy omillarni o'rganish;
3. Ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish;

Umuman, jamiyatdagi ijtimoiy stratalar mohiyatini urganish, pirovard natijada «turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishigiga»¹ nazariy ko'mak beradi.

4.2. Yoshlarga milliy vatanparvarlik ruhida tarbiya berishi, ular haqida g'amxo'rlik qilish bugungi kunning jiddiy vazifalaridan biri hisoblanadi.²

2010 yilga kelib O'zbekiston Respublikasi aholisi 28 milliondan oshib ketdi. Aholining 64 foiziga yaqini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. 7 millioni esa o'quvchilar, 9,7 milioni 16 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Ushbu keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yoshlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar jamiyat xayotida naqadar jiddiy va dolzarbdir.

Yoshlar mamlakat kelajagi, jamiyatning tayanchi va ajralmas qismi, avlodlar davomchisi va jamiyatning noyob va tengsiz intellektual boyligidir. Yoshlar qalbi ongiga milliy istiqlool g'oyasini singdirish, jamiyatimiz taraqqiyotiga halal beradigan

mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish, ularda turli yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, haqiqiy ma'nodagi vatanparvarlik, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analarimizga nisbatan hurmat o'yg'otish va e'zozlash mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.¹

Prezidentimiz ta'kidlaganidek xalqaro hamjamiyat va taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilish uchun hapakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda bugun unib o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib, hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug' kerak bo'lsa eng muqaddas deb biladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, yoshlar bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganuvchi yoshlar sotsiologiyasining jamiyat hayotidagi ahamiyati naqadar katta. Milliy mafkuramizning shoriga aylangan «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» so'zi nafaqat ruhlantiruvchi da'vat, balki amaliy natijaga aylanishi uchun davlat jamiyatining eng faol qatlami bo'lgan yoshlarga katta e'tibor qaratilmokda. «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, «Kamolot», «Umid», «Ulug'bek» jamg'armalarining tuzilishi, yoshlar mummolari instituti faoliyatini yo'lga qo'yilishi, O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni, kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi kabi real faktlar ushbu so'zlarning amaliy isbotidir.

Hozirgi davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsilogik o'rganishning asosiy tamoyillari qo'yidagilardan iborat:

1. Yoshlar muammosini o'rganishda tarixiy yondashish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlariga, xulqiga, qiziqishiga va boshqa jihatlarini tadqiq etishda muayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baxo berish talab qilanadi. Masalan, hozirda, yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayotgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy – iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.
2. Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.
3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitni, muhitni o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayan rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o'rtasida o'zaro ziddiyat vujudga keladi. Ko'pincha yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi ko'rinishi (moda) keksa avlodda norozilik, e'tiroz to'g'diradi.
4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashish. Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalardan iborat guruhlariga ajratib o'rganish. Yoshlar o'rtasida jamiyat ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi yoshlar guruhlari: talabalar, yosh olimlar, ishchilar, fermerlar, tadbirkorlar, san'atkorlar, savdogarlar kabi guruhlar salmog'i ortib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ishsiz yoshlar, bekorchi-sayoq, giyohvand,

¹ «Xalq so'zi» 2009 dekabr

jinoyatchi kabi yoshlar jamiyat hayotida salbiy ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda respublika miqyosida jinoyatchilikning 70 % ga yaqini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir qilinayotganligini e'tiborga olsak, yoshlar sotsiologiyasining jamiyat hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz mumkin.

Sotsiologiyada yoshlik bolalik davridan so'ng ulgayish davrigacha bir necha bosqichlarga ajratilib ko'rsatiladi.

Masalan, yoshlikning dastlabki, quyi chegarasi 14-16, yuqori chegarasi esa 25-30 yoshlarni o'z ichiga oladi. 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarda asosiy muammo, ularning kasb tanlashi, ma'lumot olishi va xayotga mustaqil qadam qo'yishi bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi.

Yoshlar sotsiologiyasi – jamiyatning barcha ijtimoiy sohalaridan muammolarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji; ta'minlash tizimi va yoshlarni mustaqil mexnat faoliyatiga tayyorlash, demografik jarayonlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash; yoshlarning ma'lumot olishi va kasb tanlash muammosi: yoshlarda mexnat malakasi shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti kabi masalalarni tadqiq etadi va o'rganadi.

Hozirgi sharoitda yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb masala hisoblanadi. Bu muammoni hal etib borilishi yoshlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab masalalarning echimini topishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yangi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi ayniqsa yoshlarning ijtimoiy qarashlarida, jiddiy o'zgarishlar yasamoqda. Shuning uchun, yoshlarning kelajak hayoti rejalarini, ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida emperik sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va nazariy xulosalar ishlab chiqish lozim.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo'lishi ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuvchi jarayonida ko'p jihatdan esa yoshlar sotsiologiyasi, ta'lim, ilm-fan sotsiologiyasi bilan aloqadordir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining qator asarlarida, nutqlarida, mamlakatimiz yoshlarga oid muammolarni ko'rsatib o'tgan. Masalan, «Biz fidoyi vatanparvarlarga tayanamiz». Xalq so'zi, 1993 yil iyun, «Shu aziz Vatan barchamizniki».T, 1995 yil.

Mamlakatimizda yoshlarning o'z kelajagini qurish uchun keng imkoniyatlar ochildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida yoshlarning mehnat qilish, kasb tanlash va ma'lumot olish huquqi 37 – moddasila kafolatlangan. Yosh mutaxassislar davlat boshqaruvining mas'uliyatli ishlariga ko'proq jalb etilmoqda. Shunday bo'lsada Prezidentimiz qaysi viloyat sessiyalarida nutq so'zlamasinlar albatta yoshlar davlat boshqaruvida kamchilikni tashkil etishni afsus bilan ta'kidlaydilar.

Rivojlangan mamlakatlarda sotsiologik tadqiqotlar natijalari hukumat va boshqa jamoat tashkilotlari uchun taraqqiyotning muhim dasturiga aylangan. Bizda ham endi-endi bu soxaga e'tibor berilib kelinmoqda.

Jamiyat o'z oldiga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish vazifasini qo'yimoqda. Biz o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir.

Prezidentimiz sog'lom avlodni tarbiyalash g'oyasini mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq muhim, dolzarb vazifa sifatida o'rta qo'ygani ma'lum. Bu maqsadga erishining asosiy yo'li – ta'lim-tarbiya muassasalari, oilada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni muayyan umumiy maqsad va manfaatdan kelib chiqqan xolda bir-biri bilan uzviy bog'lashdir. «Ham davlat, ham ijtimoiy tashkilotlar, yangi paydo bulayotgan birlashmalar va jamg'armalar o'z kuchlarini mujassamlashtirib, bir yoqadan bosh chiqarib, mahalla-maktab-oila xarakatlarini amalga oshirishda, jismonan baquvvat, axloqan etuk, ruxan sog'lom avlod tarbiyalashda xech qanday kuch va mablag'larni ayamassliklari kerak» deb ta'kidlaganlar. «Sog'lom avlod» dasturiga nazar tashlasak, bu dasturda iqtidorli yoshlarning kamoloti uchun alohida sharoitlar yaratish, nogiron bolalarning tibbiy-ijtimoiy tiklash masalalariga ham jiddiy e'tibor berilganligini ko'ramiz.

Milliy sport turlarini rivojlantirish va keng targ'ib etishga xam katta e'tibor berilmoqda. «Alpomish o'yinlari» yoshlar o'rtasidagi tennis musobaqalari, spartakiadalar shular jumlasidandir.

Talaba va o'quvchilarning bo'sh vaqtini unumli band etish maqsadida ommaviy ravishda sport bilan shug'ullanishga, ularda soglom turmush tarzini shakllantirish uchun «Universiada», «Barkamol avlod», «Umidl nihollari» an'anaviy sport musobaqalari o'tkazilmoqda.

Kelajakda ushbu tadbirlarga xorijiy davlatlarning sporti talabalarning ham taklif etish hamda sport turlarini ko'paytirish ustida jiddiy tashkiliy ish – tadbirlar belgilandi.

Sotsiologik tadqiqotlar statistikasiga asosan talabalar o'rtasida sportga qiziqish yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rish mumkin. 2002 yilda sport seksiyalariga qatnashuvchi talabalar soni umumiy talabalar sonining 40 % ini tashkil etadi.

Ayni paytda, mamlakat aholisining, ayniqsa, yoshlarning ish va o'qish bilan band bo'lmagan qismini foydali mexnat hamda zamonaviy zarur ixtisosliklar bo'yicha qisqa kurslarda o'qish bilan ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilash ustida ishlar olib borilmoqda. Milliy iftihor xar bir yosh yigit va qiz o'z millatining tarixi, taqqdiri, istiqboli, mamlakatining imkoniyatlarini bilishi, uning shonu-shuhratini ulug'lashga intilishdir.

Yoshlarda Vatan, millat taqdiriga nisbatan loqaydlik kuchaysa, ular mamlakatda bo'layotgan voqealarga nisbatan befarq qarasalar – bu chuqur ilmiy fojeaning belgisidir. Islom Karimov yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish borasidagi vazifalar ustida to'xtab qo'yidagi fikrlarni aytgan edi: «Biz ona O'zbekiston istiqbolini, uning shonu-shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor». ¹

¹ Ma'rifat gazetasi 1994 yil 28 sentyabr

Buyuk faylasuf shoir Bedilning shunday hikmatli fikri ham bor: «Bino poydevorining birinchi toshi qiyshiq qo'yilsa, binoning boshi yulduzlarga etsa xam u qiyshiq bo'lib qolaveradi».¹

Ushbu masalalarni o'rganish va tadqiq etish uchun O'zbekiston Respublikasi «Jamoatchilik fikri» markazi so'nggi yillarda qator sotsiologik tadqiqotlar o'tkazdi va ular asosida ma'lum ilmiy va amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqdi. Shunday tadqiqotlardan biri Samarqand viloyatida «yoshlar va axloq» mavzusida o'tkazildi².

Shunaqa tadqiqotlar Respublikamiz buyicha o'tkazilsa, yoshlar va ularning muammolarini xal etish masalalarini har tomonlama bartaraf etishga imkoniyatlar yaratiladi deb xisoblaymiz.

4.3. Deviant – xulq atvor «og'ishini» o'rganadigan sotsiologiyaning eng qiziq hisoblanadi.

Demak, jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarini deviant xulq atvor sotsiologiyasi o'rganadi. Yanada to'liqroq ta'rif beradigan bo'lsak: - jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, ugirlik, ichkibozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish. Bu maxsus soxani taxlil va tadqiq qilish ancha murakkab sanaladi. Chunki ijtimoiy me'yor va qadriyatlar qanchalik ko'p bo'lsa, qoidalarini buzish xam shanchalik ko'p bo'ladi. Bulardan tashqari, turli madaniyatlar, shuningdek submadaniyatlarning me'yorlari bitta jamiyat ichida ham ancha farq qiladi. Shuning uchun bir jamiyat uchun oddiy hol xisoblangan narsa boshqasida me'yordan og'ish sifatida baholanadi. Masalan, marixuana chekish - Britaniya madaniyatida «og'ish» hisoblanadi, alkogollik ichimlik ichish esa «og'ish» hisoblanmaydi. Yaqin Sharq mamlakatlarida esa ikkalasi ham «og'ish» hisoblanadi.

Umuman deviantni guruh yoki jamiyatda ko'pchilik odamlar tomonidan qabul qilingan meyo'r va me'yorlar yig'indisiga mos kelmaslik deb aytish mumkin. Chunki, xulq atvorning umumiy qoidalarini ko'pchiligimiz buzamiz. Ko'pchilik kichik o'g'irliklar, masalan, dukondan biror narsaga xaq to'lamay shaxsiy manfaatlar yulida foydalanish uchun olib ketish hollariga yo'l qo'yganmiz.

«Deviant xulq» oladigan bo'lsak, amerikalik milliarder Govard Xyuz juda omadli biznesmen bo'lgan. U o'zining mexnatsevarligi, original fikr yuritish va ko'tilmagan qarorlar qabul qilgani uchun muvaffaqiyatga erishgan. Biroq, uning xulq atvoridagi ba'zi sifatlar umumiy qoida va me'yorlarga mos kelmas edi. Xayotning so'nggi yillarini u tashqi olamdan ajralib, o'zining uyiga qamalib olib, sochini o'stirib paxmoq soqol qo'yib o'tkazgan. Govard bir paytning o'zida ishi juda yurishgan biznesmen va xulqi juda «og'ib» ketgan odam edi.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq atvoriga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar raxbarlarining roli va ahamiyati juda katta.

¹ Barkamol avlod orzusi Toshkent 2000 y 96 bet

² Ijtimoiy fikr inson huquqlari № 3 2000 y 94-97 bet

Deviant xulq atvor turlariga kiruvchi ichki bozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bogliq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra farqli jixatlarga ega. Misol uchun shaxar ko'chasida ikki kishi qarama-qarshi tomondan bir-biriga yaqinlashib kelmoqda. Ular bir-biriga qisqa nazar tashlashadi, tezlikda bir-birlarining yuziga va kiyinishiga e'tibor berishadi. Ular bir-biriga yaqinlashib yonlaridan o'tib ketgunlaricha ko'zlari ko'zga tushmaslik uchun chetga qaraydilar. Bu jarayonni biz fuqarolarning bir-biriga bee'tiborligi deb qabul qilamiz. Lekin, xar bir odam boshqasiga uning mavjudligin sezganini, biroq uni shilqim sifatida talqin qilmasligi uchun ortiqcha xarakatdan tiyib turishini bildiradi. Shu yusinda odamlar bir-birlariga dushmanlik qilish va bir-birlariga befarq bulish uchun sabab yo'qligini namoyish etadilar. Fuqarolik bee'tiborligini mazmunini tushunish uchun u qo'llaniladigan vaziyatlarga murojaat qilish lozim. Xaddan tashqari tikilib qarash ishonchsizlik belgisi yoki suhbatdoshning nima haqida gapirayotganligini tushunmaslik alomati sifatida qabul qilinishi mumkin. Endi savol tug'ilishi tabiiy. Nima uchun ijtimoiy xulq atvorning arzimas jixatlari bilan shug'ullanish kerak? Ko'chada biror kishining yonidan o'tish, tanish odam bilan salomlashish va unga bir necha so'z aytish, bularning hammasi shunchalik arizimas va qiziqarsizmi, kun davomida ular xaqida mutlaqo o'ylamay yuzlab marta qaytaramiz. Aslida ijtimoiy ta'sirning oddiy shakllarini o'rganish sotsiologiya uchun juda muxim.

Jamiyatda insonlar faoliyati, hatti-harakatlari va xulq atvorini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvinin ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuasidir. Ijtimoiy me'yorning qo'yidagi asosiy turlari mavjud:

1. Huquqiy
2. Axloqiy
3. Diniy
- 4 .Urf-odatlarga oid me'yorlar .

Bu me'yorlarning afzalligi, yoshlikdanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib berilgan jamiyat a'zolari umum tomondan qabul qilingan qoidalardan chetga chiqmaydi. Jamiyat o'zgarib, taraqqiy etish barobarida ijtimoiy me'yorlar eskirib va yangilanib boradi.

4.4. Biz ijtimoiy koidalar va me'yorlarga amal qilamiz. Misol uchun, til qoidalarini o'rganishni olib ko'raylik. Tildan foydalanish grammatik va orfografiya qoidalarini bilishni anglatadi. Biz ushbu qoidalarni qiynalmasdan, o'ylanmasdan qo'llaymiz, chunki ularni bolalikda egallab olganmiz. Keyinroq, chet tilini o'rganayotganda odam hattoki oddiy iborani o'tish uchun ham qanchalik qoidalarni bilish zarur ekanligini anglaydi. Yoki bo'lmasa svetoforming qizil chirog'i yonganda to'xta zarurligini bilamiz. Chunki, haydovchilarning ko'pchligi bu qoidalarga amal qilmasa, yullar hozirgiga nisbatan beqiyos darajada xavfli bo'lib qolardi.

Bu misollar bizning e'tiborimizni konformlik va og'ish muammosining muhim jixatlaridan biriga qaratadi. Barcha ijtimoiy me'yorlar sanksiyalar bilan birga mavjud bo'ladi.

Sanksiya –«rag’batlantirish yoki jazolash turlari bo’lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bulgan xulq-atvor me'yorlari mustahkamlanadi».1

Sanksiya boshqalar tomonidan individ yoki gurux xulqiga bildirilgan reaksiya bo’lib, uning maqsadi - mazkur ijtimoiy me'orning bajarilishini kafolatlash. Sanksiyalar rag’batlantiruvchi va jazolovchi turlarga bo’linadi.

Formal sanksiya normalarga rioya qilishni kafolatlaydigan tashkilot yoki guruh bo’lgan joyda mavjud bo’ladi. Noformal sanksiyalar – nokomformlikka nisbatan kamroq uyushgan va ko’pincha o’z-o’zidan kelib chiqdigan reaksiyadir.

Sanksiyalarni biz ijtimoiy nazorat institutlari deb hm atashimiz mumkin. Bu institutlarga oila, maktab, mahlla deb atashimiz mumkin.

Rasmiy reaksiyalar – sud va xuquq tizimidagi jazo bilan bogliq. Jinoyatlarni sud qilish, qamoqqa olish, yo’l qoidalarini buzishning ko’pchiligi jarima yoki haydovchilik xuquqidan maxrum qilish yuli bilan jazolanadi va bu jazolar haydovchilarning yo’l qoidalarini buzmasliklariga sabab bo’ladi.

Formal (rag’batlantiruvchi) sanksiyalar unchalik ko’p emas. Haydovchini mashinani namunali xaydashini rag’batlantirish maqsadida «a’lo haydovchilik uchun» yoki «bilag’on haydovchi» kabi unvonlar mukofot tarzida beriladi.

Formal sanksiyalar ijtimoiy xayotimizning boshqa sohalarida ham uchraydi: jangdagi jasurligi uchun orden yoki medallar, daraja va diplomlar, sportdagi yutuqlari uchun mukofotlar.

Pozitiv va negativ noformal sanksiyalar ijtimoiy xayotda barcha sohalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Pozitiv noformal sanksiyalar maqtov, maqullash mazmunidagi jilmayish, elkaga urib quyish kabi shakllarda nomoyon bo’lishi mumkin. Negativ noformal sanksiyalar esa xaqorat ohangi, so’kish yoki xayfsan shakllarida nomoyon bqladi. Formal sanksiyalar konformlik va me'yorlarni saqlashda ahamiyatga ega. Do’stlar, oila, hamkasabalarning yaxshi munosabatini saqlab qolish ehtiyoji, kulgu bulish, uyalib qolish, rad etishidan ko’chish odamlarning xulqini ko’pincha formal mukofotlar yoki jazolashdan ko’ra ko’proq belgilab beradi.

Qonunlar – bu xokimiyat tomonidan fukarolar amal qilishi uchun belgilab qo’yiladigan tamoyil shaklidagi me'yorlardir.

Konformlik namoyish etmaydigan odamlarga qarshi qo’llaniladigan formal sanksiyalar ham mavjud.

Konformlik – «jamiyat yoki guruhda o’rnatilgan me'yorlarga rioya qilishga asoslangan xulq».2

Qonun bor joyda jinoyat ham topiladi, chunki jinoyatni qonuni buzuvchi xar qanday xulq deb ta'riflash mumkin.

Jinoyatlarni xillari shunchalik ko’pki, ularni amalga oshirilayotganlar bir xil ruhiy sifatlarga ega, deyish xaqiqatdan yiroqdir.

Biz jinoyatning faqat bir toifasi, aytaylik, og'ir jinoyatlar tadqiqi bilan cheklansak ham, juda ko'plab xar xil xolatlar aniqlanadi. Bunday jinoyatlarning ba'zilari individlar tomonidan, boshqalari esa tashkiliy guruh tomonidan sodir etiladi.

Jinoyatning mohiyatini qoniqarli izohlash, sotsiologik baxolash mumkin. Chunki jinoyatlar jamiyatning ijtimoiy institutlari bilan bogliq.

Har qanday jamiyatdagi jinoyatchilikning xaqiqiy miqyosini baholash mushkul, chunki hamma jinoyatlar xam aniqlanavermaydi. Shunga qaramay, ba'zi mamlakatlarda jinoyatchilik darajasi o'rtachadan ancha baland.

Jazo xam xuddi «jinoyat» singari turli madaniyatlarda va jinoyatlardan muhofaza qilish va ularni «qayta tarbiyalash» uchun paydo bo'ldi. Shu oxirgi maqsad nuqtai nazaridan ular samarasiz bo'lib chiqdi. Bugun ko'pchilik mamlakatlarda o'lim jazosi bekor qilingan. Mustaqil O'zbekistonimizda ham faqatgina genosid va terrorchilik harakatlari va qasddan odam o'ldirishlarga o'lim jazosi mavjud. Shu ma'noda jinoiy ishlarni liberallashtirish bo'yicha bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Deviant xulq atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muxim ahamiyat kasb etadi. Bu xolat shundayki, u sub'ektdan echimini talab qiladi, uning echimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga kura, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

4.5 Deviant xulq atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli vaziyat – shunday holatki, u sub'ektdan echimini talab qiladi, uning echimi ixtiyoriy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki bu sabablarga ko'ra ushbu me'orlarni qullash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta qarra muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda turli holatlarda shaxslar yokiguruhlarining manfaatlari bir birlariga tuqnash kelganda yuz beradi. O'z joniga qasd etishning 40 % oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga sabab, ba'zan shaxs xususiyatlari sabab bo'lsa ba'zan kichik ixtiyoriy guruhlar, sinfdoshlar orasidagi munosabatlar sabab bo'ladi

Muammoli holatning 4 ta asosiy holati ko'zga tashlanadi:

1. hech qanaqa muammo yoq holat, bunday holatda hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi.
2. muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsada uning yechimi ixtiyoriy me'yorlarda ko'rsatilgan holat.
3. mavjud muammoni sub'ekt ixtiyoriy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat.
4. muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat.

Har qanaqa holatlarda mansabdor shaxslar, rahbarlar, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq atvor me'yorlarini bo'lishi qat'iy qoralanadi.

Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar oila va atrof mo'hitdan norozilik, tushunmovchiliklar barchasi sub'ekt ruhiyatini jariohatlaydi, hamda vaziyat o'zgartirishga o'rinadi. Har qanday holatda ham qurbon berib bo'lsada to'g'ri ychimga erishish mumkin. Qat'iy qarorga kela olmay sub'ekt o'rinbosar vositalarga ichkilik giyohvand moddalarga murojaat qiladi. Bunda sub'ekt noto'g'ri yo'lni tanlaydi.

5-ma'ruza. Mavzu: Ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy xayot sotsiologiyasi

Reja :

- 1 Shaxs jamiyat va davlat sotsiologiyasi.
- 2 Ijtimoiy boshqaruv sotsiologiyasi.
- 3 Iqtisod sotsiologiyasi.
- 4 Mexnat sotsiologiyasi.
- 5 Tashkilotlar sotsiologiyasi.
- 6 Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi.

Adabiyotlar:

2, 5, 9, 13, 14

Tayanch iboralar:

Shaxs, jamiyat, davlat, individ, boshqaruv, bashorat, sotsial adaptatsiya, fuqarolik jamiyati, axborot, prognoz, loyixa, Ombudsman, mafkura, parlament, tajriba, modal shaxs, mikrosotsiologiya, makrosiologiya, bandlik, demografiya, bo'sh vaqt, etakchilik, nizo, byurokratiya, avtoritizm, atributsiya, avtoritarizm, atributsiya, birdamlik, ijtimoiy xizmat, migratsiya, motivatsiya.

5.1. «Jamiyatni isloh qilish va yangilash buyicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Isloxotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishga qaratilgan».¹

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qiladigan, unga munosib shaxs bo'la oladigan kishini tarbiya qilish etishtirish hozirgi davrning asosiy vazifasi ekanligini shaxs sotsiologiyasi o'rganadi.

Shaxsga ta'rif beradigan bo'lsak:

«Shaxs – individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan xamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va

¹ I.Karimov.O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.O'zbekiston 1995y 247b.

sifatini belgilaydigan sistemali tarzda sotsial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi».¹

1. Demak, shaxs – bu uning jismoniy tabiati emas, balkim, uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs extiyojlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlari esa uni maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida eng avvalo manfaatlari tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadli tarzda nomoyon etadi. Shaxs konkret sotsial munosabatlar sub'ekti sifatida nomoyon bulishi inobatga olinadigan bo'lsa, shaxsning asosiy sotsial sifatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning sotsial sifatlari uchta kichik sistemadan iborat bo'ladi:
2. Shaxsning individualligi.
3. Shaxslararo munosabatlar.

Munosabatlar sub'ekti.

Shaxsning individualligi – undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonida ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida nomoyon bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlar natijasini ichki yoki tashqi kuzatish metodlari orkali uning individual xususiyatini bilish shaxsning ijtimoiy faoliyat jarayonidagi rolini belgilaydi.

Shaxsning shaxslararo munosabati – shu munosabatlar sistemasini elementlardan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxsning rivojlanishini uning komil inson sifatida tarkib topishini asos sifatida xizmat kiladi. shaxsning munosabatlar sub'ekti – shu munosabatlardagi sub'ekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

Umuman olganda, shaxsning jamiyatdagi o'rni va mohiyati sotsiologiyaning muhim sohalaridan biri hisoblanadi.

Shaxsning jamiyatga, ijtimoiy jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon ijtimoiylashuv deb ataladi. Individning sotsial tashkilot elementi bo'lishi qay tarzda ruy berishdan, bir tomondan, sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi qobiliyatni shakllanishi, ikkinchi tomondan shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi qobiliyatini shakllanishiga bog'liq bo'ladi.

Shaxs ijtimoiylashuv jarayoni 2 bosqichga ajratish mumkin:

1. Sotsial adaptatsiya (moslashuv).
2. Sotsial interiozatsiya.

Sotsial adaptatsiya – individning sotsail sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruxlarga va muxitga moslashuv jarayoni asosan har qanday oiladan boshlanadi va muxitga moslashuv. Moslashuv jarayoni asosan xar bir oiladan boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi xar qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o'z aksini topadi.

¹ Umumiy psixologiya T. O'qituvchi 1992 y 204bet

Sotsial interioizatsiya – ijtimoiy norma va qadriyatlarning individning ichki dunyosini kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi.

Biz tug'ilib o'sgan muhitdagi madaniy ustanovkalar bizning xulq-atvorimizga shunchalik katta ta'sir o'tkazadiki, biz individuallik va iroda erkiga ega emasmiz, degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Buni jamiyat tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan qoliplarga majburan tikishayotganday tuyuladi. Ba'zi sotsiologlar ijtimoiylashuv, xatto umuman sotsiologiya to'g'risida xuddi mana shunday, deb yozishgan edi, biroq bunday qarash mutlaqo noto'g'ri. Albatta, to'g'ilishidan to o'lingacha bizning boshqalar bilan o'zaro ta'sirga kirishishimiz bizning shaxsiyatimiz, xayotimiz qadriyatlarimiz va xulq-atvorimizni belgilaydi. Biroq ijtimoiylashuv usha individuallik va erkning ham manbai hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida xar bir shaxs o'zini anglash, mustaqil fikrlash va xarakat qilishga layoqat orttiradi.

Buni biz til o'rganish misol ifodalash mumkin. Tilni hech kim kashf qilmaydi, yoshlikdan til o'rganish bizni maxsus til qoidalari bilan kishanlab qo'yadi. Ayni paytda tilni egallash bizning o'zimizni anglashimiz va ijodimizdagi eng muhim omillardan bir xisoblanadi. Til bo'lmasa odamlar o'zini anglaydigan mavjudot bo'lmasdi. Tilni bilish inson xayoti timsoliy boyliklarni, individual sifatlarini saqlash va mavjudlik shartlarini amalda egalash uchun xam zarur.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, aytadigan bo'lsak, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini qo'yidagi agentlarga bo'lishimiz mumkin.

1. Oila.
2. Tengdoshlar bilan munosabat.
3. Maktab
4. Ommaviy axborot vositalari.

Shu bilan birgalikda sotsiologiyada kayta ijtimoiylashuv degan tushuncha xam mavjud.

«Qayta ijtimoiylashuv» – ba'zi vaziyatlarda katta yoshli odamlar kayta ijtimoiylashuvni, ya'ni avval qabul qilingan qadriyatlar va xulq-atvor modellarining to'la emirilishi va oldingilaridan tubdan farq qiluvchi qadriyatlarni o'zlashtirishni boshdan kechiradilar. Ana shunday vaziyatlardan biri – karser tashkilotlarida bo'lish; ruxiy bemorlar klinikasid, qamoqxonada, kazarmalarda va odamlar qat'iy tartib va talablar ta'siriga tushib qoladigan tashqi dunyodan ajratilgan har qanday joylarda buladi. Qattiq zuriqish sharoitida dunyoqarashni o'zgartirish juda dramatik bulishi mumkin. Shunday taranglik vaziyatini o'rganish oddiy sharoitlarda yuz beradigan ijtimoiylashuv jarayonini chuqur anglash imkoniyatini yaratib berdi.

Shaxs va jamiyat.

Jamiyat – kishilar xayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jixatidan murakkab tizimni tashkil etadi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va

rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jixatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhimdir.

Jamiyatning moddiy ishlab chiqarish jarayoni sotsiologiyada ijtimoiy tizim sifatida olib qarab o'rganiladi. Moddiy ishlab chiqarish tizimi – ijtimoiy xayot sohasi bo'lib, kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini sotsiologik jixatdan o'rganishda uni 3 ma'noda: eng umumiy, maxsus keng va xususiy tor ma'nolarda olib qarash lozim.

Umumiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib – jamiyatning bir butun tarkibini tashkil qiladi. Bunga iqtisodiyot, siyosat va ideologiyasi (mafkura) kabi sohalar kiradi.

Maxsus keng – ijtimoiy – tarixiy birlik majmuasi va ular o'rtasidagi aloqa, munosabatlar kiradi. Bu tarkib milliy – etnik, ijtimoiy-demografik, mutaxassislik va boshqa shu kabi kishilar guruhlarini o'z ichiga oladi.

Tor ma'nodagi – bunga mehnat jamoalari, xududiy birlik, nisbatan tez o'zgaruvchan guruhlar kiradi.

Mustaqil O'zbekiston davlatining xalqaro maydonda nufuzli mamlakatga, barcha sohalardan rivojlangan jamiyatga ega bulish darajasiga ko'tarilishi, uning ana shu o'zaro funksional ta'sirda buluvchi tomonlari, tarkibiy bo'laklari xolatiga, xarakteriga bog'liq.

«O'zbekistonda, deb ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov, uning eri, tabiatiga, bu erda yashayotgan xalqlarga muxabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analari teran bilim olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan foydalanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qaygurish ko'p millatli o'zbek jamoatchilikning muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi».1

Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero hozirgi paytdagi fuqarolar huquqi xaqiqatdan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida har bir odam o'zi uchun maqsad. Birok, u boshqalar bilan munosabatga kirishmasdan to'rib, o'z maqsadiga erisha olmaydi, boshqalar uning maqsadga etishishi yo'lidagi vositadir. Boshqacha qilib aytganimizda, fuqarolik jamiyati yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bo'lgan xar bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o'shanday yashashiga zamin yaratadi.

Fuqarolik jamiyati - bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirish bilan birga, shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham talab va ehtiyojlarini qondiradi. O'z a'zolarining shaxsiy erkinliklari va xuquqlarini ximoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga dahl qilinishiga yul qo'yilmaydi. Bu jamiyat, turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ro'y berishi aslo mumkin emas. Chunki shaxs – davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlari birinchi o'rinda turadi va bu manfaatlar, ta'kidlaganimizdek, ham axloqiy, xam qonuniy jihatdan himoya qilinadi.

Fuqarolik jamiyatining asosi – erkinlik hisoblanadi. Shaxsning so'z va fikr erkinligi bo'lmas ekan, fuqarolik jamiyati amalda mavjud bo'la olmaydi.

Yana bir muhim tomoniga e'tibor berishimiz lozim: qarindoshlik, urug'doshlik, elatdoshlik singari hissiyotlardan kasbdoshlik, mahalladoshlik hissiyotlari ustun

maqomga ega buladi. boshqaruv erkin saylov asosida, hokimiyat idoralari qonun bilan himoyalangan ixtiyoriy tuzilmalar ko'magida ish olib boriladi. Shu boisdan ham Prezidentimiz I.Karimov fuqarolik jamiyatini mamlakatimiz siyosiy va davlat qurilishining asosiy xususiyatlari sifatida ta'kidlab «Maxalliy hokimiyat va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari vazifalarini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqich-bosqich o'tkazib berish, nadavlat va jamoat tuzilmalari xuquqi va mavqeini oshirishni ko'zda tutadigan «Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari» konsepsiyasi amalga oshirish» dan iborat deb ta'kidlaydi.¹

Yuqoridagi ta'kidlaganlardan tashqari fuqarolik jamiyati qurishni tezlashtiradigan mahalla ham mavjud. Maxalla xalqimizning qadimiy demokratik an'analari hozir ham o'z kuchini yuqotgan emas. Ana shu xususiyatlari bilan mahalla o'z-o'zini boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun kuprik bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fukarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlari tasavvur qila olgan xar bir kishiga, ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarning yig'indisi tashkil qilar ekan.

Davlat va shaxs.

Davlat, milliy davlatchilikning shakllanishi va taraqqiyot tarixi to'g'risida so'z yuritadigan oldin qo'yidagi savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

«Davlat nima?», «Davlatchilik nima?», «Milliy davlatchilik nima?» kabi qisqa va ayni goxida axamiyatni savollarga javob beramiz. Avvalo, «davlat» tushunchasini kurib chiqaylik. Bu urinda prezident I.Karimovning «Davlat qurilishi borasida tanqidiy nuqtai – nazarsiz qabul qilinadigan tayyor qolip va andozalar yo'q. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga o'xshagan ikkita davlat xam yo'q. Bunday bo'lishi mumkin ham emas».²

Demak, xar bir davlat – aloxida, betakror hodisadir. U xar bir xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining xosilidir. Uning o'ziga xos o'ziga mos madaniyati rivojining mantiqiy natijasi hisoblanadi.

Davlat tushuncha tor ma'noda – muayyan xudud, siyosiy hokimiyat, axoli, xuquqiy normalar kabi belgilarga ega.

Davlat tushunchasi keng ma'noda – elementlar yig'indisi, milliy ma'naviy, milliy – madaniy xususiyatlarga ega voqelik, tarixiy – madaniy fenomendir.

O'z navbatida, «milliy davlatchilik» - bu xar qaysi xalqning siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy taraqqiyoti hosilasi, uning o'ziga xos va o'ziga mos madaniy – ma'rifiy rivojining natijasidir.

«Davlatchilik» tushunchasiga nisbatan fanda tarixiy, xuquqiy, falsafiy, siyosiy va sotsiologik yondashuvlar farkanadi.

Davlatning jamiyat xayotidagi tutgan o'rni qo'yidagilar:

¹ I.Karimov.Milliy istiqlool iqtisod,siyosat,mafura. T.O'zbekiston. 1993y 84bet.

² I. Karimov.Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor gazetasi» 2000y 8 iyun soni.

-siyosiy soxada – demokratik davlat barpo etish;

-iqtisodiy soha – bosh islohotchi;

-xuquqiy sohada – xuquqiy davlat ijodkori;

-ma'naviy sohada – ma'naviy o'ygonishning o'omiysi, milliy istiqlol mafkurasining tashabbuskoridir.

Mamlakatimizda davlatchilik taraqqiyotining ustuvor tamoyillari yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan mashxur besh prinsiplarga to'la to'kis mos keladi.

Davlat va mafkura o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro munosabatlar masalasi ham bor. Jamiyatning mafkuraviy sohasi falsafa, axloq, xuquq, din, madaniyat, adabiyot va san'at kabi inson dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan yunalishlarni tula qamrab oladi.

¹Milliy davlatchilikning g'oyaviy asoslarini milliy istiqlol mafkurasini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1 bob, 2 moddasida «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar» deb ta'kidlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi tanlab olgan davlatchilik yuli Konstitutsiyaviy asosga ega. Bu yo'l mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha aholi manfaatlariga to'la mos tushadi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgach, yangi suveren davlat maqomini konstitutsiyaviy jixatdan mustaxkamlab qo'yish yuzaga kelgan edi. Respublikamiz Prezidenti «Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jixatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq»² deb ta'kidlagan edilar.

Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish zarurli 1990 yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashining birinchi sessiyasidayoq aytib o'tilgan edi.

Konstitutsiyamizda qo'yidagi maqsadlar qo'yilgan: ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan insonparvar, demokratik, xuquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini yaratish.

Milliy davlatchiligimiz taraqqiyotining ikkinchi bosqichini ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, o'zbek milliy Parlamenti – Oliy Majlis shakllanadi.

Ikkinchidan – Prezidentlik boshqaruv tizimi joriy etildi.

Uchinchidan – yangi sud xokimiyati tizimi yaratildi.

To'rtinchidan – inson xuquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (Ombudsman) tashkil etildi.

Hozirga kelib Parlamentning ikki palatali bo'lishi ya'ni qo'yi palata va senatorlarga bo'linishi ham davlatchiligimiz xususiyatlaridir.

O'zbekiston xuquqiy davlatchilikni rivojlantirish tendensiyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2 chaqirik Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida milliy davlatchiligimizning ettita asosiy yo'nalishini belgilab bergan.

¹ I. Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol,iqtisod,siyosat ,mafura. 1jild T.O'zbekiston 1996 y 275 bet

Birinchi yo'nalish – demokratlashtirish va siyosiy islohotlarni amalga oshirish.

Ikkinchi yo'nalish - davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida;

Uchinchi yo'nalish – iqtisodiyot sohasida;

To'rtinchi yo'nalish – ma'naviyat sohasida;

Beshinchi yo'nalish – sud-xuquq sohasida;

Oltinchi yo'nalish – tashqi siyosat sohasida;

Yettinchi yo'nalish – xavfsizlikni ta'minlash sohasida.

Ushbu ma'ruzada ta'kidlaganidek, bosh strategik maqsadimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik, xuquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat.

Shunday qilib, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

5.2. Boshqaruv sotsiologiyasi soxasida F.Teylorning «Ilmiy menejment» maktabi, Ch.Perrouning «Inqirozli xolatlarida boshqaruv» kabi sotsiologik maktablari boshqaruv sotsiologiyasi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqaruv sotsiologiyasi – ijtimoiy jarayonlarni boshqarish usullarini, munosabatlarini, hamda jamiyat ijtimoiy tarkibiga muayyan maqsad asosida ta'sir ko'rsatish shakl va usullarini o'rganuvchi maxsus sotsiologik soxa xisoblanadi. Bu sohada kichik mehnat jamoasidan tortib, to davlat boshqaruv tizimiga qadar bo'lgan jarayonlar o'rganiladi. Boshqaruv sotsiologiyasi doirasida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va uni boshqaruv – ijro organlari tomonidan qay darajada bajarilishi, o'z-o'zini boshqarishning nazariy va amaliy masalalari tanqid qilinadi. Boshqaruv sotsiologiyasi – hozirgi murakkab, bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy – iqtisodiy tuzumni shakllantirish davrida ijtimoiy oldindan bilish, rejalashtirish, qaror qabul qilish va ularning bajarilishi nazorat qilish kabi inson ijtimoiy faoliyatini boshqarish vazifasining qay darajada bajarilayotganligini aniqlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy boshqaruv muayyan maqsadga yo'naltirilgan, rejali, nazorat qiluvchi va ongli ravishda tashkil qilingan jarayon bo'lib, kam vaqt, kuch va resurs sarf qilingan xolda yuqori darajadagi natijaga erishish demakdir.

Bugungi kunda korxona va tashkilotlarni ishlarini tashkil etish va boshqarish zamon talablaridan kelib chiqib boshqarishni etish etadi. Rivojlanib va kuchayib borayotgan jarayonlar va informatsiyalar tizimining umumjaxon darajaga ko'tarilishi raqobatning kuchayishi boshqaruv tizimida o'zgarishlar bulishini taqazo etadi.

Jamiyatda boshqaruvning asosiy mazmuni ijtimoiy xayotning barcha soxalarida: mehnat faoliyatida, ishlab chiqarishda, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, mafkuraviy soxada, ijtimoiy qayta ishlab chiqarishda ijtimoiy faoliyat samaradorligini muvofiqlashtirish va oshirishni ifodalaydi. Umuman, ijtimoiy boshqarishning diqqat markazida inson va uning faoliyati turadi.

Ijtimoiy boshqaruv jamiyat muayyan tizimining tartiblanishuvi saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Boshqarishning qo'yidagi asosiy bosqichlari qo'yidagilardan iborat:

Axborotlarni yigish va uni kayta ishlash, taksimlash, maksadga erishuviga karatilgan karorning ishlab chikilishini rejalashtirish, dasturlashtirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga kuyishdir.

Boshkarish jarayonini tadkik kilish orkali ijtimoiy obektiv konuniyat bilan sub'ekt urtasidagi yuaza keladigan ziddiyatlarni xal etish, ijtimoiy faoliyat shart-sharoiti, maksadi va real imkoniyatlari urganiladi. Bozor munosabatlari sharoitida, jamiyat xayotini boshkarish muxim axamiyat kasb etadi. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlab utganidek, «Davlat boshkaruvining yaxlit tizimida turli buginlarning vakolat doirasini anik chegaralab olishdan, .. maxalliy xokimiyat va boshkaruv organlari, fukarolarning uz-uzini boshkarish organlarining xukuk va vakolatlarini eng kup darajada kengaytirishdan iboratdir».¹

Respublikamiz boshkaruv orgnalari tarkibiga Prezident Maxkamasi, viloyat, shaxar va tuman xokimiyatlari, Oliy Majlis, Vazirlar Makkamasi, Davlat Kumitalari, vazirliklar, maxkamalar, viloyat kengashlari, jamoat tashkilotlari, kasaba va matbuot uyushmalari va boshkalar kiradi. Bulardan tashkari tashkilotlarda, birlashmalarda, korxonalarda boshkarish vazifasin bajaruvchi shaxslar kiradi.

Boshkaruv Sotsiologiyasi uz moxiyati, tadkikot mazmuni va xarakteri jixatidan iktisodiyot Sotsiologiyasi, mexnat Sotsiologiyasi, siyosat Sotsiologiyasi, ijtimoiy rejalashtirish, prognozlashtirish kabi soxalar bilan xam uzviy boglikdir. Shu bilan birga boshkaruv Sotsiologiyasining uziga xos jixati shundan iboratki, unda boshkaruv jaryonlari faoliyat, manfaat, xulk tarzida olib karalib, shasxlar, ijtimoiy guruxlarning uzaro raxbarlik va buysunuvchi munosabatlari xam tulik urganiladi.

Ijtimoiy bashorat – ijtimoiy jarayonlarni bashorat kiladi. Ijtimoiy bashorat - ijtimoiy rivojlanish xususiyati va yunalishini jamiyat ijtimoiy rivojining ustuvor jixatlari, utmish tajribalari, uning tadrijiy uzgarib borishi asosida oldingan aytib berish.

Demak, ijtimoiy bashorat jamiyatni rivojlanishini oldindan ilmiy aytib berishdan iborat. Shuni e'tiborga olish kerakki, bashorat kategoriyasi ikki ma'noda kulaniladi:

1. Oldindan aytib berish.
2. Oldindan ko'rsatma berish.

Oldindan aytib berish – kelajak tugrisidagi axborotni olish, kelajak muammolarining mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan, xoxlayotgan istikbollari, xolatlari, echimlarining tasnifidir. Rus Sotsiologiya Betuksev Lada iborasi bilan aytganda – usha muammolarni echish, kelajak xaqidagi axborotdan foydalanish, axborotni shaxs va jamiyatning maksadiga muvofik faoliyatga aylantirishdir. Zero, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar samarali foydalanishdir.

¹ I.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» 1995 y 265 b

Ijtimoiy boshqaruv bu ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni ham o'z ichiga oladi.

Sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish ijtimoiy boshqaruvning asosiy shakllari xisoblanadi.

Ijtimoiy rejalashtirish – mazmuni ijtimoiy jarayon va hodisalar maqsadini, tomonlarini, vosita va maqsadlarni aniqlash, rejalarni ishlab chiqish, rejalarni nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy loyixalashtirish – xali mavjud bo'lmagan, ammo yaratilishi lozim bo'lgan, shuningdek, o'zgarish lozim bo'lgan ob'ektlarni nisbatan ishlatiladi.

Ijtimoiy prognozlashtirish – inson va jamiyatning keyingi yillarda ro'y beradigan natijalarni ko'ra bilish va shunga muvofiq yarasha rivojlanishni boshqarish zaruriyatidir.

Qo'yidagi prognozlar mavjud:

- joriy prognozlar – soatlar, kunlar, hafta va oylar;
- qisqa muddati prognozlar – 1–5 yil oraliqlariga;
- o'rta muddatli prognozlar – 5 – 10 yil oraliqlarida;
- uzoq muddatli prognozlar – 10 – 20 yil oralig'ida;
- o'ta uzoq muddatli prognozlar – uzoq muddatidan keyingi davr.

Bulardan tashqari ijtimoiy boshqarishning istiqboldagi xolatlarini bashorat qilish – jamiyatning rivojiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy me'yorlarni aniqlash, taxdidlar bashorati – jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan taxlillariga asoslangan bashoratlardir. Sotsial boshqaruv masalalarini hal etishda matematik modellashtirish va tajriba usullaridan ham keng foydalaniladi.

Ijtimoiy boshqaruv jarayonida sifatli miqdor ko'rsatkichga ega bo'lgan axborotlar orqali amalga oshiriladi. Sifat ko'rsatkichi ma'lumotlar hodisa va jarayonlarni xususiyatlari va tarkibiy tuzilishining ko'rinishlari haqidagi jarayon hisoblanadi.

Miqdor ko'rsatkichi axborotlar esa, hodisa va jarayonlarning miqdoriy o'lchov shaklida nomoyon bo'ladi. Bu barcha ma'lumotlar EHM larga tayangan holda matematik modellashtirish va u orqali ijtimoiy bashorat qilish, analiz va baholash amalga oshiriladi. Umuman olganda, ijtimoiy bashorat 4 ta bosqichga asoslanadi.

Birinchi bosqich – axborotlar manbaini va ko'rsatkichini aniqlash;

Ikkinchi bosqich – bashorat qilinayotgan ob'ektning modelini ishlab chiqish;

Uchinchi bosqich – bashorat jarayonida turli taxminlar, ilmiy farazlar qilish;

To'rtinchi bosqich – bashoratni amalga oshirishni asoslab berish va taxminiy xulosalar qilish.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy boshqaruv va bashorat ijtimoiy hayotni ilmiy asosda boshqarish shakllari, usul va vositalarini yanada takomillashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

5.3. Sotsiologiyaning iqtisod bo'limi XX asrning o'rtalarida AQSH da fan sifatida shakllangan. Oldinlari bu soha bilan tor doirada shug'ullanishgan. Hozirgi kelib esa bu soha juda rivojlanib ketgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlatimiz oldida ikkita yo'nalish paydo bo'lgan edi. Birinchisi, «shok terapiyasi» deb atalib, u islohotlarni sun'iy ravishda jadallashtirishga, ikkinchisi esa islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirilishini talab etar edi. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishda aynan ikkinchi yo'nalish dastur amal qilib olingan edi.

Albatta, mustaqil **milliy rivojlanish** yulida og'ir mustabid o'tmish oqibatlarini va o'tish davrining murakkabliklari bilan bog'liq katta qiyinchiliklarga duch kelindi. Shunga qaramay, milliy tiklanishning o'ziga xos modeli, muntazam yangilanish va taraqqiyotga tayangan xolda, O'zbekiston tarixan qisqa muddatda butun dunyoda e'tirof etilgan. Ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Sobiq Sovetlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari buyicha Sobiq Ittifoqda eng so'nggi o'rinlardan birini egallagan. O'zbekiston bugungi kunda MDH mamlakatlari orasida etakchi o'ringa ko'tarildi. Respublikamizning sayyoramizdagi ko'plab mamlakatlar bilan samarali siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlikni amalga oshirishga imkoniyatlar yaratildi. Bu o'z navbatida, zamonaviy demokratik davlatni, kup qatlamli iqtisodni bozor munosabatlarini shakllantirish kabi ichki muammolarni hal etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Suveren O'zbekiston rahbariyati jaxonda «o'zbek modeli» deb nom olgan harakat dasturi asosida jamiyatni isloh qilishga kirishdi. Mazkur model O'zbekiston xalqining milliy turmush tarzi xususiyatlaridan, uning ijtimoiy taraqqiyotga va munosib turmush sharoitlariga erishishga bulgan intilishidan kelib chiqadi, totalitar imperiya tizimidan bozorga va demokratik jamiyatga o'tishning ob'ektiv tamoyillarini o'zida aks ettiradi.

Miliy tiklanish, tuzilmaviy yangilanish va taraqqiyotning strategik yo'lini nazariy jixatdan ishlab chiqish va konseptual asoslab berishda hal qiluvchi rolni Prezident I.A. Karimov o'ynadi. Bugun, xorijiy olimlarning bergan bahosiga qaraganda, «o'zbek yo'li» Islom Karimovning kashfiyoti, uning «nou-xau» si xisoblandi.

Yosh davlatimiz boshlig'ining mustaqil rivojlanishning o'ziga xos modelini yaratish bo'yicha nazariy izlanishlarning muhim jihati o'z iqtisodiy doktrinamizni ishlab chiqish bo'ldi. Uning g'oyaviy tomoni milliy yulboshchi tomonidan O'zbekistonning davlat mustakilligini e'lon kilish arafasida ishlana boshlagan edi. Mustakillik sharoitida u konseptual tugallik va misli kurilmagan ijodiy quvvat kasb etdi. Masalan, siyosiy suverenitet qo'lga kiritilgandan so'ng yozilgan ilk asarlaridayoq Prezident I.A.Karimov tomonidan milliy iqtisodiy siyosatning asosiy paradigmasi va uning g'oyaviy negizi belgilab berildi. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida yozilgan mashhur «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» nomli asarida «xalq manfaatlariga javob beruvchi mustaqil iqtisodiy siyosat – O'zbekistonni mustaqil rivojlantirishning ajralmas sharti» ekanligini ko'rsatib o'tilgan.¹

O'zining keyingi tadqiqotlari va nutqlarida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos iqtisodiy modelining mafkurasi, iqtisodiy islohotlar strategiyasi va taktikasining, ularning mustaqillikni mustahkamlash va davlatimizni

jahonning rivojlangan mamlakatlari safiga olib chiqishdagi o'rniga oid konseptual masalalarning nazariy tahlilini chuqurlashtirdi.

Miliy iqtisodiy siyosat jaxon tajribasidan, respublikaning o'ziga xos xususiyatlaridan va xalqning mentalitetidan kelib chiqadi, u yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi – demokratik jamiyat, barqaror bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan va dunyo tizimiga keng integrasiyalashgan huquqiy davlat ko'rish bilan uzviy bog'langan.

Suveren O'zbekiston iqtisodiy ta'limotining mafkurasi ilgari mavjud bo'lgan iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarini tubdan o'zgartirish, qudratli yuksak texnologik sanoatga, rivojlangan qishloq xo'jaligi va ixcham xizmat ko'rsatish sohasiga ega bo'lgan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozorni yaratish, inson manfaatiga, xalq turmush darajasining og'ishmay ko'tarilib borishiga qaratilgan iqtisodiyotni shakllantirish strategik ustuvor vazifalar sifatida belgilaydi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan yangi jamiyatning iqtisodiy poydevorini yaratish falsafasi va tub islohotlar strategiyasining negizida besh muhim tamoyil yotadiki, yosh davlat o'ziga xos rivojlanishining milliy modeli va o'tish davrining bosh siyosati ana shularga asoslanadi.

Ularning asosiy mazmuni qo'yidagilardan iborat:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan bus-butun holi etish. Iqtisod siyosatdan ustuvor bo'lishi, uning ichki mohiyatini tashkil etish kerak.

Ikkinchidan, murakkab o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lmogi lozim. U xalq manfaatlari yulida islohot jarayonlarida tashabbus ko'rsatish, iqtisodiy rivojlanishning etakchi ustuvor yo'nalishlari belgilash, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va izchil amalga oshirishni o'z zimmasiga olishi kerak.

Uchinchidan, yangilanish va taraqqiyotning butun jarayoni huquqiy asosga ko'rilishi lozim. Iqtisodiy o'zgarishlar ular sinovdan o'tgan, amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlarga suyangandagina sezilarli natijalarga erishish va bu jarayonlarni orqaga qaytmasligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

To'rtinchidan, real demografik holatni, aholining turmush darajasini hisobga olgan xolda bozor iqtisodiyotiga o'tish odamlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha oldindan tayyorlangan kuchli tadbirlar bilan qo'shib olib borilishi lozim. Faqat kuchli, ta'sirchan ijtimoiy himoya mexanizmi va ijtimoiy kafolatlar mavjud bo'lgandagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, bozor iqtisodiyotiga qarab dinamik ravishda siljib borish mumkin.

Beshinchidan, yangi iqtisodiy bozor munosabatlarini takomillashtirish vazminlik bilan, chuqur o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Mustaqil O'zbekistonning siyosiy rahbariyati strategik vazifalarni amalga oshirishning metodologiyasi va taktikasini tanlashda avval-boshdanoq bozorga o'tish jarayonida jadallashtirilgan ommaviy iqtisodiy erkinlashtirishni taqazo etuvchi «shok terapiyasi» usullaridan foydalanishga qarshi chiqdi.

G'arb iqtisodiy sotsiologiyasi «Iqtisod va jamiyat» deb tarixdan joy olgan. Amerikalik J.Smilzer o'zining «Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi» nomli maqolasida iqtisodiy sotsiologiyani juda keng ravishda tasvirlab bergan. Mutafakkirning fikricha sotsiologlar va iqtisodchilar iqtisodiy hayot to'g'risida bir-birlaridan tamomila farq qiluvchi savollarga javob izlaydilar. Sotsiologlar muammolarga kengroq, iqtisodchilar tor ma'noda yondashadi.

5.4. Hozirgi jamiyat rivojlanishi barcha ijtimoiy fanlar qatori sotsiologiyaniig oldiga ham katta vazifalarni qo'ymokda. Mehnat sotsiologiyasining asosiy tadqiqot mavzusi bu mehnat, ishlab chiqaruvchilar va ishlab chiqarish vositalaridir.

Kishilarning mavjudligi ishlab chiqarish tizimiga bog'liq. Oziq-ovqat, eyish-ichish, kiyim-kechak, turar joy-siz yashashimiz mumkin emas.

Umuman ishni – insonlar ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilgan moddiy ne'mat va xizmatlarni ishlab chiqarish va ko'rsatish uchun jismoniy va aqliy mehnat sarflashdan iborat deb e'tirof etishimiz mumkin.

Hozirgi zamon jamiyatlari iqtisodiy tizimining eng muhim xarakterli xususiyatlaridan biri – ulardagi haddan ko'p murakkab va xilma-xil mehnat taqsimotida qarama-qarshilik juda kattadir. Hozirgi sanoatlashgan tizimda minglab turli – tuman mutaxassisliklar mavjud. Ular o'rtasida o'zaro aloqalar kuchayib bormoqda.

Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi buyicha barcha ijtimoiy ma'lumotlarni to'plashga, ishlab chiqarish vositalaridan to'la foydalanishga, mehnatni boshqarishga asoslangan mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasi roli ahamiyat kasb etish bilan birga huquqiy va demokratik tizimni rivojlantirishga, ijtimoiy adolatni o'rnatishga yordam beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat sotsiologiyasi oldida ulkan vazifalar turibdi. Bugungi kunda mehnatni boshqarish va sotsiologik monitoringlar olib borish davr talabidir.

Mehnat jarayoni uch jarayondan iborat:

- 1) Mehnat mavzusi
- 2) Insonning foydali faoliyati
- 3) Ishlab chiqarish vositalaridir.

«Mehnat sharoitlari» kategoriyasi ham ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, inson uchun mehnat sharoitining normal yoki zararli bo'lishi ham mumkin.

Normal mehnat sharoitlari – kishilar ahvoliga ziyon, zarar etkazmaydi.

Zararli mehnat sharoitlari (kimyoviy joylarda, shaxtalarda ishlash) inson salomatligiga katta tahdid soladi.

Mehnatning mazmunida asosan rag'batlantirish yotadi. Rag'batlantirish – mehnatning samarasiga ko'ra ishchi xizmatchi xodimlarni moddiy va ma'naviy mukofatlashdir.

Agar mehnat jarayoni o'z vaqtida, me'yorida, adolatli rag'batlantirib borilsa, ishchi xizmatchilarning ishlab chiqarishning sifatiga, mehnat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini ijobiy holatga olib kelishga erishiladi. Rag'batlantirish mehnat jamoasining mas'uliyatlarini yana bir bor oshirishga imkoniyat yaratadi.

Mehnat jamoasi – o'zaro xamfikir, g'oyaviy birlik ustun bo'lgan odamlarning bir manfaatda birlashuvidir.

Mehnat jamoatlari ikkita guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari: sanoat, qurilish, qishloq va o'rmon xo'jaligi, moddiy-texnik ta'minlash
2. Noishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari: sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, san'at, ilm, uy – joy ta'minoti va boshqalar.

Mehnat tashkilotlarining bu tariqa taqsimlanishi ko'p hollarda shartli ravishda bo'ladi. Hozirgi kunda marginal yoki aralash xarakterga ega bo'lgan tashkilotlar ham mavjud. Xalq xo'jaligida band bo'lgan jamoalardan tashqari, o'quv, armiya va sport jamoalari ham bor.

Mehnat sotsiologiyasining asosiy o'rganadigan muammolaridan ishsizlikdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov yangi sharoitlarida bandlik sohasiga e'tibor berish kerak deb alohida ta'kidlab o'tganlar. Ya'ni ishsizlik bozor munosabatlari sharoitida ob'ektiv reallik hisoblanadi. Shuning uchun ishchi ko'chi ham tovarga aylanishi, mehnat bozorini vujudga kelishi tabiiy jarayondir. «Mehnat bozori bo'lmasa ishchi kuchi tovarga aylantirilmasa, bozor munosabatlari to'g'risidagi gap-so'zlar ko'zida qolib ketadi» deydi Prezidentimiz.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, hatto iqtisodiyot jihatidan rivojlangan davlatlarda ham ishsizlik darajasi 5-10 % ni tashkil etadi. G'arb iqtisodchilarning ta'kidlashlaricha, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida ishsizlik darajasi aholi soniga nisbatan 4 % atrofida bo'lsa bu normal holat deb qabul qilingan.

Mustaqil O'zbekistonimiz ham bu muammodan holi emas. Lekin ishsizlikni oldini olish, ish bilan ta'minlanmaganlarni ijtimoiy himoya qilish uchun «bo'sh ish o'rinlari» yarmarkalarining doimiy tashkil etilishi. Bu endilikda hatto barcha tumanlarda ham tashkillashtirib borilmoqda. Umuman ishsizlik muammosini har tomonlama o'rganish va bartaraf etish uchun sotsiologik tadqiqotlar juda zarurligini davr ko'rsatmoqda. Joylardagi holatlarni o'rganish, kishilarning qiziqishlari, qayta o'qitish va kasbga yo'naltirish masalalarini ilmiy sotsiologik tarzda tashkil etish lozim.

Ishchilar bilan siyosiy va iqtisodiy hokimiyatga ega bo'lgan rahbarlar o'rtasidagi nizolar oldindan mavjud bo'lib kelgan. Lekin korxona rahbari alohida bir ishchisiz o'z ishini olib borishi mumkin, ammo ko'pchilik ishchilar mehnatisiz bu dunyodagi barcha korxona tashkilotlar mehnat jamoalarida kasaba uyushmalari tuzilgan. Kasaba uyushmalari

XIX asrning to'rtinchi choragida qonuniy tus olgan. Kasaba uyushmalari – korxonalarda ishchilar amaliy jihatdan formal hokimiyatga ega bo'lmaganligi tufayli, ularning moddiy manfaatlarini himoya qilish uchun paydo bo'lgan.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat jamoalarida ishchi xizmatchilar, rahbarlar o'rtasida turli mojarolar, nizolar kelib chiqishi mumkin.

Nizo – vujudga keladigan ziddiyatlarni hal etishning samara bermaydigan yo'lidir, chunki nizo paytida odamlarda hissiyotlar kuchlilik qiladi, shu sababli fikrlash jarayoni susayadi, o'z xulqini nazorat qila olmay deviant xulq-atvorga ro'baru kelishadi.

Deviant – xulq atvor (o'z xulqidan chetga chiqish) dir. Natijada o'rtadagi ziddiyatlardan nizolar kelib chiqadi. Agar nizo o'zaro hal etilmasa, o'sha jamoaning rahbari tashabbusni o'z qo'liga olib uni hal etishda qatnashish lozim. Shuni ta'kidlash lozimki, asossiz tenglashtirish o'zini ijtimoyalangan deb biluvchi, barchani teng biluvchilarning qoniqmasligini kuchaytiradi. Tekischilik g'oyasi – nizo ishtirokchilarining agressiv xulq-atvorining sabablaridan hisoblanadi. Boshqacha sababi – ma'muriyat tomonidan va mehnat jamoasi tomonidan aynan bir xil bo'lmagan nizolarga munosabat. Uchinchisi – nizoni yumshatmaslik usulining ishlab chiqilmaganligi, buning natijasida dekonstruktiv kuchlar konstruktiv kuchlardan yuqori keladilar. To'rtinchi sabab – ba'zan ijtimoiy muammolarni ko'pchilik bo'lib echish o'rniga – faqatgina ma'muriyat bo'yniga asossiz qo'yilishi.

Bu erda eng muhimi, ikkala nizoli tomonlar, nizoni kelib chiqish sabablarini topishlari va o'z huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib harakat qilishlari lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasining xalq xo'jaligidagi ahamiyati oshib bormoqda. Yangi tashkil etilgan va etilayotgan turli mehnat jamoalaridagi munosabatlarni doimiy o'rganib borish lozim. Jamiyatimizning turli qatlamlari birlashgan jamoalarda mehnat mazmunini, sharoitini doimiy tadqiq etib borish mehnat sotsiologiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

5.5. Guruh va tashkilotlar hayotimizni boshqaradi va ulardagi hukumat tizimlari xulq-atvorimizni cheklab, unga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Tashkilot – bu maxsus maqsadlar uchun ajratilgan noshaxsiy aloqalar asosida faoliyat olib boruvchi insonlardan tashkil topgan yirik birikmalardir. An'anaviy dunyoda ko'pchilik ijtimoiy tizimlar uchun vaqt odatlar va an'analar ta'sirida rivojlanib kelgan. Boshqa tomondan, tashkilotlarning ko'pchiligi loyihalashgan, ya'ni ma'lum maqsadlarda ta'sis etilgan va shu maqsadlarga erishishiga yordam beradigan maxsus binolarda joylashgan. Bugun biz uchun tashkilotlar nega bunchalik muhimligini tushunish qiyin emas.

Tashkilot o'zaro bog'langan va o'ziga xos maqsadlar sari faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy guruhlardir. Yuqori darajadagi rasmiylashgan guruhlar tashkilot doirasidagi qonun qoidalar, ish tartiblari amalda hamma a'zolarining faoliyatlarini qamrab oladi.

Ijtimoiy tashkilotlarga xos bo'lgan qo'yidagi to'rtta xususiyatlar mavjud:

1. Har qanday tashkilot o'z maqsadlariga ega.
2. Maqsadga erishishi uchun tashkilot a'zolari o'ziga xos mavqei bo'yicha taqsimlanadilar.
3. Tashkilot mehnat taqsimoti va uni ixtisoslashtirish asosida vujudga keladi.
4. Boshqaruv tizimi tashkilot faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish chu vositalarga ega.

Shu ma'noda sotsiologlar ijtimoiy tashkilotlarni rasmiy va norasmiy tashkilotlarga bo'linadi. Rossiyalik sotsiolog A.Prigojin fikricha, rasmiy tashkilot – aloqa, status va rollarni ijtimoiy rasmiylashtirish asosida tashkil qilish usulidir, deb izohlaydi.

Amerikalik sotsiolog A.Etsioni esa bu rasmiy tashkilotlarni uchga bo'ladi:

1. Majburiy tashkilotlar – kishilar o'zi istamagan holda burch tufayli, yoki majburiy ravishda ba'zi tashkilotlarni a'zosiga aylanadilar. Bunga misol qilib (axloq tuzatish shifoxonasi, qamoqxona, turma va armiya).

2. Erkin tashkilotlar – kishilar ixtiyoriy ravishda a'zo bo'ladigan tashkilotlar. Bularga (qizil yarim oy jamiyati, yashillar harakati, jamoat tashkilotlari va boshqalar).

3. Utilitar (manfaatli) tashkilotlar – manfaat tufayli biror bir foyda tufayli sodir bo'ladigan tashkilotlar (universitetlar, birlashmalar, firmalar).

Barcha zamonaviy tashkilotlar byurokratik xususiyatga ega. Byurokratiya so'zi 1745 yilda de Gurne tomonidan iste'molga kiritilgan. U «idora» va «yozuv stoli» ma'nolari anglatadigan «byuro» so'ziga yunoncha «boshqarmok» fe'lini qo'shgan. Shunday qilib «byurokratiya» so'zi amaldorlar hokimiyati degan ma'noni anglatadi. M. Veber tomonidan byurokratiyaga berilgan aniq ta'rif ahamiyatlidir. Veber fikricha, zamonaviy jamiyatda byurokratiyaning tarqalishi qochib qutulib bo'lmaydigan jarayondir. Byurokratik hukumatning rivojlanishi – yirik ijtimoiy tizimlarning administrativ talablarini bajarishning yagona yo'lidir. Biroq, o'tkazuvchi yirik kamchilik sifatida qaraydi.

Boshqaruv tizimi to'g'risidagi M.Veberning ta'limoti sotsiologlar tomonidan tanqid ostiga olindi. A.Goldner nuqtai nazaricha, hokimiyatning ikki tipi, ya'ni ierarxiyada tutgan mavqei va kasb doirasidagi bilimlar darajasi bir-biriga qarama-qarshi keladi. Boshqaruv – buyruqqa asoslanadi, shuning uchun xam unga bo'ysunish ixtiriyoy sodir bo'lmaydi.

Tashkilot tuzilmalariga doimiy ta'sir o'tkazuvchi yana bir omil – bu axborot texnologiyalari, ya'ni kompyuter va elektron aloqa vositalarining rivojlanishidir. Axborotni qayta ishlash avtomatik tizimlari bir kator jarayonlarda keng qo'llaniladi. Har doim biror kimsa bankdan pul olsa, yoki samolyotga chipta sotib olsa, u kompyuter aloqa tizimi bilan aloqa qiladi. Asosiy ishni inson emas, mashina bajaradigan to'la «elektron ofis» yaratilishiga xali uzoq va bu yo'lda bir qator muammolarni hal etish lozim. Shunga qaramay, tashkilotlarda ko'plab vazifalarni elektronika zimmasiga yuklash tendensiyasi kuchayib bormoqda. Tashkilotlarda nazorat muhim rol o'ynaydi, chunki u tartib-intizom, ya'ni xulq-atvorni tartibga solish bilan bevosita bog'liq. Tashkilotlar, agar undagi jarayonlar tasodifan sodir bo'lsa, samarali faoliyat ko'rsata olmaydi.

Intizom tashkilotdagi jismoniy sharoitlar va ish jadvallarida belgilangan harakatlar qat'iy ketma-ketligi vositalarida saqlab turiladi.

Nazorat tashkilotlardagi faoliyatni kuzatishni nazarda tutadi. Tashkilotlarda hatto nisbatan yuqori lavozimni egallab turgan xodimlar xam nazorat ostida bo'ladilar, lekin xodim qanchalik past pogonani egallasa, uni shunchalik qat'iy nazorat qilishadi.

Maktabda sinf xonasi misolini ko'rib chiqaylik. O'quvchilar odatda partalarda qator bo'lib o'qituvchi qarshisida o'tiradilar. Bolalar har doim ish bilan bandliklarini ko'rsatishga harakat qiladi.

5.6. Sotsiologiyada jamoatchilik fikri termini yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy hayotida keng qo'llanila boshlagan.

Jamoatchilik fikrining ommalashuvi jamiyatda uning rasmiy tus olishini ta'minladi. Turli siyosiy oqimlar partiya va uyushmalar harakatlarining tezlashuvini asosiy sabablardan biridir.

Jamoatchilik fikri – joriy masalalarga jamiyat a'zolarining umumiy qarashlaridir.

Demak, jamiyat asosini tashkil etadigan turli qatlam a'zolarining biron bir voqea hodisa va jarayon, o'zgarishlarga bo'lgan fikrlar majmuasidir.

«Jamoatchilik fikri» atamasi inglizcha public opinioin so'z birikmalaridan olingan bo'lib XVIII asrlar oxiridan boshlab yuzaga kelgan.

Jamoatchilik fikri yuzasidan G.Lebon, V.Baur, Ch.Kuli, U.Lipmon o'z tadqiqotlarini olib borishgan. Taniqli M.Ougl fikricha, jamoatchilik fikri mohiyatini izohlashda yakdil nuqtai nazarning shakllanmaganligi bu boradagi ilmiy-nazariy asos holati haligacha barham topmaganligini alohida ta'kidlaganlar. Amerikalik sotsiolog U.Lipman nuqtai nazar nazaridan jamoatchilik fikri – kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasidir.

Jamoatchilik fikri adabiyot va san'at, siyosat va diniy muassasa arboblari ham turlicha izoh va ta'rif berishga harakat qilganlar.

Xususan, Gegel «Xalq o'y hayoli va hohishlarining noorganik birlashuvi va yalpi namoyon bo'lishi jamoatchilik fikridir» deb ta'kidlaydi.

Rus olimi V.Bexterev fikricha, jamiyat talablarining uyushgan muloqotlarining xulosalari jamoatchilik fikrini tashkil etadi deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini sotsiologiya fani doirasida tahlil qilish, o'rganish, olingan ilmiy-nazariy xulosalardan amaliyotda foydalanishda jamoatchilik fikrining o'rni beqiyosdir. Xo'sh, jamoatchilik fikri nima?

Jamoatchilik fikri – xalk istaydigan narsalarni bilishning noorganik uslubidir. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari bo'lgan fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. Chunki, fikrlarning o'zida u yoki bu holatga nisbatan taxminiy, o'tkinchi o'zgaruvchan fikr muloxaza, his-to'yg'ular yig'indisidir. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan qiziqmaslik, undan foydalanmaslik degani emas. Mashhur ispan sotsiologi Ortega – i – Gasset fikricha, «Dunyoni jamoatchilik fikri boshqaradi, bu shunday asosiy kuchki, undan kishilar hamjamiyatidagi hukmronlik kelib chiqadi». Jamoatchilik fikri ijtimoiy xususiyatga ega. Jamiyatning xar bir guruh va qatlamlarning ijtimoiy vaziyati, jamiyatda tutgan o'rnini ifodalaydi. Demak, jamoatchilik fikri-kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasi hisoblanadi.

Jamiyat a'zolarining sa'y-harakatlari, xulki, yurish-turishlari ahvoliga ma'qullash yoki tanqid qilish orqali ta'sir ko'rsatish, ularni ijobiy yo'nalishga burish jamoatchilik fikrining ta'sirchanlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Kuchli ta'sir imkoniyatlariga ega

bo'lgan jamiyat a'zolari jamoatchilik fikri uchun asos bo'ladigan masalani chuqur anglashga intiladilar. yetarlicha bilim va o'z salohiyatlariga ega bo'lmagan kishilar esa ko'p holatlarda ijtimoiy – siyosiy voqelikka bee'tibor aralashib ketadilar. Shuning uchun xam jamoatchilik fikri ko'proq intellektual takomilga erishgan bilimli, salohiyatli kishilarga tayanadi. Jamoatchilik fikri juda murakkab ijtimoiy hodisadir. Jamoatchilik fikrini tasvirlash, aniqlash juda qiyin, uni o'lchab ham bo'lmaydi. Ammo, u jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud, uning ta'sir doirasini alohida shaxs hatti-harakatlarida, omma xulh-atvorida ham ko'rsa bo'ladi. Bozor munosabatlaridan yangi masalalarga ko'chishi ro'y bermoqda. Biroq, jamoatchilik fikrining qayta yo'nalishi murakkab jarayon hisoblanib, u oldingi shakllangan xulq-atvorning, ba'zi an'analarning o'zgarishini, o'z ichiga oladi. Shu bois jamoatchilik fikrining jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan, biroq kishilar ongida chuqur o'rnashgan aynan qaysi jihatlarini o'zgartirish lozimligini his eta bilish kerak. Odamlar fikrini o'zgartirishdan ko'ra, jamiyat hayotida ro'y berayotgan muammolar, o'zgarishlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarini, fikrlarini shakllantirish engilroq.

Jamoatchilik fikrini salohiyatini oshirish uchun ongli ravishda har tomonlama puxtalik bilan yondoshish zarur.

Sobiq Sho'rolar davrida jamoatchilik fikrini xaspushlash avj olib ketgan edi. Bu asosiy dolzarb muammolarni aholi ongiga nisbatan fikrni zo'rlab singdirish edi. Bu holat hukmron asosiy guruhlar, toifalarning hohish irodasi va manfaatlarini ifodalaydi. Mustaqil O'zbekistonimizda jamoatchilik fikrini erkin shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jamoatchilik fikri bilan yoki unga tayangan holda ish ko'rilmoqda. Shunday bo'lsada, hozir O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganishda jiddiy muammolar ham mavjud. Xususan, axborot oqimining zaifligi. Chunki hozirgi informatsion jamiyat rivoji ana shuni taqazo etmoqda. Buning uchun Respublikamizning barcha hududlari bo'yicha axborot kompyuter ma'lumotlar bazasini yaratish kerak.

Bizda esa bu sohada ma'lum nuqsonlar mavjud. Jamiyat hayotining barcha sohalarida jamoatchilik fikrini aniqlash uchun ma'lumotlar etishmaydi. Buni faqat sotsiologik so'rovlar orqali amalga oshirishimiz mumkin. O'zbekistonda «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazini tashkil etilishi yuqoridagi muammolarni tizimli hal etishda katta yordam ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ko'plab mahallalarda «Oila va yoshlar» mavzusida e'tiborli ishlar amalga oshirildi. «Bir bolaga etti mahalla ota-ona» aqidasi o'z samarasini bermoqda. Zero mahalla oqsoqollari, faxriylarining har bir oila a'zolariga bildirilgan fikrlari yosh avlodlarni to'g'ri yo'lga chorlaydi.

Tarixan shakllangan, jamoatchilik fikri asosida saqlanib kelgan bunday an'analar etimlarga, beva-bechoralarga, bemorlarga mehr-muruvvat ko'rsatish masalalarida ancha kuchli bo'lgan. Yoshlarni tarbiyalashda jamoatchilik fikrini kuchi va ta'siridan keng foydalanish hozirgi kunda xam katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu asnodan Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti «Ma'naviyat va ma'rifat» bo'limi qoshida «Ijtimoiy fikr» markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu markaz bevosita institut talabalari hayoti, ularni dunyoqarashi, qiziqishlari, Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatlarini o'rganib, tahlil etib bormoqda. Buning natijalari esa o'z samarasini bermoqda. Talabalar orasida «Talaba va stipendiya», «Qonun va yoshlar», «Siyosiy jarayonlar», «Talabalar uyi-ikkinchi uyim», «Ustoz-shogird»

6-Mavzu: Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va umumlashtirish.

Reja:

- 6.1. Tadqiqot dasturining nazariy asoslari.**
- 6.2. Sotsiologik tadqiqot usullari.**
- 6.3. Eksperiment usuli.**
- 6.4. Intervyu. Test usuli.**
- 6.5. Xujjatlarni o'rganish usuli.**
- 6.6. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish.**

T a y a n c h tushunchalar

So'rov, anketa, kuzatish, statika, intervyu, fundamental, panel, standart, respondent, klinik, eksperiment, tajriba, sotsiometriya, miqdor

Adabiyotlar:

4, 7, 12, 13

6.1. Ijtimoiy - ma'naviy, iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi, jamiyat hayotining turli jabxalariga zamonaviy texnik vositalar va yangi texnologik jarayonlarning singib borishi, yangi istiqloq mafkurasi oliy maktab tizimidagi ta'lim - tarbiya ishlari darajasining oshib borishiga sabab bo'lmokda. «Bozor munosabatiga o'tish davrida, -deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov,-ijtimoiy soha-sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolda qolmoqda. Hozirgi murakkab davrda bu tarmoqlarni qat'iy qo'llab quvvatlash, shu sohalarda ishlayotgan kishilar mehnatini munosib baholash uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishi zarur (I.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat, T. «O'zbekiston» 1992 y, 32-bet).

Sotsiologik dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarini xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy taxmin)ni belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va taxlil etish sxemasini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, dastur, asosan ikki katta bo'lim, ya'ni metodologik-nazariy va amaliy-uslubiy bo'limlardan iborat.

1. Nazariy-metodologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot ob'ektini xarakterlash, maqsad va vazifalar faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

2. Nazariy-uslubiy esa, ma'lumotlarni to'plash usullarini bayon etish, yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, taxlil qilish va tavsiyalar tayyorlash singari amaliy faoliyatlarini mujassamlashtiradi.

Tadqiqot dasturida qo'yidagilar bo'lishi lozim:

1. Tadqiqot o'tkazishdan maqsad.

Tadqiqot natijalari asosida oliy maktab ma'muriyati, tegishli vazirliklar va keng jamoatchilikka kasb mahorati sirlarini egallash uchun zarur hisoblanuvchi omillarga bag'ishlangan amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqish.

2. Tadqiqot ob'ekti.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv - tarbiyaviy jarayon hisoblanib, bu sohadagi umumiy ahvol, muammolar, istiqbol mo'ljallari tuliq o'rganib chiqiladi. (boshqa sohalarga ham xuddi shunday).

3. Tadqiqot predmeti.

Kasb maxoratini shakllantirish jarayonida tashkiliy-pedagogik, ijtimoiy-ruxiy omillarning o'rni va ta'siri masalalaridan iboratdir.

4. Asosiy tushunchalarning mantiqiy tahlili.

Tadqiqot maqsadiga, mavzu ob'ekti va predmeti talablariga muvofiq, ilmiy izlanishning analitik xususiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, «umumiy rivojlanish», «kasbiy rivojlanish», «kasbiy mahorat» kabi tushunchalarni tahlil etish, ularning mazmunan o'ziga xosligini aniqlab chiqish.

5. Tadqiqot gepotezasi (farazi).

Asosiy ilmiy taxmin.

6. Tadqiqot vazifalari.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda bo'lishini ko'rsatuvchi mo'ljall vazifasini o'taydi. Maqsadni amalga oshirish jarayonida bir qator ijtimoiy ziddiyatli holatlarga duch kelish mumkin.

Dekart, «Agar siz qandaydir o'ylanmagan, kutilmagan, xayolingizga keltirmagan narsani topishni o'ylamaydigan bo'lsangiz, siz bu narsani hech qachon topa olmaysiz degan edi. Dasturda ilmiy izlanishga sabab bo'lgan ijtimoiy ziddiyatli muammolar va ularning asosiy tushuncha, atamalari atroflicha izohlab beriladi.

Dasturda kompleks sotsiologik tadqiqot natijalarini qo'lga kiritish, o'rganilayotgan ob'ekt va predmet xususiyatlarini aniqlash maqsadlarida sotsiologik tadqiqotlar instrumentarisiga alohida to'xtalib o'tishimiz lozimdir. Instrumentariy deganda biz - sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bulgan metodik va texnik usullar yig'indisini e'tiborga olamiz. Har qanday tadqiqot biron bir muammoni qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat xayotida o'zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin.

Sosilogik tadqiqotlarning sifat darajasini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozimdir:

1. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish.(yuqorida qayd etganimizdek, buyurtma va ob'ektning mavjudligi).

2. Amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayoni.

3. Empirik ma'lumotlarni sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

4..Olingan ma'lumotlarni taxlil qilish umumlashtirish. (Biz bunga sal keyinroq to'xtalib utamiz).

Har qanday tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; ishchi farazni ishlab chiqish, dasturni ishlab

chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi. (Sotsiologiyadan ma'ruzalar matni. Qarshi. 2000 yil 38-45 betlar).

Tadqiqot dasturi ichki tuzilish jarayoni qo'yidagicha bo'ladi:

1. Nazariy metodologik qism.
 - a). Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.
 - b). Ob'ekt va predmetini belgilash.
 - s). Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.
 - d). Predmetning dastlabki taxmini.
 - e). Ishchi farazni ishlab chiqish.

II. Amaliy sotsiologik tadqiqot ish jarayoni.

- a). Tadqiqotning umumiy rejasi.
- b). Asosiy amaliy ish jarayonlari.
- s). Tanlov ishlari.
- d). Dastlabki olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.
 - e). Natijalarni umumlashtirish.

Yuqoridagi tushunchalar mazmunining atroflicha ochib berilishi dastur farazini tuzish uchun keng yo'l ochilishiga imkon yaratadi.

Ilmiy faraz-ob'ektning tuzilishi xaqidagi nazariy asoslangan ilmiy taxmin bo'lib, mazkur ob'ektning tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xarakteri, ularning faoliyati yuritishi va taraqqiyotini o'zida ifodalaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xozirgi bozor iqtisodi sharoitida tadqiqotlar mufassal ishlab chiqilgan dasturlariga ega bo'lishi zarur.

6.2. Sotsiologik tadqiqot usullari.

Oldingi ma'ruzalarimizdan bizga ma'lumki, sotsiologiyada so'rov, intervyu, kuzatish, eksperiment, xujjatlarni o'rganish, test, statistik, kabi tadqiqot usullari mavjud. Biz endi bu usullarga batafsil va kengroq to'xtalib o'tamiz.

So'rash usuli sotsiologiyada keng yoyilgan tadqiqot shakli hisoblanadi. Bu usulda guruh yoki ayrim kishilarga savollar bilan murojaat qilib, dastlabki, birlamchi ma'lumotlar to'plab olinadi. So'rash usulining yozma (anketa) va og'zaki turlari mavjud. Bundan tashqari statsionar va sirtqi (telefon orqali, matbuot orqali), ommaviy va ekspertlar uchun, saylanma va yalpi (referendumlar ham shunga kiradi) shakllarda namoyon bo'ladi. So'rash usullarining bugungi kunda keng tarqalganligi, aloxida e'tibor va obro'ga ekanligi ko'pgina sabablarga bog'liqdir. So'rash usullari orqali shunday ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkinki, bunday ma'lumotlarni hamisha xam hujjatli manbalardan olish mumkin emas. Lekin shunga qaramay 1930 yillar boshlarida bu usul Sobiq Ittifoqda inqirozga yuz tutdi. Genetika singari fanlar qatorida sotsiologik so'rovlar ham man etilgan edi. O'tkazilganda ham yuzaki ravishda o'tkazilar edi. Anketa usuli va uni qo'llanilishi. Anketa so'zi fransuzcha atama bo'lib, tadqiq etish, o'rganish, so'rash degan ma'nolarda qo'llaniladi. Anketa usuli ommaviy faktlar (voqea-hodisalar) kelib chiqish sabablarini aniqlash, mazkur faktlarning turli qirralari, umumiy tendensiyalarini, jamoatchilik fikrining bu hodisalariga nisbatan munosabati masalalarini o'rganadi. Odatda, anketa deganda, muayyan mavzu tevaragidagi savollar to'plami tushunilib, bu savollarga tadqiq etiluvchi kishilar guruhi javob berishi nazarda tutiladi.

Anketa o'tkazishdan maqsad sotsiologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan dastlabki, aksariyat hollarda muayyan mo'ljallanuvchi ma'lumotlar to'plashdan iboratdir. Anketa ba'zi xususiyatlariga ko'ra intervyu janriga yaqin turadi, ammo beriladigan savollar alohida olingan respondentga emas, balki ko'pgina kishilar guruhiga qaratilgan bo'ladi. Ayni vaqtda tuzilgan savollar og'zaki tarzda emas, balki yozma shaklda beriladi. Anketa jamoatchilik fikrini atroflicha o'rganish omili sifatida sotsiologik tadqiqot usullari orasida alohida o'rin tutadi. Anketa ayni vaqtda shunday janrki, bu usulni qo'llagan tadqiqotchi odatda so'roq qog'ozlari yoki anketani respondentlarga tarqatgandan boshlab tadqiqot ma'lumotlarini to'plash jarayoni ustidan nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Anketa so'rovi shaklining asosiy komponentlari sotsiolog, respondent va anketadan iboratdir.

Anketa savollari respondent tomonidan to'ldiriladi. Shu boisdan ham anketa bilan ishlash usulida savollar respondent uchun juda ravshan va aniq bo'lishi zarur. Yuqorida qayd etganimizdek, anketa bir necha qismdan iborat bo'lib, tadqiq etilayotgan ilmiy-ijtimoiy muammo uchun zarur bo'lgan, tegishli ma'lumotni olishga imkon beruvchi turli-tuman, ammo mantiqiy-yakuniy savollar majmuasidan iboratdir.

Shu o'rinda yana bir karra qayd etish lozimki, anketa shunchaki tuzilmaydi, balki muayyan tadqiqot natijalariga erishish vositasi sifatidagina tuziladi va amalga oshiriladi.

Demak, anketa vosita, muayyan maqsadga erishish omilidir. Anketaning kirish qismida sotsiolog tadqiqot o'tkazayotgan ilmiy tashkilot yoki tadqiqot guruhi manzilgoxi, tadqiqotning nomi va maksadi, anketani tuzuvchining ismi- sharifi, ilmiy unvoni va darajasi, anketa tuzilgan vaqt va respondentga berilgan savollarga qay tarzda javob qilish usuli va nihoyat, to'ldirilgan anketani kimga va qaerga topshirish yo'llari qisqa va lo'nda bayon etiladi. Bu muqaddimaning ahamiyati shundan iboratki, respondentdan kirish qismidan dastlabki ma'lumotlarni oladi va tayyorgarlik ruhiga ega bo'ladi.

6.3. Eksperiment.

Sotsiologiyada eksperiment usuli ham qo'llaniladi. Aslida eksperimentlar tabiiy fanlarda keng qo'llaniladi, lekin sotsiologiyada uni qo'llash doirasi cheklangan. Laboratoriya sharoitida faqatgina kichik guruhni joylashtirish mumkin, lekin ular ham o'z ustilaridan tajriba o'tkazilayotganligidan xabardor bo'ladilar va o'zlarini odatdagidan farqliroq umuman eksperimentni sun'iy yaratilgan sharoitda bir yoki bir necha o'zgaruvchan miqdorning boshqalariga ta'sirini o'rganish deb ta'riflashimiz mumkin.

Filipp Zimbardo o'tkazgan ajoyib tadqiqot bunga misol bo'la oladi. U o'ziga xos «qamoqxona» tashkil etib, unda maxbuslar va qo'riqchilar rolini talabalar o'ynagan. Uning maqsadi turli rollarni ijro etish talabalar xulq-atvorini qay darajada o'zgartirishini aniqlash edi, olingan natijalar tadqiqotchilarni hayratga solgan. «Qo'riqchilar» tez orada avtoritar muomila tarzini o'zlashtirib olib, mahbuslarga nisbatan haqiqiy dushmanlarga munosabatda bo'la boshladilar. Ularning sheriklarida esa aksincha, haqiqiy qamoqxona maxbuslarida kuzatiladigan apatiya va isyonkorlik belgilari paydo bo'la boshlagan. Bu xolat shunday keskin bo'lganki, eksperimentlarni boshidan to'xtatishga to'g'ri kelgan. Tadqiqotchi qamoqxonalarda xulq-atvorni u yerdagilarning shaxsiy xislatlarini emas, muhitning o'zi belgilaydi, degan xulosaga kelgan.

Bu tadqiqot natijasidan shunday xulosaga kelib chiqadiki, eksperiment tadqiqotning shunday metodini, uning jarayonida biz shunday sharoitni yaratamiz yoki bo'lmasa izlab topamizki, u yordamida o'zimizni qiziqtiradigan hodisalar aloqasi namoyon bo'ladi.

Eksperiment o'tkazish uchun avvalo ob'ekt tanlanadi, so'ngra esa, eksperiment qilinadigan guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni eksperimental holat vujudga keltiriladi. Eksperimentning asosiy maqsadi avvalo, - bu farazni isbotlash yoki inkor etishdir. Hozirda turli sohalarida olib borilayotgan sotsial eksperimentlarning asosi ham yuqoridagilarga uzviy bog'liqdir.

6.4. Intervyu.

Biz yuqorida so'rov (anketa) usuli haqida batafsil to'xtalib o'tgan edik. So'rov va intervyu metodlari o'rtasida deyarli farq yo'k. Chunki respondent (so'raluvchi) ga berilgan savolnoma bo'yicha tadqiqotchi undan intervyu oladi. Anketa bo'yicha olingan intervyuni ba'zan «formallashtirilgani» yoki «nazorat qilinadi» deb atashadi. Ba'zi intervyular umuman anketasiz o'tkaziladi: odamdan ancha uzoq vaqt mobaynida intervyu olinadi va chuqurroq ma'lumot olish talab qilinganida kam sonli so'raluvchilar so'rov qilinadi. Chuqurlashtirilgan intervyular odatda so'rovlarga qaraganda batafsilroq ma'lumot beradi, lekin bu usullarning kamchiligi shuki, intervyu oluvchi ta'sir o'tkazishi va natijada ma'lumotlar o'zgarib ketishi mumkin; bundan tashqari, javobni taqqoslab taxlil qilish qiyinroq bo'ladi.

6.5. Hujjatlarni o'rganish.

Hujjatli tadqiqot – ish mobaynida bosma va qo'lyozma materiallardan samarali va sistemali tarzda foydalanish ko'pincha e'tibordan chetda qolib ketadi. Hujjatli tadqiqot – sotsiologik tadqiqot yig'ishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir.

1. Hujjatli tadqiqotlarda arxiv materiallari, davlat xo'jjatlari, davlat xo'jjatlari, xatlar, sud bayonnomalarini kiritish mumkin. Tadqiqotda foydalanilayotgan hujjatlar qatoriga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha avval o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari, xulosalarini ham kiritish mumkin. Hukumatlar tomonidan keltiriladigan ma'lumotlar juda keng ko'lamli bo'lib, bir necha manbaalarni o'z ichiga oladi. Masalan, muntazam ravishda, ma'lum vaqt oralig'i bilan, aholini ro'yxatga olish olib boriladi. Bu esa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha batafsil ma'lumotlar beradi. Bunday so'rovdagi savollarga javob berish majburiy bo'lgani uchun, olingan materiallar ancha to'liq va batafsil bo'ladi. Bularidan tashqari statistik hujjatlar, guvohnomalar, protokollar, hisobga olish ma'lumotlari ham mavjud. Shaxsiy hujjatlarga: avtobiografiya, xotiranomalar, xatlar kiradi. Hujjatlarni o'rganishning avtobiografik metodini F.Znanetskiy ishlab chiqqan. Sotsiolog hujjatlarni batafsil ko'rib chiqib o'rganadi. Shuning uchun hujjatlar sotsiolog va tarixchi mutaxassislariga qimmatbaho material hisoblanadi. Hujjatlarni o'rganish metodini o'tkazish, texnikai qo'yidagicha bo'ladi:
2. Belgilarni, tushunchalarni aniqlash va analiz qilish.
3. Bu ko'rsatkichlarni tekst bilan o'zaro nisbatini aniqlash.
4. Ko'rsatkichlar uyicha miqdoriy analiz qilish.

Kontekst (nutq yoki asarning tugallangan parchasi) ni sharxlab xulosalash.

Xujjatli manbalar ishonchliligini turlicha bo'ladi va ulardan foydalanayotgan tadqiqotchi ularning haqiqiyligini to'g'ri baholay bilishi zarur. Chunki, gazeta, jurnal, maqolalarida, ma'lumotlar ko'pincha ishonchsiz manbalardan olingan bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sotsiologiyadagi tadqiqot usullariga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin:

1. Anketalashtirish (yozma shakldagi so'rov).
2. Intervyu (suhbatlashish, og'zaki so'rov).
3. Sosiometriya – (guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish).
4. Test – (maxsus qayta ishlangan vositalar, rasmlar, savollar yordamida shaxsiy sifat va qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan so'rov).
5. Ekspert – (mutaxassislarga tegishli bo'lgan so'rov).
6. Panel – (guruxlarning belgisiga ko'ra bir-birini taqqoslash va farqlash).
7. Yaxlit – (jamoatchilik fikrini, aholini ro'yxatga olishni o'rganish).
8. Pilotaj – (informasiya olish).

Ushbu sotsiologik so'rovlarning barchasi maxsus o'z xususiyatlariga ega. O'rganilayotgan muammoni ular xususiyatlaridan kelib chikib, hal qiladi.

6.6. Tadqiqotlarni tahlil etish va umumlashtirish.

O'tkazilgan har bir sotsiologik tadqiqot tahlil etilib, umumlashtiriladi. So'rov natijalarini qayta ishlash va statistik taxlil qilish qulay, ammo bu usulga qarshi kishilarning aytishlaricha, qayta ishlagan natijalar to'g'ridek tuyuladi, lekin bu javoblarning aksariyati o'ta yuzakilikni hisobga olganda, natijalar aniqligi shubxa o'ytotadi. Bundan tashqari, javob berishdan bosh tortirish holiari ko'p uchraydi, ayniqsa, anketalar pochta orqali yuborilganda. So'rov o'tkazish sharoitlari va natijalarini izohlashda qo'llaniladigan til ko'pincha javob berayotgan real tirik shaxslardan juda uzoqdir. Savollar pochta orqali yuborilganda so'raluvchi kishini tasavvur xam etish mushkul.

Umuman olganda, tadqiqotchilar va respondentlar o'rtasida aloqa qanchalik to'g'ri va bevosita bo'lsa, xulosalar shunchalik informativ va asosli bo'ladi. So'rov natijalari imkon qadar chuqurlashtirilgan materiallar bilan to'ldirilishi kerak.

Yig'ilgan material tahlil qilinib, tadqiqotga to'rtki bo'lgan muammoga muvofiqlashtirilishi kerak. Olingan ma'lumotni qayta ishlash va tadqiqot mavzusiga moslashtirish oson kechmaydi. Hatto, barcha savollarga aniq javob olish imkoniyati bo'lganda xam ko'plab tadqiqotlar to'g'allanmay qolib ketadi. Tadqiqot natijalari tahlil qilingandan sung, hisobot tayyorlanishi shart. Odatda jurnal maqolasi yoki kitob shaklida chop etiladigan hisobot tadqiqot tabiatining izohi va qilingan xulosalarni asoslashdan iborat bo'ladi. Bu oxirgi bosqich hisoblanadi. Ko'plab hisobotlardan javobsiz qolgan savollar kelib chiqadi va qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi. Har qanday indvudial tadqiqot faoliyati ijtimoiy hamjamiyat doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqot jarayonining bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasida tadqiqot bilan bog'liq muammolarni o'rganishda vujudga keladigan eng muhim muammolardan biri – sabab va oqibatlar taxlilidir. Ikki xodisa yoki xolatning sababli bog'lanishi – bu shunday bog'lanishki, unda bir hodisa yoki xolat boshqa birini keltirib chiqaradi. Misol uchun tog' yon bag'rida turgan avtomobilning qo'l tormozi qo'yib yuborilishi ko'rsatilgan oqibatni keltirib chiqaradi. Xuddi tabiiy fanlar kabi, sotsiologiya ham barcha hodisalar o'z sabablariga ega, degan

taxmindan kelib chiqadi. Sotsiologik tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sabab va oqibatlarni aniklashdan iborat.

Ma'lumotlarni taxlil qilish bu farazni tekshirish, olingan bilimlarni o'rnini aniqlash, axborotni ishlab chiqish, EHM ga taxlil uchun beriluvchi ma'lumotlarni tayyorlash.

Informasiyalarni ishlab chiqish, guruhlash. Sotsiologiyada taxlil uchun matematik metodlarni o'rni xam ahamiyatlidir. Bu matematik metodni qo'llashdagi asosiy muammo matematik apparatni tuzib chiqishdir. Matematik usullar sotsiologik tadqiqotlarda qo'yidagi vazifalarni hal etadi:

1. Taxlil.
2. Tanlash.
3. Modellashtirish.
4. O'lchash.

Hulosa qiladigan bo'lsak, sotsiologik tadqiqotlarda matematikani qo'llanishining muxim jixati – sotsial hodisalarni modellashtirishdir.

MAVZU YUZASIDAN IZOHLI LUGAT

Adaptatsiya yashashga moslashish qobiliyati. An'anaviy davlat	biologik organizmning muayyan sharoitda ishlab chiqarish negizini dehqonchilik va chorvachilik tashkil qiladigan davlatlar. negizida axborot jarayonlaridan foydalangan texnologiya. biron maqsadga borish, erishish. bir-birlari bilan shaxsiy munosabatlarda bo'lgan individlar guruxi. aniq hokimiyatning amaldorlari xulq atvorini belgilab beradigan tashkilot turi.
Axborot texnologiyasi	tasavvur, tushuntirish va eslab qolishni qamrab oladigan tafakkur jarayoni. individlarning norasmiy birlashmasi. muayyan muxitta keng tarqalgan turning boshqa turlar bilan almashtirilishini bildiradi.
Anketa Birlamchi gurux	ijtimoiy stratifikatsiya tizimi perarxiyasida yuqoriga va pastga qarab siljish. individlarning mamlakat ichkarisidagi bir mintaqadan ikkinchisiga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o'tish. rasmiy apparatga ega bo'lgan jamiyat. aholini o'rganish.
Byurokratiya	odamlarning ruhiy shifoxona va qamoqxonalardan ozod qilinishi. joriy masalalarga jamiyat a'zolarining umumiy qarashlari. davlat tomonidan o'zining barcha fuqarolari uchun kafolatlangan ijtimoiy ta'minot xuquqi.
Bilish	individlarning umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan statistik guruhi. Ijtimoiy to'siqlar odat va marosimlar bo'lib, ular yordamida bir guruh o'zini boshqa guruhlardan ajratib oladi.
Banda Vorislik	ijtimoiylashuv agentlari ijtimoiylashuvning eng muhim
Vertikal mobellik	
Gorizontal mobellik	
Davlatchilik jamiyati Demografiya	
Dekarserasiya	
Jamoatchilik fikri	
Ijtimoiy xuquqlar	
Ijtimoiy toifa	

Ikkilamchi guruh	jarayonlari yuz beradigan guruhlar. bir-birlari bilan shaxsan tanish
Makrosotsiologiya	bo'lmagan individlar guruhi. katta ko'lamdagi guruhlar, tashkilotlar
Mikrosotsiologiya	yoki ijtimoiy tizimlarni o'rganish. inson xulq atvorini yuzma-yuz ta'sir
Matriarxal oila	kontekstida o'rganish. erning xotin qarindoshlari bilan birga
Monogamiya	yashashini taqazo qiladigan oilaviy tizim. nikoh shakli bo'lib, unda nikohdagi har
Monoteizm	bir individga ayni bir paytning o'zida
Noformal iqtisodiyot	bitta er yoki bitta xotin bilan nikoxlanishga ruxsat etiladi. yakkaxudolik.
Nuklear oila	pul muomalasining rasmiy doirasidan chetda
Oligarxiya	bajariladigan iqtisodiy operatsiya.
Oliy ta'lim	ota, ona hamda balog'atga etmagan bolalikdan
OAV	tashkil topgan oila.
Plyuralistik jamiyat	tashkilot yoki jamiyatda juda
Poligasiya	ozchilikning idora qilishi. maktabdan keyin kollej yoki universitetlarda
Psixozanaliz	davom etadigan ta'lim.
Reproduktiv oila	gazeta, jurnal, radio, televidenie
Sanksiya	singari auditoriyalarga mo'ljallangan kommunikatsiya turlari. bir necha etnik guruhlar bir-biridan
Siyosiy partiyalar	aloxida yashovchi jamiyat. individ ayri bir paytda bir necha shaxs
tashkilot.	bilan nikohda bo'lishi mumkinligini. ruhiy tahlil.
Sinfiy ong	individ bilan nikohdan o'tganda yoki bola
Sotsiologik tasavvur	ko'rganda vujudga kelgan oila. rag'batlantirish yoki jazolash turlari
Sudrogat onalik	bo'lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo'lgan xulq-atvor me'yorlari. davlat hokimiyatiga erishishi, hokimiyatdan
Tabaqa	muayyan dasturni bajarish uchun tuzilgan
	individ tomonidan sinfiy tizimni va
	mansub bo'lgan sinfnings anglanishi.
	sotsiologik tadqiqot jarayonida o'z
	tasavvurlarini qo'llash.
	bola ko'rmaydigan er-xotinlar uchun
	boshqa ayolning bola tug'ib berishi.
	individlar guruhlari o'rtasidagi

	tengsizlik, qonun tomonidan mustahkamlangan tabaqalar.
Tashkilot	muayyan hokimiyat munosabatlari tizimiga jalb etilgan odamlarning katta guruhi.
Ta'lim tizimi	muayyan jamiyat doirasida ta'limni ta'minlovchi tizim.
Terrorizm	nodavlat guruhlarining siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan foydalanish.
Totalitarizm	siyosiy boshqaruv shakli, unda butun hokimiyat uning siyosatidan norozi bo'lganlarni terror qiluvchi, o'zining sodiq odamlariga
tayanuvchi	diktator qo'lida jamlanadi.
Totemizm	muayyan turdagi hayvonlar yoki O'simliklarga ilohiy xususiyatlarni tirkovchi diniy e'tiqod tizimi.
Urbanizatsiya	kichik va katta shaharlarning rivojlanishi.
Fan	ob'ektlar, hodisalar va odamlarni urganishda tadqiqotning tizimli usullari.
Faraz	emperik tadqiqotning asosi sifatida olga surilayotgan g'oya yoki taxmin.
Fukaro	siyosiy xamjamiyatning fuqarolik bilan Bog'liq muayyan xuquq va majburiyatlarga ega bo'lgan a'zosi.
	Fundamentalizm qadimiy diniy matnlarning aynan mazmuniga e'tiqod qilishni rag'batlantiruvchi g'oya, yo'nalish.
Fikrlik huquqi	muayyan davlatning barcha fuqarolari ega bulgan yuridik xuquqlar.
	Eksperiment tadqiqot usuli, unda o'zgaruvchanlik to'la va muntazam nazorat ostida tadkikotchi
Emperik taqiqotlar	tomonidan yaratilgan sun'iy sharoit. Sotsiologiyaning har bir sohasida O'tkaziladigan amaliy tadqiqotlar.
Qo'yi sinf	sinfy piramidaning eng qo'yi qismida joylashgan individlar sinfi.
Hujjatli tadqiqot	arxiv materiallari yoki rasmiy statistik ma'lumotlari singari hujjatlarni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent "ma'naviyat" 2008 y
2. И.Каримов. Жаҳон-молиявий иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни баратараф этиш йўллари ва чоралари. Т. 2009 й.
3. Каримов И.А. Ўз Р.Конституцияси қабул қилинганлигининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Тошкент, «Халқ сўзи» газетаси, 2009 йил 6 декабр.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидага «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш-устивор мақсадимиз» номли маърузаси. Тошкент, «Ўзбекистон овози» газетаси, 2010 йил 28 январ.
5. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. T.: 1997.
6. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy Dasturi. T.: 1997.
7. Karimov I.A.. «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li».Toshkent . «O'zbekiston», 1992y .
8. Karimov I A.. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- jild. 1996 yil.
9. Karimov I.A.. . «Biz qurish yaratish yo'lidan boraveramiz». O'zbekiston, 1995 y.
10. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» T.O'zbekiston 1996 y.
11. Karimov I.A.. « Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik» T. O'zbekiston.1994.
12. Karimov I.A.. « Istiqlool va ma'naviyat» T.O'zbekiston .1994.
13. Karimov I.A.. «Maqsadimiz–tinchlik, barqarorlik, xamkorlik» T. Uzbekiston , 1995.
14. Karimov I.A.. «Xalqimizning yuli mustaqillik, ozodlik va tub isloxotlar yo'lidir». T.O'zbekiston .1996.10.
15. Aliqoriev N. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. Bishkek.. 1999 yil.
16. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari.Toshkent, «Fan»,1999 yil.
17. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish.Andijon,1999 yil.
18. S.Gulomov. Kuch bilim va tafakkurda. T., 2002 y, 128 – bet.
19. Juraev S. Yoshlar siyosatiga oid. Toshkent, «O'zbekiston»,1998 yil.
20. Juraev N. Tarix falsafasi. T.. «Ma'naviyat»,1999 yil.
21. Xolbekov A, Idivov U. Sotsiologiya. Lug'at.-T.. Ibn Sino, 2003 yil.
22. Yunusov K. Sotsiologiya.Metodik o'quv qo'llanmasi. Andijon 2000 yil.
23. Sotsiologiyadan ma'ruzalar matnlari. Toshkent, 2000 yil.
24. Sotsiologiyadan ma'ruzalar matnlari. Qarshi, 2004 yil.
25. «Ijtimoiy fikr inson xuquqlari». № 3, 2000 y
26. Aliqoriev N. Sotsiologiya va ta'lim taraqqiyoti. Ta'lim muammolari, ilmiy-uslubiy yutuqlar va ilg'or tajribalar. T.:2, 1998.
27. Jabborov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., "O'qituvchi", 1994.

Жалилов Б.Н
“Социология” ўқув фани бўйича
ЛОЙИҲАГА ОИД ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Ўқув лойиҳаси:
«Маънавий ҳаёт социологияси»

ПЕДАГОГИК АННОТАЦИЯ

- ✗ Ўқув фани: «социология»
- ✗ Ўқув мавзуси: «Маънавий ҳаёт социологияси»
- ✗ Иштирокчилар: 3 босқич бакалавриат талабалари
- ✗ Таълимий мақсад: жамиятнинг маънавий ҳаёт соҳалари бўйича билимларни чуқурлаштириш.

Режалаштирилаётган ўқув натижалари: жамиятнинг муҳим жихатларни белгилайдилар; соҳаларнинг бир биридан фарқини ва айнан бир соҳани танлайдилар.

- ✗ Лойиҳани муваффақиятли бажариш учун талабалар эга бўлишлари лозим бўлган **таянч билим ва кўникмалар**. Биладилар: жамият хақида тушунча, жамиятни соҳаларини социологик тадқиқ қилиш усулларини
- ✗ Жамиятнинг соҳалари бўйича социологик тадқиқот ўтказиш *малакаларига* эга бўладилар.

Турланиш белгиларига муофиқ лойиҳа таснифи:

- ✗ лойиҳа тури: амалий-йўналтирилган;
- ✗ мавзу-мазмунли соҳаси: монопроект- бир фан миқёсида ишлаб чиқилган;
- ✗ талабаларнинг лойиҳа фаолияти йўналишларининг таснифи: лойиҳа иштирокчиларини тақлид қилувчи, яширин;
- ✗ иштирокчилар сони: биттадан тўрттагача;
- ✗ муддати: бажариш давомийлиги-2 ой.

Лойиҳа бўйича иш тартиби: дарсдан ташқари фаолият шароитда бажарилади. Семинар машғулотларида тақдимот қилинади.

Лойиҳани баҳолаш: гуруҳли лойиҳада
қуйидагилар баҳоланади:

- ✖ (мавзулар бўйича) лойиҳанинг алоҳида қисмларини, талабаларнинг яқка ўзлари бажарганликлари (макс. 15 балл);
- ✖ Ҳисобот (макс. 7 балл);
- ✖ Лойиҳа тақдимоти (макс.8 балл);
- ✖ Тақдимот жараёни ва лойиҳа ҳимояси (макс.3 балл)

✖ **Лойиҳали ўқитиш босқичи:**

Тайёргарлик босқич: лойиҳага кириш, талабалар фаолиятини ташкиллаштириш- аудитория иши.

Лойиҳани бажариш босқичи- аудиториядан ташқари иш.

Якуний босқич: лойиҳа тақдимоти, лойиҳани ва талабалар фаолиятини баҳолаш, Лойиҳа фаолиятини ўзи таҳлил қилиш- аудитория иши.

Лойиҳага оид ўқитишни ташкиллаштиришни ўзи таҳлил қилиши- аудиториядан ташқари иш.

ТАЪЛИМ МОДЕЛИНИНГ ҚИСҚАЧА ТАВСИФНОМАСИ:

лойиҳали ўқитиш жараёнида қуйидагилардан фойдаланилади:

- ✗ **Ўқитиш усулари:** лойиҳалар усули, йўриқнома бериш, матн билан ишлаш.
- ✗ **Ўқитиш шакллари:** умумий, гуруҳли, жамоавий, якка тартибли.
- ✗ **Ўқитиш воситалари:** лойиҳа топшириғи, услубий кўрсатма, компьютер технологиялари

I. LOYIHA TOPSHIRIGI

КИРИШ

- ✗ Mustaqil O'zbekiston davlatining xalqaro maydonda nufuzli mamlakatga, barcha sohalarda rivojlangan jamiyatga ega bo'lish darajasiga ko'tarilishi, ana shu tarkibiy bo'laklarga bog'liq.
- ✗ Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan iboratki, dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish ularning qalbida ishonch o'yg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch quvvat va madad topishda umumiy yagona maqsad va orzu intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi.
- ✗ Respublikamiz jamiyati ijtimoiy tarkibini sotsiologiya fani doirasida o'rganish, eng avvalo, nazariy-metodologik jihatdan asoslanishini taqazo etadi.
- ✗ Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi. Birinchi yo'nalish O.Kantdan fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan amerikalik sotsiolog T.Parsons va T.Spenserlarning sotsiologik ta'limotidir.
- ✗ Ikkinchi yo'nalish – ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida, ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, moddiy munosabatlarning belgilovchi roliga asosiy e'tibor qaratgan.
- ✗ O.Kant va E.Dyurkgeym sotsiologik qarashlariga asoslanib, jamiyatning bir butunligi uning «ijtimoiy muhitdagi doimiy muvozanati», ichki va tashqi ta'sirini muvofiqlashtirish – sotsiologiyaning asosiy vazifasi qilib belgilangan. Umuman, ijtimoiy tizim tarkibidagi o'zgarish va integrasiya sifatidagi Parsonsning funktsional sotsiologik ta'limoti muvozanat to'g'risidagi nazariyadir. Sotsiologik amaliyot funktsional o'zgarishlarsiz, evolyutsiyasiz revolyutsiya tushunchasi bilan, funktsional munosabatlar tahlilsiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga o'rganuvchi ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelishini ko'rsatmoqda.

ЛОЙИҲА ДОИРАСИДА ЕЧИМИНИ ТОПИШ ТАЛАБ ЭТИЛАДИГАН, МУАММО:

Жамиятнинг маънавий ҳаётидаги сохаларидаги иктисодий, ижтимоий муаммолар «иктисодий инкироз», «ДЭ», «Гоявий бушлик», «Оммавий маданият» кабиларга карши тавсиялар ишлаб чикиш.

Муаммо ости муаммолар:

- ✗ Юкоридаги саналган сохаларни жамият ҳаётига таъсирини урганиш;
- ✗ Сохалардаги муаммоларни инсониятга таъсирини аниқлаш;
- ✗ Жамиятнинг маънавий сохаларини ижобийлигини аниқлаш;

ВАЗИФАЛАР:

1. Маданиятнинг кишилар ҳаётига таъсирини ўрганиш;
2. Фан ва таълимнинг жамият ҳаётига таъсирини аниқлаш;
3. Диннинг жамият ҳаётига таъсирини аниқлаш.

.

Лойиҳа мақсади (нима учун яратилади): жамиятнинг маънавий соҳаларини чуқур урганиш ундаги ютук ва муаммоларини тадқиқ қилиш, социологик тадқиқот утказишни такомиллаштириш .

Лойиҳанинг якуний натижаси (маҳсули): жамиятнинг маънавий соҳаларидаги муаммолар юзасидан илмий тавсиялар ишлаб чиқилади

Лойиҳа маҳсулотидан фойдаланувчилар: аспирантлар, мураббий устозлар.

Лойиҳа чегарси:

бажариш вақти: 2 ой (оралиқ назорат вақтида тақдимот қилинади);

иштирокчилар сони: биттадан тўрттагача.

ЛОЙИҲА ТУЗИЛИШИ ВА МАЗМУНИ:

- ✖ Жамиятнинг маънавий ҳаётига социологик тадқиқотларни қўллаш;
- ✖ Лойиҳа мавзусини ёритиб берувчи ахборот
- ✖ Фойдавланилган манбалар келтирилган рўйхати.

ЛОЙИХА ГУРУХИ ИШТИРОКЧИЛАРИНИ ВАЗИФАЛАРИ:

- ✗ Мавзу, муаммонинг долзарблигини асослаш, лойиҳа мақсади ва вазифаларини ифодалаш.
- ✗ Ахборот манбасини танлаш, уни йиғиш, тузилмага келтириш, матн, жадвал, чизма ҳамда шарҳлаш кўринишида расмийлаштириш, хулосаларни ёзиш, (вазифалар бўйича) фойдаланилган манбалар рўйхатини тузиш.
- ✗ Лойиҳани расмийлаштириш.
- ✗ Ҳисоботни тайёрлаш.
- ✗ Лойиҳани тақдимотга тайёрлаш.
- ✗ **Лойиҳани тақдим этиш шакли:** «маънавий ҳаёт социологияси» тавсияномаси.

ҲИСОБОТНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ТУЗИЛМАСИ:

- ✗ Лойиҳа мавзуси.
- ✗ Лойиҳа мақсади ва якуний натижа (маҳсул).
- ✗ Иштирокчилар, (жадвал кўринишидаги) иштирокчилар фаолиятининг турлари.
- ✗ Лойиҳа мавзусини долзарблигини асослаш.
- ✗ Ечими ҳал этилаётган муаммони ифодалаш ва асослаш.
- ✗ Вазифалар тартиби.
- ✗ Лойиҳа-вазифалар ечимининг натижалари.
- ✗ Фойдаланилган манбалар рўйхати.

II. ТАЛАБАЛАРГА УСЛУБИЙ КЎРСАТМАЛАР

1. Лойиҳа фаолиятини босқичма-босқич бажариш учун йўриқнома
 - ✗ 1 босқич. Тайёргарлик
 - ✗ 1.1. Лойиҳа фаолияти жараёнида ечимини топиш талаб этиладиган, муаммо, мақсад ва лойиҳа натижалари, вазифалар ҳамда иштирокчиларнинг лойиҳа фаолияти турларини аниқланг.
 - ✗ 1.2. Ахборот манбаларини аниқланг.
 - ✗ 2 босқич. Лойиҳа фаолиятини режалаштириш
 - ✗ 2.1. Мақсадга эришиш йўлини ишлаб чиқинг.
 - ✗ 2.2. Иш режасини тузинг:
 - ✗ иштирокчилар ўртасида лойиҳани ишлаб чиқиш бўйича ҳамда уни расмийлаштириш, тақдимотга ва ҳисоботга тайёрлаш бўйича вазифаларни тақсмиланг.
 - ✗ Бажариш вақтини ва тайёр маҳсулот турини аниқланг.
- 3 босқич. Амалга ошириш
 - А. Лойиҳани бажариш
 - Б. Ҳисоботни тайёрлаш

В. Лойиҳани тақдимотга тайёрлаш

3.11. Лойиҳани Microsoft Power Point бўйича тайёрлаш
йўриқномасидан фойдаланиб, тақдимотга тайёрланг.

3.12. Лойиҳа тақдимотида гуруҳ аъзолари ўртасидаги
вазифаларни аниқланг.

4 босқич. Очиқ тақдимот, лойиҳани ҳимоялаш ва баҳолаш

Лойиҳани ва лойиҳа фаолиятини баҳолаш

Гуруҳли лойиҳада қуйидагилар баҳоланади:

лойиҳа (макс. 15 балл);

ҳисобот (макс.8 балл);

лойиҳа тақдимути (макс. 7 балл);

лойиҳа тақдимути ва ҳимоя жараёни (макс.3 балл).

Карши мухандислик иктисодиёт институти

Фалсафа кафедраси

**«Фалсафа» фанидан «Олам ва одам»
мавзусидаги маъруза учун**

«КЕЙС СТАДИ»

Тузувчи: к.ук Б Жалилов

Педагогик аннотацияси

Укув предмети:

Фалсафа

Мавзу:

Олам ва одам

Кейснинг асосий максоди : Оламнинг пайдо булишининг диний, фалсафий ва илмий карашларни таккослаш, оламнинг асосида ётувчи 4та унсурнинг ахамиятини англаш ва олам одамсиз мазмунга эга эмаслигини курсатиб бериш.

Укув фаолиятидан кутиладиган натижалар:

- Оламнинг асосида нима энг асосий унсур эканлигини курсатиб бериш
- Олам ва борлик тушунчаларини фарклаш
- Муаммоли вазифаларни ечишда назарий билимларини куллаш
- Асосий муаммоларни аниклаш ва умумий хулосага келиш.

Ушбу кейсни муваффакиятли амалга ошириш учун олдиндан талабалар куйидаги билим ва куникмаларга эга булмоклари зарур:

Талаба билиши керак:

Олам нима, кандай пайдо булган, одам, инсон, шахс тушунчаларни, оламнинг шакллари, борликнинг асослари, борликнинг атрибутларини.

Талаба амалга ошириши керак:

Мавзуни мустакил урганади, муаммонинг асосий мохиятини аниклаштиради, мустакил карор кабул килади, мантикий фикрлайди, турли карашларни узаро таккослайди.

Талаба эга булмоги керак:

Куникмаларга, такдимот килишни, хамкорликда ишлашни, муаммоли холатларни тахлил килишни.

Манбалардан фойдаланиш учун тавсия этиладиган адабиётлар руйхати:

Каримов И.А. «Юксак маънавият -енгилмас куч» Тошкент . 2008

1.Каримов И.А. «Жахон молиявий иктисодий инкирози, Узбекистон шароитида уни бартараф этишнинг чоралари ва йуллари » Тошкент. 2009

2.Фалсафа. Укув кулланма. (Э.Юсуповнинг умумий тахрири) Тошкент, «Шарк», 1999, 47-54 бетлар.

3.Фалсафа. Маърузалар матни. Тошкент, 2000, 72-80- бетлар.

Каримов И.А. «Юксак маънавият -енгилмас куч» Тошкент . 2008

4.Каримов И.А. «Жахон молиявий иктисодий инкирози, Узбекистон шароитида уни бартараф этишнинг чоралари ва йуллари » Тошкент. 2009

5. Фалсафа. Укув кулланма. (Э.Юсуповнинг умумий тахрири) Тошкент, «Шарк», 1999, 47-54 бетлар.

6. Фалсафа. Маърузалар матни. Тошкент, 2000, 72-80- бетлар.

Технологик хусусиятлардан келиб чиккан холда кейснинг тавсифномаси:

Ушбу кейснинг асосий манбаи кабинетли, лавхали булиб, хаётий вазиятлар асосида баён этилган. Ушбу кейсдан «Социология», «Ахлоқшунослик», «Фалсафа» фанларида фойдаланиш мумкин.

КЕЙС: Оламнинг намоён булиши ва унда одамнинг урни.

КИРИШ: Фалсафада олам ва одам муаммоси азал-азалдан файласуфларни кизиктириб келган. Айникса, урта аср мутаффакирларининг ижодларида олам ва одам муаммоси купрок учрайди. Гарб ва Шарк файласуфлари оламнинг пайдо булиш мохияти тугрисида уз илмий карашлари шаклланган. Олам хакида илк тассавурга эга булиш билан биргаликда одам, борлик хакида хам маълумотларга эга булинади. Олам хакида тассавурга эга инсон теваарак атрофдаги вркеа ва ходисаларга, жамиятнинг ижтимоий хаётида содир булаётган узгаришларига уз муносабатларини эркин билдира олади.

«КЕЙС СТАДИ» га асосланган укитиш технологиясининг асосий максади хам анна шуни такоза килади. Ушбу технология Амалий вазиятларни хал этиш жараёнида урганилган укув мавзуси буйича билимларни мустахкамлашга ёрдам беради. Ушбу кейсни муваффакиятли амалга ошириш учун мавзу буйича фалсафий мушохада килиш мезонларга эга булиш лозим.

Тавсия этилган кейсни ечиш куйидаги натижаларга эришишга имкон яратади:

- Узлашрилган мавзу буйича билимларни мустахкамлаш
- Муаммоларни индивудал ва гурухий тахлилда билим ва куникмаларни кайта топшириш
- Фалсафий-мантикий фикрлашни кенгайтириш
- Уз билимини текшириб куриш.

Оламнинг намоён булиши ва диний, фалсафий ва илмий қарашлар. (1-вазият)

Олам ва одам муаммоларининг тарихий илдизлари. Бу мавзуга оид масалалар оламда одамнинг мавжудлиги ва яшаши, ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ ҳолда шаклланган. Олам тўғрисидаги қарашлар одамзоднинг тарихи қанчалик қадимий бўлса, шунчалик қадимийдир.

Сиз билан биз яшаётган шу дунё ўзининг барча мураккаблиги ва муаммолари, жозибдорлиги ва бутун гўзаллиги билан ягона оламни ташкил этади. Олам тушунчаси, энг аввало, одам ва унинг фаолияти кечадиган маконни акс эттиради. Агар одам бўлмаганида эди, бу олам ҳақидаги тасаввурлар ҳам бўлмас эди. Демак, олам одам нуқтаи назардан келиб чиқиб, субстанция (лотинча, *substantia* — ниманингдир асосида ётувчи моҳият деган маънони беради) деб аталди. билан мазмундордир. Олам уни ташкил ётувчи нарсалар билан биргаликда намоён бўлади. Ҳеч нарсаси йўқ олам йўқликдир. У мавҳум тушунча, яъни абстракциядир.

Қадимги даврлардан буён одам ўзини англагач, оламнинг таркибий қисми эканлигини тушуна бошлади. Дастлаб, унинг ҳаётини таъминловчи тирикчилик воситаларининг аҳамиятини тушуниб етди ва уларни эъзозлаш, авайлаб-асраш туйғуси шакллана бошлади.

Шу туфайли, олам асосида ётувчи тўрт элементни: ҳавони, сувни, тупроқни ва оловни муқаддаслаштириш сингари ғоялар вужудга келди ҳамда олам тўғрисидаги содда космологик қарашлар пайдо бўлган. Айрим кишилар одамнинг тирикчилигини таъминловчи нарсаларни одам учун, унинг яшаши учун худо томонидан яратилган неъматлар деб билди. Бундай қарашдан олам одам учун яратилган деган маъно келиб чиқади. Аслида қандай? Бу фалсафий муаммодир.

Оламда одам яшаши учун қулай бўлган шароит бўлмаса-чи? Одамлар қаҳратон совуқ ҳукмронлик қиладиган доимий музликлар бағрида ҳам, ҳар доим иссиқлик тафтидан қовжираб ётувчи иссиқ ўлкаларда ҳам яшашади-ку. Ҳар бир жойда одам ўзига қулай шароит яратиб олишга интилади.

Одам ҳайвонлардек табиатдаги бор нарсалардан озикланиш билангина чегараланиб қолмасдан, уларни ўзига мослаштиришга, совуқ бўлса — иситишга, хом бўлса - пиширишга, иссиқ бўлса — совутишга интилади. Бу эса одамнинг оламга мослашишга интилиши оқибатидир. Яъни, оламни одам ўзига, ўз эҳтиёжларига мослаштиришга интилиб келган.

Шу тарзда одам ҳам, олам ҳам такомиллашиб, ер юзи ўта «хонакилаштирилган» оламга айланган.

Умуман, Сиз олам деганда нимани тушунаси?

Олам, энг аввало, тор маънода бу одам яшайдиган жой. Аслида одамзод ва ҳайвонот олами, ўсимлик ва ҳашаротлар дунёси, жисмоний, руҳий, маънавий олам ва бошқа шу сингари кўплаб тушунчалар бор. Улар дунёда мавжуд бўлган нарса ва ҳодисалар номи билан аталади. Масалан, одамнинг руҳий олами унинг билим, тажриба ва ҳаёлотини ўз ичига олувчи ўта кенг қамровли тушунчадир. Бунда биз олам одам яшайдиган жой, деган маънога қараганда янада кенгроқ мазмунга эга бўламиз.

Олам ва одам муаммоларининг тарихий илдизлари. Бу мавзуга оид масалалар оламда одамнинг мавжудлиги ва яшаши, ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ ҳолда шаклланган. Олам тўғрисидаги қарашлар одамзоднинг тарихи қанчалик қадимий бўлса, шунчалик қадимийдир.

Сиз билан биз яшаётган шу дунё ўзининг барча мураккаблиги ва муаммолари, жозибадорлиги ва бутун гўзаллиги билан ягона оламни ташкил этади. Олам тушунчаси, энг аввало, одам ва унинг фаолияти кечадиган маконни акс эттиради. Агар одам бўлмаганида эди, бу олам ҳақидаги тасаввурлар ҳам бўлмас эди. Демак, олам одам нуқтаи назардан келиб чиқиб, субстанция (лотинча, substantia — ниманингдир асосида ётувчи моҳият деган маънони беради) деб аталди. билан мазмундордир. Олам уни ташкил ётувчи нарсалар билан биргаликда намоён бўлади. Ҳеч нарсаси йўқ олам йўқликдир. У мавҳум тушунча, яъни абстракциядир.

Қадимги даврлардан буён одам ўзини англагач, оламнинг таркибий қисми эканлигини тушуна бошлади. Дастлаб, унинг ҳаётини таъминловчи тирикчилик воситаларининг аҳамиятини тушуниб етди ва уларни эъзозлаш, авайлаб-асраш туйғуси шакллана бошлади.

Шу туфайли, олам асосида ётувчи тўрт элементни: ҳавони, сувни, тупроқни ва оловни муқаддаслаштириш сингари ғоялар вужудга келди ҳамда олам тўғрисидаги содда космологик қарашлар пайдо бўлган. Айрим кишилар одамнинг тирикчилигини таъминловчи нарсаларни одам учун, унинг яшаши учун худо томонидан яратилган неъматлар деб билди. Бундай қарашдан олам одам учун яратилган деган маъно келиб чиқади. Аслида қандай? Бу фалсафий муаммодир.

Оламда одам яшаши учун қулай бўлган шароит бўлмаса-чи? Одамлар қаҳратон совуқ ҳукмронлик қиладиган доимий музликлар бағрида ҳам, ҳар доим иссиқлик тафтидан қовжираб ётувчи иссиқ ўлкаларда ҳам

яшашади-ку. Ҳар бир жойда одам ўзига қулай шароит яратиб олишга интилади.

Одам ҳайвонлардек табиатдаги бор нарсалардан озиқланиш билангина чегараланиб қолмасдан, уларни ўзига мослаштиришга, совуқ бўлса — иситишга, хом бўлса - пиширишга, иссиқ бўлса — совутишга интилади. Бу эса одамнинг оламга мослашишга интилиши оқибатидир. Яъни, оламни одам ўзига, ўз эҳтиёжларига мослаштиришга интилиб келган. Шу тарзда одам ҳам, олам ҳам такомиллашиб, ер юзи ўта «хонакилаштирилган» оламга айланган.

Умуман, Сиз олам деганда нимани тушунаси?

Олам, энг аввало, тор маънода бу одам яшайдиган жой. Аслида одамзод ва ҳайвонот олами, ўсимлик ва ҳашаротлар дунёси, жисмоний, руҳий, маънавий олам ва бошқа шу сингари кўплаб тушунчалар бор. Улар дунёда мавжуд бўлган нарс ва ҳодисалар номи билан аталади. Масалан, одамнинг руҳий олами унинг билим, тажриба ва ҳаёлотини ўз ичига олувчи ўта кенг қамровли тушунчадир. Бунда биз олам одам яшайдиган жой, деган маънога қараганда янада кенгроқ мазмунга эга бўламиз.

Олам ва одам муносабатлари (2- вазият)

Оламнинг мавжудлиги шубҳасиз бўлган ва барча эътироф этадиган қисми реал олам дейилади. Келажакда мавжуд бўлиши эҳтимоли бўлган олам виртуал олам деб аталади (виртуал сўзи латинча *virtualis* — эҳтимолдаги деган маънони беради). Аниқ маълум бўлган олам конкрет олам дейилади, ҳаёлдаги, тасаввурдаги, идеалдаги олам образи абстракт олам дейилади.

Одамнинг кундалик ҳаётидаги ҳаммага маълум бўлган, тан олинган ҳаёти реал оламга мансуб бўлса, унинг ҳаёлий режалари виртуал оламга, унинг ўзи ва атрофидагилар конкрет оламга, келажакка йўналган орзу-умидлари эса абстракт оламга мансубдир. Одам ўз режаларини реал оламга асосланиб тузса, потенциал оламининг конкрет реалликка айланиш эҳтимоллиги ошади.

Одам оламда бошқалардан ажралиб, яккаю ягона бўлиб эмас, балки ижтимоий ҳаёт кечирази ва жамоа бўлиб яшайди. Одамлар жамоаси жамиятни ташкил этади. Одамлар жамиятдаги ўзаро муносабатлари, фаолиятлари, ўй-ҳаёллари, идеаллари, мақсад ва маслаклари билан биргаликда ижтимоий оламини ташкил этишади. Одамнинг жамиятдаги бошқалар билан биргаликдаги ижтимоий фаолияти, уларнинг ҳар бирига хос бўлган такрорланмас индивидуал оламларига боғлиқдир. Индивидуал олам, айти пайтда ташқи оламини ҳам, ижтимоий оламини ҳам акс эттиради, ўзида ифодалайди. Булар бир-бирлари билан чамбарчас боғлиқдир.

Оламнинг мавжудлиги шубҳасиз бўлган ва барча эътироф этадиган қисми реал олам дейилади. Келажакда мавжуд бўлиши эҳтимоли бўлган олам виртуал олам деб аталади (виртуал сўзи латинча *virtualis* — эҳтимолдаги деган маънони беради). Аниқ маълум бўлган олам конкрет олам дейилади, ҳаёлдаги, тасаввурдаги, идеалдаги олам образи абстракт олам дейилади.

Одамнинг кундалик ҳаётидаги ҳаммага маълум бўлган, тан олинган ҳаёти реал оламга мансуб бўлса, унинг ҳаёлий режалари виртуал оламга, унинг ўзи ва атрофидагилар конкрет оламга, келажакка йўналган орзу-умидлари эса абстракт оламга мансубдир. Одам ўз режаларини реал оламга асосланиб тузса, потенциал оламининг конкрет реалликка айланиш эҳтимоллиги ошади.

Одам оламда бошқалардан ажралиб, яккаю ягона бўлиб эмас, балки ижтимоий ҳаёт кечирази ва жамоа бўлиб яшайди. Одамлар жамоаси

жамиятни ташкил этади. Одамлар жамиятдаги ўзаро муносабатлари, фаолиятлари, ўй-хаёллари, идеаллари, мақсад ва маслаклари билан биргаликда ижтимоий оламни ташкил этишади. Одамнинг жамиятдаги бошқалар билан биргаликдаги ижтимоий фаолияти, уларнинг ҳар бирига хос бўлган такрорланмас индивидуал оамларига боғлиқдир. Индивидуал олам, айти пайтда ташқи оламни ҳам, ижтимоий оламни ҳам акс эттиради, ўзида ифодалайди. Булар бир-бирлари билан чамбарчас боғлиқдир.

Олам ва Борлиқнинг узаро алакодорлиги ва ухшашлиги (3-вазият)

Файласуфлар қадим замонлардан буён «борлиқ» ва «йўқлик» ҳақида баҳс юритишган. Улар борлиқнинг вужудга келиши, моҳияти, хусусиятлари ва шакллари ҳақида кўплаб асарлар ёзишган. Хўш, борлиқ нима? Бу савол бир қарашда жуда оддий кўрингани билан унга шу чокқача барча кишиларни бирдай қаноатлантирадиган жавоб топилгани йўқ. Бу ҳолат борлиққа турлича нуқтаи назарлардан қарашларнинг мавжудлиги билан изоҳланади. Масалан, айрим файласуфлар борлиқни моддийлик, моддий жисмлар билан боғлаб тушунтиришади. Уларнинг нуқтаи назарларича, борлиқ – объектив реалликнигина қамраб олувчи тушунчадир. У ҳолда фикр, инсон тафаккури, ўй-хаёлларимиз борлиқ тушунчасидан четда қолар эканда, деган саволга улар, бундай тушунчалар объектив реалликнинг ҳосиласидир, деб жавоб беришади.

Фалсафанинг борлиқ ҳақидаги таълимотни изоҳлайдиган қисми — онтология деб аталади. (Бу тушунчани фалсафада биринчи бор Х. Вольф қўллаган). Олам ва борлиқ масалаларини фалсафанинг ана шу соҳаси ўрганади.

Йўқлик ҳеч нима демакдир. Ҳамма нарсани ҳеч нарсага айлантирувчи, ҳамма нарсанинг ибтидоси ҳам, интиҳоси ҳам йўқликдир. Бу маънода йўқлик чексизлик, ниҳоясизлик ва мангулик билан бирдир. Йўқлик чекинган жойда борлиқ пайдо бўлади. Демак, борлиқнинг бунёдкори ҳам, кушандаси ҳам йўқликдир. Борлиқ йўқликдан йўқликкача бўлган мавжудликдир. Йўқликни ҳеч нарса билан қиёслаб бўлмайди. Фанда йўқлик нима, деган саволга жавоб йўқ.

Борлиқ ҳақидаги концепциялар. Тарихдан маълумки, файласуфлар борлиқ ҳақида турлича ғояларни илгари суришган. Марказий Осиё тупроғида вужудга келган зардўштийлик таълимотида борлиқ қуёш ва оловнинг ҳосиласидир, алангаланиб турган олов борлиқнинг асосий моҳиятини ташкил этади, деб ҳисобланган. Чунки бу ғоя бўйича, ҳар

қандай ўзгариш ва ҳаракатнинг асосида олов ётади ва у борлиққа мавжудлик бахш этади.

Қадимги юнон файласуфи Сукрот борлиқни билим билан қиёслайди ва унингча, бирор нарса, биз уни билсаккина бор бўлади, инсоннинг билими қанча кенг бўлса, у шунча кенг борлиқни қамраб олади, деб ҳисоблайди.

Қадимги дунёнинг атомист олими Демокрит борлиқ атомлар мажмуасидан иборат деб тушунтирган. Унинг фикрича, борлиқнинг моҳияти унинг мавжудлигидадир. Мавжуд бўлмаган нарса йўқликдир.

Ислом таълимотида эса борлиқ бу илоҳий воқеликдир. Яъни у Оллоҳ яратган мавжудликдир. Бу борада ваҳдати вуҷуд ва ваҳдати мавжуд таълимотлари бўлган.

Ислом динига мансуб мутафаккирлар борлиқ ҳақидаги таълимотни ҳар тарафлама ривожлантирганлар. Масалан, Форобий фикрича, илк борлиқ азалий Оллоҳнинг ўзидир. Беруний фикрича, борлиқ шундай умумийликки, у ҳамма нарсанинг асосида ётади, демак, борлиқ ҳамма нарсанинг асосидир. Европада ўтган олимлар Давид Юм ва Жорж Беркли борлиқни сезгиларимиз мажмуаси деб талқин этишган.

Ҳегел эса борлиқни мавҳумлик, мутлақ руҳнинг намоён бўлиши, деб таърифлайди. Кўпгина натурфалсафий қарашларда борлиқни ҳозирги замон билан, яъни шу актуал оламга боқлаб тушунтирдилар.

Аслида, борлиқ кенг фалсафий тушунча бўлиб ўзига бутун мавжудликни, унинг ўтмиши, ҳозир ва келажагини ҳам қамраб олади. Файласуфлар борлиқни тушунтириш учун йўқлик тушунчасини унга антипод қилиб олишган ва шу асосда борлиқнинг зарурий моҳиятини очишга интилганлар. Материалистик адабиётларда борлиқни объектив реаллик билан, материя билан айнанлаштириб тушунтиришади.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

Карши муҳандислик иқтисодиёт институти

**Жалилов Бахтиёр Норкулович
Курбонова Маргуба Болтаевна**

СОЦИОЛОГИЯ

ФАНИДАН АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАР ИШЛАНМАЛАРИ

Карши -2010

Ушбу Социология фанидан амалий машғулотлар ишланмалари дастурлар асосида тайёрланиб, барча бакалавр таълим йўналишларида таҳсил олаётган талабаларга мўлжалланган. Унда замонавий педтехнология тизимига суянган ҳолда ўқитувчи мақсади ва идентив ўқув мақсадлари, мавзу бўйича кўриб чиқилиши зарур муаммолар, муҳокама учун саволлар, талабалар мустақил бажариши зарур бўлган топшириқлар келтирилган. Ҳар бир мавзу охирида фанда ечимини кутаётган илмий муаммолар келтирилган бўлиб, хулосалар ва назорат топшириқлари ҳам берилган.

Такризчи: КарДУ доценти А.Шайманова

Социологиядан

1.1. Амалий машғулот олиб бориш технологияси.

1. 1-мавзу: Социология фанининг предмети, тадқиқот объекти услуб, қонуниятлари функциялари метод методологияси.

	Талабар сони	Вақти: 2 соат
	Машғулот шакли	Индивидуал топшириқларни бажаришга асосланган машғулот
	Семинар режаси	2. Социология фанининг предмети, тадқиқот объекти услуб, қонуниятлари функциялари метод методологияси. 3. Социология фанининг соҳавий тизимлари ва ижтимоий фанлар тизимидаги ўрни. 4. Социология фанининг тузилиши ҳамда таркибий қисмлари.
	Машғулотнинг мақсади:	Мавзу бўйича билимларни чуқур ўзлаштиришни таъминлаш.
	Педагогик вазифалар	ўқув фаолияти натижалари.
	- мавзу бўйича билимлари онгли равишда ўзлаштиришнинг мотивациясини яратади: - мавзу бўйича билимларни мустаҳкамлаб ва чуқурлаштиради: - ўз нуқтаи назарини баён қилиш ҳамда шакллантириш жараёнини ташкил этиш. - Гуруҳларда ишлаш кўникмасини ҳосил қилади ва ривожлантиради.	- Социология сўзининг луғавий маъносини, фаннинг шаклланиши тарихини ва бугунги кундаги аҳамиятини тушунтириш. - Жамият ривожда социологиянинг аҳамиятини тушунтириб беради. - Социология ижтимоий, гуманитар ва табиий фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ҳақида маълумот беради.
	Ўқитиш усуллари ва техники	Топшириқлар, амалий ишлаш усули, суҳбат, кичик гурҳларда ишлаш.
	Ўқитиш васиталари	Тарқатма материал, компьютер доска
	Ўқитиш шакли	Жамоа ва гуруҳларда ишлаш
	Ўқитиш шарт-шароити	Техник воситалар билан таъминланган

		аудитория
	Мониторинг ва баҳолаш	Оғзаки назорат савол-жавоб... ўз-ўзини назорат қилиш, рейтинг тизими асосида баҳолаш

Амалий машғулотнинг технологик картаси.

Иш жараёнилари вақти	Фаолиятнинг мазмуни.	
	Ўқитувчи	Талаба
I. босқич мавзуга кириш (10 минут)	1.1. Ўқув машғулотини мавзуси, мақсади уни гуруҳларда ўтказиш режаси эълон қилинади.	Мавзу номини ёзиб оладилар.
	1.2. Таянч сўзлар орқали сўров ўтказилади. Жавобларни умумлаштиради.	Талабадан жавоб кутилади.
